



QIYMAT INJINIRINGI

Toshkent arxitektura-qurilish
instituti huzuridagi tarmoq markazi

**QURILISHDA BAHONI
SHAKLLANTIRISH**

TOShKENT-2022

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: TAQI i.f.b.f.d. Metyakubov A.D.

Taqrizchi: I.Sharipov – “TURON PROJECT-GROUP”
MChJ direktori

O‘quv -uslubiy majmua TAQI Kengashining 2020 yil 11 dekabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	17
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLAR	51
V. KYESLAR BANKI.....	103
VI. GLOSSARIY	108
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	118

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ishchi dastur oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishlari hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur mazmunida xorij ta’lim tajribasi, rivojlangan davlatlarda ta’lim tizimi va uning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Ishchi dastur mazmuni oliy ta’limning maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, kompyuter dasturlari asosida hisoblash texnologiyasi usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu orqali oliy ta’lim muassasalarini pedagog kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish, qurilish konstruksiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida hisoblash va loyihalash texnologiyalarini amaliyatga joriy etish bilan bog‘liq kompetensiyalarga ega bo‘lishlari ta’minlaydi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Ishchi dasturning mazmuni tinglovchilarni “Qurilishda bahoni shakllantirish” modulidagi nazariy metodologik muammolar, chet el tajribasi va uning mazmuni, tuzilishi, o‘ziga xos xususiyatlari, ilg‘or g‘oyalar va maxsus fanlar doirasidagi bilimlar hamda dolzarb masalalarni yechishning zamonaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Qurilishda bahoni shakllantirish: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat qurilish majmuasi iqtisodiyotining va bahoni shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari to‘g‘risida talab qilinadigan bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari bilan tanishtirish va bilimlarini takomillashtirish.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarini kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasi takomillashtirish va yangilash bilan bog‘liq zarur zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;
- tarmoq vazirliklari va idoralari bo‘yicha qurilish materiallari, konstruksiylar va buyumlar narxi bankini tashkil qilish va mavjud muammolar bilan tanishtirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish qiymati, transport xarajatlari aniqlashni o‘rgatish;
- iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida quruvchi ishchilarning ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirishni o‘rgatish;

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Tinglovchi:

- “qiymat” tushunchasi, “boshlang‘ich narx” va “shartnomaviy narx” tushunchalarining iqtisodiy, yuridik mazmun-mohiyati va farqli jihatlari;
- turli qurilishda bahoni shakllantirish usullari va ularning tasniflanishi;
- qurilishda bahoni shakllantirishning nazariy asoslari;
- qiymat turlari va qurilishda bahoni shakllantirishning maqsad va tamoyillarini **bilishi** kerak;

Tinglovchi:

- qurilishda bahoni shakllantirishning qonuniy-me’yoriy va huquqiy asoslarini hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan smeta me’yorlarini;
- qurilish qiymatini baholash, qurilish montaj ishlarini resurs usullar yordamida aniqlash;
- qurilishda bahoni shakllantirishning resursli, yiriklashtirilgan usullarini mukammal bilish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim;

Tinglovchi:

- turli shakldagi qurilishda bahoni shakllantirish va baholash hisobotlarini tayyorlash;
- turli shakldagi qurilish materiallari bozorlarini tahlil qilish;
 - qurilishda bahoni shakllantirish faoliyatida matematik model va kompyuter dasturlarini qo‘llash;
 - smeta xujjatlarini tahlil qilish hamda ulardagi kamchilik va xatolarni bartaraf etish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- mamlakat qurilish materiallari bozorining tarkibini o‘rganish va ma’lumotlar to‘plash;
- investitsion loyihalarni tahliliy baholash;
- qurilish ob’ektlarini baholash qarorlarini qabul qilish kompetensiyaliga ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Qurilishda bahoni shakllantirish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalangan holda o‘tkaziladi;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Smeta hisobida dasturiy vositalarning qo‘llanilishi”, “Ko‘chmas mulk bozori va unda baholash faoliyatining rivojlanish tendensiyalari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modul oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligi darajasini rivojlantirish, ularning ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishlari hamda zamonaviy talim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar kompyuter dasturlaridan foydalanib hisoblash va loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul birligi nomi	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat			
		Hammasi	Auditoriyadagi o‘quv yuklamasi		
			Jami	Jumladan:	
				Nazariy	Amaliy
1.	Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari	2	2	2	
2.	Qurilish bahosini yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan aniqlash qoidalari	2	2	2	
3.	Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning smeta-me’yoriy bazasi asoslari	2	2	2	
4.	Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari	4	4		4
5.	Smeta harajatlarini aniqlash qoidalari	4	4		4
6.	Qurilish montaj va ta’mirlash ishlariga smeta tuzish	6	6		6
Jami:		20	20	6	14

NAZARIY MASHG’ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

Narxning mohiyati. Narxning turlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va unig asosiy vazifalari. Bahoning shakllanishi, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar. Baho shakllanish jarayoni. Qurilishda narxlarni shakllantirish usullari. Qurilishda baho belgilash mexanizmi va uning xususiyatlari. Qurilishning smeta bo‘yicha qiymatini belgilash zaruriyati. Indeks metodi. Resurs metodi.

2-mavzu: Qurilish bahosini yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlar bilan aniqlash qoidalari

Qurilish bahosini yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlari haqida umumiy ma’lumot. QBYK ishlab chiqish uchun iste’mol xususiyatlarini inobatga olgan holda qurilish mahsulotining analog ob’ektini tanlash.

3-mavzu: Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning smeta-me'yoriy bazasi asoslari

Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNK). Qurilish me'yorlari va qoidalari (KMK). Stroitelnye normy i pravily (SNiP). Qurilish ishlariga smeta resurs normalari. Ta'mirlash - qurilish ishlariga smeta resurs normalari. Jamoat binolari va ma'muriy binolar asbob uskunalari va inventari xarajatlarining smeta resurs normalari. Asbob-uskunalarni montaj qilish smeta resurs normalari. Ishga tushirish-sozlash ishlari uchun smeta resurs normalari

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- amaliy mashg'ulot: Smeta harajatlarini aniqlash qoidalari

Kapital qurilishda ish vaqtি fondi (kishi-soat), ishchilarning o'rtacha soatlik ish xaqi, ob'ekt qurilishi qiymatini hisoblab chiqishda statistik oylik ish xaqi darajasi, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, o'rtacha soatlik ish xaqi, bir oy uchun hisoblab chiqilgan mintaqa bo'yicha quruvchilarning o'rtacha yillik ish haqi, ish vaqtining o'rtacha oylik fondi, ob'ektning normativ mehnat sarfi, mashinistlar mehnat xarajatlari, montajchilar mehnat xarajatlari

Umumlashgan resurs hisobi, uskunalar, mebel, va inventarlar sarfi, resurs – smeta me'yorlari asosida tuzilgan spetsifikatsiyalar, ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi) korxona narxi, transport, tayyorlash –saqlash xarajatlari, narxlar monitoringi, bir miqdordagi qurilish materiallarini (buyumlar, konstruksiyalar), transport va tayyorlash – saqlash xarajatining o'rtacha narxi.

Mashina va mexanizmlari, transport qurilishi mashina va mexanizmlari, pardozlash ishlari mashina va mexanizmlari, boshqa yordamchi mashina va mexanizmlar. Mashina va mexanizmlardan foydalanishning soatlardagi xajmi, mashina va mexanizmlardan foydalanishning joriy qiymati.

Pudratchining «boshqa xarajatlari»ning salmog'i, qurilish-montaj ishlariga nisbatan foiz hisobi, ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar, vaqtinchalik bino va inshootlar, qishki qimmatlashuv, ishchilarni tashish, qurilishning vaxta metodi, loyiha-qidiruv ishlari, loyiha hujjatlari va mualliflik nazoratini o'z ichiga olgan holda tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdosini o'tkazish, texnik nazoratni amalga oshirish, DAQN xarajati hisobi, bank kreditining foizlari.

2- amaliy mashg'ulot: Qurilish montaj va ta'mirlash ishlariga smeta tuzish

Qurilish ob'ektlari turlari va resur smeta hujjatlari tuzish. Lokal smeta to'g'risida umumiyl ma'lumot. Lokal smetalarni resur usuli bilan tuzish. Ob'ekt

smeta hisobi (ob'ekt smetasi) maqsadi va tuzish tartibi. Qurilish qiymati yig'ma smeta hisobi maqsadi va tuzilishi.

3-amaliy mashg'ulot: Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari

Loyihalash institutlari, qurilish bahosini belgilovchi omillar loyiha (ishchi loyiha) va ishchi hujjatlar, shu bilan birga chizmalar, qurilish va montaj ishlari hajmi ro'yxati, resurs smetalari, uskunalar spetsifikatsiyasi va ro'yxati, qurilishni tashkil etish loyihasida qabul etilgan qurilish navbatni va qurilishni tashkil etishdagi asosiy xulosalar, hamda loyiha xujjalarni tushuntirish xatlari, qurilish ishlari, uskunalarni montaj qilish ishlari (montaj ishlari), uskunalar, jixoz va inventar xarajatlari, buyurtmachi va pudratchilarining boshqa xarajatlari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanildi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

«Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarining mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи тингловчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гурухларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гурухга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни тарқатади;



ҳар бир гурух ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз муроҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча гурухлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлр билан тўлдирилади ва мавзуя якунланади.

Dasturiy ta'minotlar					
AVS 4UZ		TNqurilish		Qurqiyomat	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni o‘quv aniqlashtirish va topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sislarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Og‘ir sanoat loyiha instituti muhandislari Termez shaxridagi stadion loyihasini bajarish byurtmasini bajarish jarayonida yoritish tizimining minorasini oddiy muhandislik hisobini bajarish ko‘p vaqt sarfiga olib keldi va fazoviy hisobini bajarish mumkin emasligi ma’lum bo‘ldi. Hisoblash loyihalashni kompyuter dasturi asosida amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb topishdi, ya’ni ilova hisoblash talabga javob bermadi.

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhlarda).
- Kompyuter dasturi asosida hisoblash va loyihalash ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



AVS4UZ dasturi majmuasi tizimining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	AVS4UZ dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning kuchli tomonlari	Ob'ekt qiymatini umumiylar hisoblash. Smeta resurs normasini orqali keltirilgan ishlari ro'yxati bilan jami hisobini aniqlash
W	AVS4UZ dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Smeta qiymatini hisoblashda boshqa proglammalar bilan importirovka qilish
O	AVS4UZ dasturi majmuasi tizimidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Qurilish qiymati hisoblashda elektron bazasini yaratish
T	To'siqlar (tashqi)	Qurilish materiallar bahosini dasturda yangilangan narxlari mavjud emasligi

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya tinglovchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- tinglovchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

AVS4UZ tahlili tinglovchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Fikr: “AVS4UZ dastur majmuasi qurilish sohasida keng qo'llaniladigan va

mukammal qurilish narxini shakllantirishda elementlar usuliga asoslangan tizimlardan biridir”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni AVS4UZ orqali tahlil qiling.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod tinglovchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- tinglovchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach trener-o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir tinglovchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Smeta normalari	Qurilish ishlari resursli smeta normalarini ishlab chiqish va qo’llash bo‘yicha umumiy nizomlar	
Mualliflik nazorati	Tuzilgan Shartnoma asosida mualliflik nazorati o’tkazish va loyiha tashkilotining xizmatlari narxlarini hisoblash.	
Baholovchi	ko‘chmas mulkni baholash tajribasiga, tayyorgarligiga va malakasiga ega bo‘lgan shaxs	
Garov qiymati	ipoteka qarzini ta’minlash maqsadidagi aktivning qiymati; shuningdek, ipoteka qarzining bozor qiymati.	
Daromad	moliyaviy va boshqa foydalar	
Boshqa xarajatlari	Pudratchining “boshqa xarajatlari” darajasini aniqlash, qabul qilingan bazis ko‘rsatkichlari davriga mos ravishda amalga oshiriladi	
Yer rentasi	ijarachi yer ijarasi haqidagi shartnomaga ko‘ra kiritadigan to‘lov.	
Invud omili	odatdagi annuitetni baholashda foydalilanidigan multiplikator. Uilyam Invud sharafiga nomlangan. Birlikning davr ichidagi joriy qiymati	
Smeta xujjatlari	Belgilangan xujjatlar to‘plami bino va inshoatlar qurilishining loyiha xujjatlari asosida tuziladi	

Izoh: Ikkinci ustunchaga tinglovchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:


- tinglovchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki

aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda tinglovchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Qurilish qiymatini hisoblash va avtomatlashtirilgan tizimlari



III. NAZARIY MATERIALLAR

1-nazariy: Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

1.1. Qurilishda bahoni shakllantirish xususiyatlari va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

1.2. Qurilishning tashkiliy shakllari

1.3. Qurilishning moddiy-texnik bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari

1.1. Qurilishda bahoni shakllantirish xususiyatlari va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli

Bugungi kunda respublikamizda xalqimizning farovon hayot kechirishini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning jadal rivojlanishi taminlash borasida misli ko‘rinmagan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu sababli iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalar ko‘lami yildan-yilga oshib, har sohada bunyodkorlik ishlari jadal rivojlanmoqda. O’zlashtirilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi kapital qurilish ishlarini amalga oshirish orqali o’zlashtirilishini inobatga olgan holda kapital qurilish sohasi muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan har qanday investitsiya dasturlarini o’zlashtirishning bevosita qurilish ishlariga bog‘liqligi sababli bu tarmoq faoliyati doimo mamlakat rahbariyati diqqat markazida bo‘lib kelmoqda.

So‘nggi yillarda qurilish sohasini rivojlantirishga qaratilgan Prezidentimiz farmonlari va Hakumat qarorlarini keltirish mumkin. Qurilish, milliy iqtisodiyotning uzviy bir qismi sifatida bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan alohida faoliyat ko‘rsata olmaydi. Bundan tashqari, qurilish bu tamoyillarga moslanishi, ular asosida hamda tarmoqning xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o‘tish jarayonining tezlashishga imkon yaratishi lozim. Ularning ichida eng muhimlaridan biri narx belgilashning bozor shakllari tamoyillari.

Qurilish tashkilotlari (korxonalari, firmalari) faoliyati iqtisodiy barqarorligi maxsus tashkilotlarning qurilish mahsulotlari qiymatining to‘g‘ri shakllantirilishiga hamda uslubiy asoslangan normativ hujjatlar mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Narxlarni shakllantirish va muvofiqlashtirish me’yorlari va qoidalari bo‘lmasa, haqqoniy narxlarni belgilash qiyin bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotida erkin narxlarga o‘tilganligi sababli qurilishda, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarga nisbatan narxlarni shakllantirishda bir qancha mummolar yuzaga keladi.

Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarmoqda bozor iqtisodiyoti tamoyillari va talablariga mos keladigan xo‘jalik munosabatlarini keng joriy etish, pudrat, loyiha ishlari va qurilish materiallarining rivojlangan bozorlarini shakllantirish, qurilishda narx belgilash mexanizmni takomillashtirish, loyihalarni amalga oshirishning pirovard natijalari va samaradorligi uchun investitsiya jarayoni barcha qatnashchilarining mas’uliyatini oshirish maqsadida 2003 yil 6 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3240-sonli farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon qabul qilingandan keyin kapital qurilish sohasidagi iqtisodiy islohotlari, jumladan xo‘jalik munosabtlari, moliyalashtirish va shartnomalar tizimi, loyihalashtirish va narxni shakllantirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Dastlab kapital qurilish majmuasining yangi me’yoriy-huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

Jumladan, narxni shakllantirishga tegishli 10 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Davlat arxitektura qurilish qo‘mitasining buyruqlari va qarorlari qabul qilindi.

Капитал қурилишда иқтисодий ислоҳотларни янада чуқурлаштиришнинг асосий йўналишлари:

↓	↓	↓	↓
лойиҳа ва пудрат қурилиш ташкилотларини давлат тасарруфидан чиқариш ҳамда хусусийлаштириш жараёнларини тўлиқ тугаллаш, уларнинг негизида асосан хусусий ва қўшма корхоналар ташкил этиш, лойиҳа ва қурилиш ишлари бозорида рақобат муҳитини яратиш	капитал қурилишда бошқарув ва хўжалик муносабатлари тизимига бозор тамоиллари ҳамда механизмларини кенг жорий этиш, лойиҳа ва қурилиш ишларини бажаришга буортмалар жойлаштирища танлов савдолари (тендерлар)ни ташкил этиш даражасини ошириш	қурилишни ташкил қилишнинг асосий шакли сифатида иншоотларни тўлиқ қуриб битказишга ўтиш, ишларни юқори сифатли бажариш ҳамда иншоотларнинг тўлиқ қуриб битказилиб топширилишини таъминлайдиган инжиниринг компаниялари ва лойиҳа-қурилиш ташкилотларини тузиш	қурилиш материаллари бозорини кенгайтириш, уларнинг илғор турларини ишлаб чиқаришни ўзлаштириш, қурилиш индустряси корхоналарида замонавий технологияларни тадбиқ этиш.

1.1-rasm. Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Ma’lumki, eskirgan va zamonaviy talablarga muvofiq bo‘lmagan amaldagi smeta normalari va qoidalari tizimi va uning assosida qurilish smeta qiymatining oshib ketishiga olib keluvchi rassenkalarni ishlab chiqish qurilish-texnologiya jarayonini va umuman qurilish kompleksining samarali ishlashini maqbullahtirish yo‘lidagi, pirovard natijada qurilishda loyihalashtirish, smeta va texnologiya intizomini mustahkamlashdagi bosh to‘siqlardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini tartibga solish va yangilash, ob’ektlar qurilishi qiymatini

joriy shartnomaviy narxlarda belgilash mexanizmini takomillashtirish maqsadida 2003 yil 24 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining N 463 sonli "Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 2004-2013 yillarga mo'ljallangan Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash dasturi qabul qilindi.

Yangidan ishlab chiqilgan smeta-normativ hujjatlarida eng muhimi - ortiqcha mufassallashtirish va zarur bo'lman reglamentlashtirishdan voz kechildi. Shuningdek, idoraviy smeta normalari ham qaytadan ko'rib chiqilib, tartibga solindi. Jumladan, joriy shartnomaviy narxlarni belgilash uchun idoraviy smeta normalari faqat ular O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi bilan belgilangan tartibda majburiy ravishda kelishib olingan taqdirda kuchga ega ekanligi belgilab qo'yildi.

Qarorda O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash uchun hududlar, tarmoq vazirliklari va idoralari bo'yicha qurilish materiallari, konstruksiyalar va buyumlar narxi, qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish qiymati, transport xarajatlari, quruvchi ishchilarning ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar axborot bankini tashkil etish ta'kidlab o'ztilgan.

Ma'lumki hozirgi kunda har chorakda "Davarxitektqurilish" qo'mitasi Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi qurilish ishlab chiqarishida qo'llaniladigan moddiy-texnik resurslar" katalogi chop etilmoqda. Shuningdek, ushbu katalogda qurilish tarmog'i bo'yicha quruvchi ishchilarning oylik o'rtcha ish haqi ma'lumotlari ham berilmoqda. Lekin qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanish qiymati, hamda transport xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar chop etilmayapti. Kapital qurilishda narxlarni shakllantirishning smeta-normativ bazasini takomillashtirish va yangilash dasturi bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

1. Narx belgilashning smeta-normativ bazasi umumiyligi qismini ishlab chiqish.
2. Narx belgilashning smeta-normativ bazasi metodologik qismini ishlab chiqish.
3. Amaldagi elementli smeta normalarini smeta resurs normalariga qayta ishslash.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish, qurilishda narxlarni shakllantirish mexanizmini takomillashtirish, investitsiya jarayoni barcha qatnashchilarining pirovard natijalar, investitsiya loyihibarini amalga oshirish samaradorligi uchun javobgarligini oshirish maqsadida 2003 yil 11 iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining N 261 sonli "Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihibarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Shuningdek, ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risidagi Vaqtinchalik nizom, hamda Ob'ektlar qurilishining ikkinchi va

keyingi yillarida shartnomaviy joriy narxlarda qurilish shartnomaviy qiymatini aniqlashtirish tartibi to‘g‘risidagi Vaqtinchalik nizom qabul qilindi.

Demak, tanlov savdolari (tender)da ishtirok etayotgan pudratchi tashkilotlar tanlov taklifi narxini ob‘ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizomda nazarda tutilgan tartibda va pudrat ishlari bozori kon‘yunkturasidan, shu jumladan ish haqiga xarajatlarni aniqlash imkoniyatidan, korxonada shakllangan mehnatiga haq to‘lash shartlari va shaklidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda aniqlaydi. Shuningdek, ushbu Nizomga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi.

Bundan kelib chiadiki, qurilish bahosning sharonmaviy joriy narxini aniqlash ko‘p jihatdan pudratchi-talabgorga bog‘liq. Albatta, qurilish narxini shakllanitirishda pudratchidan katta mas’uliyat talab qiladi, chunki joriy pudrat ishlari bozori kon‘yunkturasini, quruvchi-ishchilar mehnatiga haq to‘lash tizimi, qurilish materiallari bozoridagi narxlar indeksini va mashina mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlariga amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan iqtisodichi-muhandis mutaxassislar zarur.

Demak, 2004 yil 1 yanvardan boshlab qurilish ob‘ektlarning joriy narhda aniqlash tartibiga to‘liq o‘tildi, shartnomaviy narxlar esa tanlov savdolari, ya’ni tenderlar natijalariga ko‘ra aniqlanadigan bo‘ldi.

Umuman olganda mamlakatimizdagи smeta normativ ba’zasiga asosan, qurilish ob‘ekti smeta qiymati yiriklashtirilgan va resurs usullari orqali aniqlanadi.

Qurilish - asosiy moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. U milliy iqtisodiyotda uchinchi (sanoat va qishloq xo‘jaligidan keyin) o‘rinda turadi. Qurilish mahsuloti - barcha turdagи 4 ishlar bo‘yicha tugallangan va ishga tushirishga tayyor bo‘lgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari, shuningdek, amaldagi korxonalarning kengaytirilishi va qayta ta’mirlanishi, ularda ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlanishidir. Uy-joy muammolarining yechimi batamom qurilish zimmasiga yuklatiladi. Qurilish ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni kompleks yuksaltirishda katta rol o‘ynaydi. Bu tarmoqda jamg‘arish fondining taxminan uchdan ikki qismi amalga oshiriladi, Mamlakat yalpi ijtimoiy mahsulotining 10 foizidan ko‘proq qismi yaratiladi. Qurilishning milliy xo‘jalik miqyosidagi ahamiyati va yetakchi rol o‘ynashiga yana bir sabab shuki, u aholining katta qismini ish bilan ta’minlaydi, fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyotning jadallahishiga, ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘sishiga imkon yaratadi. Qurilish, moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida, avvalo ishlab chiqariladigan mahsulotning xarakteri, ya’ni uning ko‘chmasligi, o‘lchamlari kattaligi, serqirra va murakkabligi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Qurilish mahsuloti ko‘p mehnat va kapital sarf-

harajatlarni talab qiladi, uni ishlab chiqarish sikli uzoq muddatlidir, ya’ni uni ishlab chiqarishga soat yoki daqiqa emas, balki hatto 10, 20 kundan ham ko‘p vaqt talab qilinadi. Shuningdek, qurilishda qo‘llaniladigan asbobuskunalar va mehnat predmetlari o‘ziga xos turda va tarkibda bo‘lishidan tashqari, ular harakatlanuvchi ham bo‘ladi. Ishlab chiqarish sikliga qarab qurilish mahsulotining shakli va tayyorligi turlicha bo‘ladi. Tayyor qurilish mahsuloti - bu qurilgan va buyurtmachiga belgilangan tartibda topshirilgan asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlaridir (korxonalar, elektrostansiyalar, shaxtalar, uylar, mакtablar, shifoxonalar va boshqa ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish ob’ektlari). Qurilish mahsuloti o‘zining ekspluatatsiya maqsadidan tashqari takror ishlab chiqarish funksiyasini ham bajaradi va xalq xo‘jaligining asosiy fondlarini yangilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tugallanmagan qurilish va tugallanmagan qurilish ishlab chiqarishini tayyor qurilish mahsuloti bilan adashtirib yubormaslik kerak. Ularning hajmi qurilish-montaj tashkilotlarining va butun tarmoq iqtisodiyotining faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tugallanmagan qurilish - bu tugallanmagan va foydalanishga topshirilmagan qurilish ob’ektlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan kapital qo‘yilmalarning muayyan bir sanadagi holati bo‘yicha olingan hajmidir. Tugallanmagan qurilish tarkibida amalga oshirilayotgan, shuningdek, vaqtincha va batamom to‘xtatib qo‘yilgan qurilishlar va ob’ektlar bo‘yicha kapital qo‘yilmalar hisobga olinadi.

Tugallanmagan qurilish ishlab chiqarishi - tugallanmagan va buyurtmachiga topshirilmagan ob’ektlarda (qurilishlarda) pudratchi tashkilot yoki tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish mahsulotining qurilish-montaj ishlarining hajmini tavsiflovchi qismi. Tugallanmagan qurilish hajmi natura va pul ifodasida hisobga olinadi. Tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan qurilishning ortiqcha miqdorlari - bu aslida “uzoq paytdan buyon qurilayotgan” qurilishlardir. Ular kapital qo‘yilmalarning tartibsiz taqsimlanganligi va tarmoq iqtisodiyotiga xamda milliy iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazadi. Qurilish tarmog‘i qurilayotgan ob’ektlarning xarakteri va maqsadiga qarab bir necha quyi tarmoqlarga: sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi, uy-joy, madaniy-maishiy qurilish va boshqalarga bo‘linadi. Bunday bo‘linish esa o‘z navbatida qurilishda ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va qurilish quvvatlarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda u yoki bu tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun kerak bo‘ladi.

Tugallanmagan qurilishni konservatsiya qilish to‘g‘risidagi qaror:

a) qurilishi: Markazlashtirilgan manbalar hisobiga O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostidagi kreditlar hisobiga; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslashlar asosida amalga oshirilayotgan ob’ektlar bo‘yicha; Qayta tashkil etilayotgan iqtisodiy nochor, zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalar, shuningdek ularga nisbatan bankrotlik tartib-qoidasi qo‘llanilgan korxonalarga nisbatan qayta tashkil etish yoki bankrotlik tartib-qoidasini amalga oshirish davrida Korxonalar 6 bankrotligi va sanatsiyasi masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan Vazirlar Mahkamasiga kiritilgan ob’ektlar bo‘yicha - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan;

b) qurilishi: tarmoq yoki mintaqaviy dasturlar asosida idoraviy mansub davlat korxonalarini va budgetdan tashqari manbalar mablag'larini hisobiga; ularga qarashli korxonalar tomonidan olib borilayotgan ob'ektlar bo'yicha - vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan;

v) yuqorida ko'rsatilmagan ob'ektlar bo'yicha - mol-mulk egasi tomonidan qabul qilinadi. Konservatsiya muddati konservatsiya to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan hisoblanadi. Buyurtmachi qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni konservatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 2 oy muddatda pudrat tashkiloti bilan konservatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilingungacha bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmlari uchun hisob-kitob qiladi, avans bo'yicha hisob-kitoblar ham shular jumlasiga kiradi, asbob-uskunalar, materiallar va konstruksiylar yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomalar bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi munosabati bilan pudrat tashkiloti ko'rgan zararni hamda moddiy-texnika boyliklarini boshqa ob'ektlarga tashish bilan bog'liq xarajatlarni qoplaydi.

Buyurtmachi tomonidan qurilish uchun banklarning kreditlari, shuningdek xorijiy kreditlar jalgan hollarda, ular kredit shartnomalarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi kerak. Qurilishi tugallanmagan ob'ektlarni va asosiy vositalarni konservatsiya qilish muddati tamom bo'lgach foydalanishni va qurishni qaytadan boshlash mumkin deb hisoblanadi hamda bu to'g'rida qo'shimcha qaror qabul qilish talab etilmaydi. Konservatsiya qilish hamda foydalanish va qurishni qaytadan boshlash uchun loyihada nazarda tutilgan ishlarni bajarish pudrat tashkiloti tomonidan qo'shimcha bitim bo'yicha amalga oshiriladi.

Sanoat qurilishi - mavjud sanoat korxonalarini kengaytirish, qayta ta'mirlash va texnik qayta jihohlash hamda yangilarini qurish, shuningdek, yordamchi sanoat ishlab chiqarishlarini qurishdir. Masalan, mashinasozlik va metallurgiya zavodlarini qurish, neft, gaz, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari korxonalarini qurish. Sanoat qurilishi ko'p jihatdan industriyalashtirishning ko'lami va sur'atlarini, texnik taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Qishloq qurilishi - qishloq joylaridagi yangi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlarini yaratish, ularni qayta ta'mirlash yoki kengaytirish bilan bog'liq qurilishlardir. Qishloq qurilishiga suv xo'jaligi, irrigatsiya, meliorativ va boshqa qurilish turlari ham kiradi.

Uy-joy qurilishi - yangi uy-joylar, yotoqxonalar, yotoq korpuslari, bolalar uylari va qariya hamda nogironlar uylarini qurishdir. Aholining jamg'armalari va davlatning qo'llab-quvvatlashi hisobiga quriladigan shaxsiy uy-joylarni qurish ham uy-joy qurilishi tarkibiga kiradi. Madaniy-maishiy qurilish - kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash, fan va madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot, boshqarish organlari tizimlariga qarashli yangi ob'ektlarni qurish va amal

qilayotganlarini ta'mirlashdir. Qurilish oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyatning hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir. Ammo qurilish, xalq xo'jaligining bir tarmog'i sifatida ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyotining faqat eng yuksak pog'onalaridagina, ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonida vujudga keladi.

So'nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida qurilish ishlab chiqarishida sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, ular zamirida esa qurilishning bino va inshootlarni sanoatda tayyorlangan va tayyorlik darajasi yuqori bo'lgan detallar va bo'laklardan yig'ishdan iborat uzluksiz mexanizatsiyalashgan jarayonga aylanishi yotadi. Qurilish ishlab chiqarishining xarakteri ham tubdan o'zgarib bormoqda. Og'ir qo'l mehnati yirik va mayda mexanizatsiya vositalari tomonidan tobora siqib chiqarilmoqda.

Quruvchimontajchilarning qurilish maydonlaridagi mehnati industrial mehnatning bir turiga aylanib bormoqda. Qurilish ishlab chiqarishining texnik jihozlanganlik darajasi ortib borgan sari, jonli mehnat sarflari kamayib, yengillashib boradi, bundan tashqari, uning unumдорligi ortadi, qurilishning muddatlari qisqarib, uning sifati yaxshilanib boradi. Qurilish kompleksi - pudratchi qurilish va montaj tashkilotlari, ularga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, qurilish materiallari, detallari va konstruksiyalari ishlab chiqaruvchi korxonalar 7 majmuasidir.

Qurilish kompleksi tarkibiga qurilish fani (me'morchilik, texnik, iqtisodiy va boshqalar), qurilishni loyihalashtirish, bevosita qurilish va uning moddiy-texnik bazasi kiradi. Qurilishning asosiy ishlab chiqarish bo'g'lnlari - bu qurilish boshqarmalari, montaj boshqarmalari, qurilish-montaj boshqarmalari (SMU - QMB), ko'chma mexanizatsiyalashgan kolonnalar (PMK - KMK) yoki ixtisoslashgan mexanizatsiyalashgan kolonnalar (SPMK - IMK), uy-joy va zavod qurish kombinatlari (DSK, ZSK - UJQK - ZQK), pardozlash ishlari boshqarmalari, ko'prik qurilishi otryadlari, ishga tushirish-sozlash boshqarmalari va hokazolardir. Ularning ko'pchiligidagi boshqaruvning yuqori pog'onasi sifatida tegishli trestlar boshchilik qiladi.

Hozirgi paytda, hukumatimizning iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq, xususiy qurilish firmalari tarmog'ini tashkil qilish va rivojlantirish, qurilishni bir-ikki pog'onali boshqaruva tizimiga o'tkazish masalalari ilgari surilmoqda Ta'kidlash joizki, qurilishning quyi ishlab chiqarish bo'g'lnlari ba'zan sanoatdagi zavod yoki fabrikalar bajaradigan ishlab chiqarish funksiyalarini bajarmoqdalar. Aynan shu tashkilotlar asosiy qurilish mahsulotlarini ishlab chiqaradilar va shu tariqa kapital qurilish oldiga qo'yilgan asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish vazifalarini birinchi bo'lib bajaradilar.

Shuning uchun qurilishning xalq xo'jaligining bir tarmog'i sifatidagi faoliyatining ko'rsatkichlari va samaradorligi ko'p jihatdan ushbu birlamchi qurilish tashkilotlarining faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga bog'liqdir. Nafaqat qurilish tashkilotlarining, balki buyurtmachilar, loyihalash muassasalari, materiallar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi korxonalarining faoliyati ham qurilish mahsulotining ishlab chiqarilishi bilan bog'liqdir. Qurilish ishlab chiqarishi ishtirokchilarining mana shunday ko'pligi

qurilishning farq qiluvchi jihatni bo‘libgina qolmay, balki ba’zan qurilish ishining to‘liq muvaffaqiyatli bo‘lmasligiga sabab ham bo‘lib qoladi.

Ushbu ishtirokchilarning hech bo‘lmaidan bittasi o‘z majburiyatlarini bajarmasa, qurilish ishlab chiqarishi marominining bo‘zilishiga, ob’ektlarni foydalanishga topshirish muddatlarining kechikishiga, natijada qurilish sur’atlarining pasayishiga, miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarning yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun hozirgi kunda kapital qurilish sohasida uchraydigan ba’zi muammolar, kamchilik va nuqsonlar faqat qurilish tashkilotlari samaradorligining yetarli darajada emasligi oqibati emas, balki investitsiya jarayonini tashkil qilish va boshqarishning turli bosqich va pog‘onalarida vujudga kelayotgan salbiy holatlarning ta’siridir.

1.2. Qurilishning tashkiliy shakllari

Kapital qurilishda investitsiya jarayonining asosiy ishtirokchilari sifatida odatda bajaradigan vazifalariga ko‘ra investor, buyurtmachi, quruvchi, pudratchi va loyihalovchilar ishtirok etadilar.

Investor - ob’ekt qurilishini moliyalashtirishni xususiy yoki qarz mablag‘lar hisobiga amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati sub’ekti. Investor investitsiya natijalarini tasarruf qilish uchun to‘liq yuridik huquqlarga ega. Shuningdek, u investitsiyalarni (kapital qo‘yilmalarni) jalb qilish shaklini belgilaydi, qurilish kontraktlarining shartlarini ishlab chiqadi, investitsiya jarayoni ishtirokchilari bilan bo‘ladigan moliyav-kredit munosabatlarini amalga oshiradi. Investor qurilish mahsulotining buyurtmachisi, kreditori, haridori bo‘lishi, shuningdek, bevosita quruvchi funksiyasini bajarishi xam mumkin.

Buyurtmachi - texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdan boshlab ob’ektni foydalanishga topshirish yoki ob’ektning ishlab chiqarish quvvatiga chiqishigacha bo‘lgan muddatda ob’ekt qurilishining tashkilotchisi va boshqaruvchisi funksiyalarini qabul qilgan huquqiy yoki jismoniy shaxs.

Qurilish egasi - qurilish bo‘layotgan yer maydoniga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan huquqiy yoki jismoniy shaxs. U yer egasi hisoblanadi. Buyurtmachi qurilish egasidan farqli ravishda yer maydonidan qurilish uchun faqat ijara shartlari asosida foydalanadi.

Pudratchi (bosh pudratchi) - pudrat shartnomasi yoki kontrakti asosida ob’ekt qurilishini amalga oshirayotgan qurilish firmasi. Bosh pudratchi qurilish natijalari uchun shartnoma shartlariga muvofiq ravishda buyurtmachi oldida to‘liq javobgar bo‘ladi. U zarur hollarda ayrim turdagiligi ishlarni bajarish uchun quyi pudrat tashkilotlarini jalb qilishi mumkin.

Loyihalovchi - buyurtmachi bilan tuzilgan shartnoma asosida u yoki bu ob’ektning kelgusidagi qurilishini loyihalovchi loyihalash tashkiloti yoki shunga o‘xhash boshqa muassasa. Loyihalovchi loyihaning va uning asosidagi texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning sifati uchun to‘liq javobgar bo‘ladi. Buyurtmachi

loyihada ko‘zda tutilgan yechimlarga rioya qilinishini nazorat qilish uchun mualliflik nazorati o‘rnatadi. Qurilish ishlab chiqarishi jarayoni turli shakl va usullarda tashkil qilinishi mumkin bo‘lib, pudrat usuli, xo‘jalik usuli, ob’ektlarni “qulf-kalit” qilib topshirish va sotish shular jumlasidandir.

Pudrat usulida qurilish muntazam ishlab turuvchi qurilish tashkilotlari (firmalari) tomonidan buyurtmachilar bilan tuzilgan shartnomalar assida amalga oshiriladi. Bu qurilishning asosiy va eng keng tarqalgan usulidir. Bugungi kunda kapital qurilish sohasidagi barcha pudrat ishlarining taxminan 80 foizi shu usulda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun “Kapital qurilish pudrat shartnomasi” asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xo‘jalik usulida - ob’ektlar qurilishi yoki qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish ishlari xo‘jalk sub’ektlarining - korxonalar, tashkilotlar, institutlar va shu kabilarning kuch va mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Korxonalarni qayta ta’mirlash va kengaytirish, kichikroq qurilish ob’ektlari, hududlar va xonalarni obodonlashtirish, ta’mirlash ishlari ko‘pincha shu usulda olib boriladi. Ob’ektlarni foydalanishga tayyor holda (“qulf-kalit”gacha) topshirishda buyurtmachining funksiyalari bosh pudratchiga berilib, u qurilishni boshidan boshlaydi va ob’ektni buyurtmachiga o‘zil-kesil tugallangan holatda topshiradi. Qurilishning bunday usuli uy-joy qurilishida juda keng tarqalgan.

Tanlovlar - iqtisodiyotda nisbatan yangi hodisa bo‘lib, bunda buyurtmachi biror ob’ektni qurish yoki loyihalash, asbob-uskunalar yetkazib berish bo‘yicha tanlov e’lon qilayotganligini ochiq yoki yopiq shaklda xabardor qiladi va hohlovchilarni shu tanlovda ishtiroq etishga taklif qiladi. Bunda maxsus hujjat tayyorlanadi va unda tanlovning asosiy g‘oyasi va shartlari ko‘rsatiladi. Bunday hujjatlar majmuasi “tender” deb ataladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan shakllardan tashqari, qurilishning ijtimoiy mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan ixtisoslashuv, konsentratsiya, kooperatsiya kabi tashkiliy shakllari mavjud.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu shakllar faqat qurilishda emas, balki xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida, avvalo sanoatda ham qo‘llaniladi. Amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, bu shakllarni mohirlik bilan qo‘llash orqali ishlab chiqarish va kapital qo‘yilmalardan yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Masalan, agar ixtisoslashuv va kooperatsiya harajatlarning kamayishiga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga imkon bersa, konsentratsiya va kombinirlash - xom ashyo va materiallardan kompleks foydalanishga hamda qurilish sohasida fan-texnika taraqqiyoti ko‘laming yanada kengayishiga olib keladi.

1.3. Qurilishning moddiy-texnik bazasi va uning taraqqiyot istiqbollari

Qurilish moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida faqat mahsulot ishlab chiqaribgina qolmay, balki buning uchun u yoki bu turdagи resurslarni iste’mol qiladi yoki foydalanadi ham. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining 80 foizi, yog‘och materiallarining taxminan yarmi, metall prokatining 20 foizdan ko‘prog‘i, mashinasozlik sanoati mahsulotlarining 10 foizdan ko‘proq qismi qurilishda foydalaniladi. Qurilish harajatlari tarkibida transport sarf-harajatlarining qiymati 20-25 foizni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, qurilishga xalq xo‘jaligi tarmoqlarining deyarli barchasi xizmat

ko'rsatadi. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishda qurilish materiallari sanoati alohida o'rinni tutadi.

Qurilishning materiallar, konstruksiyalar, texnikalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan to'la ta'minash ko'p jihatdan tarmoqlararo aloqalarning mukammalligi va yanada rivojlantirilishiga bog'liqdir. Bu esa, odatda, ishlab chiqarishning tarmoqlararo balansida va mahsulotning xalq xo'jaligidagi taqsimotida aks etadi. Iqtisodiyotda buyruqbozlik, markazlashgan boshqaruv va rejorashtirish tizimidan bozor tizimiga o'tilishi, xo'jalik sub'ektlariga qurilishni rivojlantirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar ochib berdi, bunda hududiy boshqaruv organlarining roli kuchayib bormoqda.

Ammo bu qurilishning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish va mustahkamlash o'z-o'zidan, stixiyali ravishda yuz beradi, degani emas. U qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish hamda uning resurslar bilan to'la ta'minlash ilmiy tamoyillariga mos bo'lishi lozim. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va joylashtirish uchun qurilish hududi va joyini tanlashga ta'sir qiladigan barcha omillar va shartlarni miqdoriy ifodalashga imkon beradigan usullarga ega bo'lish lozim.

Bunday usullar - masalaning optimal yechimini topishga imkon beradigan matematik modellardir. Ulardan biri - chiziqli dasturlash bo'lib, u o'zgaruvchan kattaliklarning berilgan chiziqli cheklashlarni va ushbu kattaliklarning maqsadli funksiyasini maksimallashtiruvchi yoki minimallashtiruvchi qiymatlari majmuasini topish talab qilinadigan ekstremal masalalarni yechishning nazariyasi va amaliyotini o'zida birlashtiradi.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini optimal rivojlantirish va joylashtirishning iqtisodiy-matematik modelini shakllantirishda boshqa omillar bilan bir qatorda xom ashyo va materiallarni ishlab chiqarish punktlari, korxonalarni joylashtirish mumkin bo'lган punktlar, shu punktlardagi ishlab chiqarish hajmlari, transport harajatlari va boshqalar hisobga olinishi lozim. Bu holatda masalani optimal yechish mezoni odatda kelgusida ishlab chiqariladigan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardosh bo'lishi, ayni paytda korxonani yaratish va joylashtirishda (bir martalik va joriy) harajatlarning imkon qadar kam bo'lishidir.

Qurilishning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirishning muhim shartlaridan biri qurilish industriyasi korxonalari hamda qurilish konstruksiyalari, detallari va materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarni loyihalashtirish bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashdir. Bunda ushbu o'zaro munosabatlarning asosida quyidagilar yotishi lozim: - qurilish industriyasi korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari yuksak darajada mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan, yangi, eng tejamlidir.

loyihalarini ishlab chiqish; - bu korxonalarini xom ashyo va materiallarni, konstruksiyalarni tashishning hamda ishlab chiqarishni kooperatsiyalashni rivojlantirishning ratsional sxemalarini hisobga olgan holda mamlakat hududida joylashtirishning optimal variantlarini tanlash; - ishlab turgan, birinchi navbatda 20-30 yil va undan uzoq muddat ishlab kelayotgan korxonalarini texnik qayta jihozlash.

Shuni ham nazarda to‘tish kerakki, bozor munosabatlari sharoitida, qurilish industriyasi korxonalarini va tashkilotlarining xo‘jalik yuritishdagi mustaqilligi kuchayib borayotgan bir paytda, moddiy-texnik bazani rivojlantirish masalalari ham, xo‘jalik sub’ektlari o‘rtasidagi, shuningdek, sub’ektlar bilan kapital qurilish sohasida ishlovchi yoki unga bog‘liq bo‘lgan ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi xo‘jalik aloqlarini kuchaytirish masalalari ham, avvalgi paytlardagidek vazirlik va mahkamalar tomonidan emas, balki, zarur hollarda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda ko‘proq qurilish tashkilotlari va korxonalarini tomonidan hal qilinmoqda.

Qurilish industriyasi korxonalarini va tashkilotlari o‘zlarining moddiy-texnik bazalarini rivojlantirish orqali o‘z ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlabgina qolmay, balki raqobatli muhitda o‘z iqtisodiy barqarorligini ta’minalaydilar, faoliyatlarining hayot siklini o‘zaytiradilar. Bunda moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ishlab chiqarishning faqatgina texnik yoki moddiy ta’mindagi absolyut o‘sishidan, yoki iqtisodchilar iborasi bilan aytganda, ishlab chiqarishning fond bilan jihozlanganligining ortishidan iborat bo‘lib qolmay, balki uning ustivorlik tamoyillari asosida, maksimal samaradorlikni ta’minalash tamoyili asosida amalga oshiriladi. Gap shundaki, 10 bozor munosabatlari sharoitida korxona resurslarining har bir turi avvalgi rejorashtiriladigan iqtisodiyot sharoitidagi kabi Davlat rejorashtirish qo‘mitasining yoki ta’mint qo‘mitasining buyrug‘i asosida emas, balki xususiy mablag‘lar hisobiga erishiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Qurilish tarmog‘i” tushunchasiga to‘liq ta’rif bering. Uning milliy iqtisodiyotdagi o‘rnini belgilovchi miqdoriy ko‘rsatkichlarini ko‘rsatib bering.
2. Qurilish ob’ektlarning smeta qimati qanday usullar bilan amalga oshirilishi mumkin?
3. Qanday sub’ektlar kapital qurilish ishtirokchilari bo‘lishi mumkin?
4. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishning qonuniyatları, tendensiyalari va rivojlantirish tamoyillarini bayon qilib bering.
5. Tugallanmagan qurilish ob’eklarini qaysi hollarda konservatsiya qilinadi?
6. Qurilishning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga qanday omillar ta’sir qildi.
7. Zamonaviy qurilish texnologiyalar va materiallari ishlab chiqarishning hozirgi holatiga baho bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Nadim Hassoun, Akthem Al-Manaseer Structural Concrete:

Theory and Design (6th Revised edition) USA 2015.

2. Jack C. McCormac, Russell H. Brown. Design of Reinforced Concrete. 2013 Wiley 720 pages.

3. Xiaolin Chen. Finite Element Modeling and Simulation With Ansys Workbench. Publisher: Crc Pr I Llc. Released: March 26, 2014. ISBN-13: 978-1439873847.

4. Stepanov P. S. "Ekonomika stroitelstva" M., "Yurayt", 2005.

5. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Xaitov E.B. Senoobrazovaniye v stroitelstve. TASI. DP «AQIIM», T.: 2012g.-188s.

6. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Haitov E.B. Qurilishda tanlov savdolari va uni tashkil etish. T.: TAQI, 2012.

7. "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. Toshkent 2009.

8. "Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ xujjalalar tizimi" Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.01–04 Iqtisodiy normativlar). O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi. Toshkent 2004

9. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstvo. Uchebnoye posobiye. –T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyusa pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 s.

2-nazariy: Qurilish bahosini yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar bilan aniqlash qoidalari Reja:

2.1. Qurilish qiymatini yiriklashtirilgan ko'rsatkich (QQYK) da aniqlashning umumiy qoidalari, maqsadi va vazifalari

2.2. Qurilish qimatini yiriklashtirilgan ko'rsatkichlarni xisoblash

2.3. Qurilish qiymatini aniqlash

2.1. Qurilish qiymatini yiriklashtirilgan ko'rsatkich (QQYK) da aniqlashning umumiy qoidalari, maqsadi va vazifalari

Loyihaning dastlabki bosqichlarini (DTIA, DTIH, TIA, TIH) amalga oshirish jarayonida qurilish ob'ektining joriy narxlardagi bahosini aniqlash uchun amalga oshirilgan o'xhash loyihalarining narxlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

«Qurilish qiymatini yiriklashtirilgan ko'rsatkichlari (QQYK)» joriy (prognoz qilinayotgan) narxlarda :

- investitsion loyihalarni ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida, xarajatlar sarfini dastlabki hajmini hisoblash (DTIA, DTIH) va texning iqtisodiy asosnomalar (TIA, TIH)larni ishlab chiqishda;

- investor hamda pudrat tashkilotlar uchun tanlov savdolarini o‘tkazishga (ishtirok etishga) tayyorlanish va tanlov savdolarini o‘tkazish jarayonlarida;

- narxlar o‘sishi dinamikasi va hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda qurilish ishlari qiymatini prognoz qilinayotgan narxlarda hisoblashda, loyihalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash va nisbatan samaralisini tanlab olish maqsadlarda qo‘llaniladi.



2.1-rasm Qurilish investitsion loyihalar jarayoni

Hajmiy-rejalshtirish va konstruktiv yechimlarga bog‘liq ravishda o‘xshash ob’ektlarni tanlashda quvvat birligi uchun sarflangan kapital mablag‘larning solishtirma miqdorini hisobga olish zarur.

O‘xshash ob’ekt bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lmagan hollarda, loyiha va qurilish tashkilotlarining arxivlari yoki buyurtmachilarining ma’lumotlar bazasidan olingan va avvalroq loyihalashtirilgan va qurilgan ob’ektlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarga asoslangan holda o‘xshash loyiha tanlanishi mumkin.

Qurilish ob’ektining joriy narxlardagi bahosini dastlabki bosqichlarda buyurtmachi (investor)ning o‘zi mustaqil yoki tanlov asosida tanlab olgan loyiha (injiring, konsalting) tashkiloti aniqlashi mumkin.

Loyiha (injiring, konsalting) tashkiloti tomonidan ob’ekt qurilishining hisoblab berilgan narxi tavsiya tariqasida beriladi.

Loyihani dastlabki bosqichda amalga oshirishda tavsiya qilingan narxdan foydalanish to‘g‘risidagi qarorni buyurtmachi qabul qiladi.

Taqqoslash va tahlil natijalari asosida ishlarning turi bo'yicha qurilish narxining tuzilmasiga tuzatishlar kiritiladi va ob'ektning joriy narxlardagi bahosi aniqlanadi.

Qurilishning joriy narxlardagi bahosi dastlabki bosqichda binoning alohida elementlarining narxi asosida ham aniqlanishi mumkin.

"Bino elementi" tushunchasi turli loyihalarda bir xil vazifani bajaruvchi binoning qismini anglatadi. Poydevorlar, devorlar, tom, padozlash va hokazolar uchun "element"lar ajratib ko'rsatiladi.

Bunda binoning turi va vazifasiga bog'liq ravishda qo'llaniladigan elementlarning soni o'zgarishi mumkin.

Ushbu metodning tatbiq qilinishi binoning ayrim elementlari narxi to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam kuzatib borishni va ularning bankini yaratishni talab qiladi.

Qurilish hajmini aniqlash qoidalari

1. Binoning chordog' tomli yer usti qismining qurilish hajmini, binoning tsokoldan yuqori birinchi qavat darajasida tashqi chizig'i bo'yicha gorizontal kesimi maydonini binoning aynan birinchi qavat polidan to chordog' tomining isitgichigacha bo'lgan butun balandligiga ko'paytirish orqali aniqlash lozim.

Binoning chordog' tomsiz yer usti qismining qurilish hajmini, vertikal ko'ndalang kesimi maydonini kesim maydoniga perpendikulyar yo'nalishda, tsokoldan yuqori birinchi qavat darajasida oldingi devorlar sirtlari orasidagi o'lchangan bino uzunligiga ko'paytirish bilan aniqlash lozim.

Vertikal ko'ndalang kesim maydonini, devorlarning tashqi sirtini aylanma o'lchami bo'yicha, toming yuqori chizig'i bo'yicha va qavat toza polining darjasini bo'yicha aniqlash lozim. Ko'ndalang kesim maydonini o'lchashda devorlar sirtidan chiqib turgan arxitekturaviy qismlarni, hamda botiqliklarni hisobga olmaslidir kerak.

Binoda maydoni turli o'lchamdagisi qavatlar mavjud bo'lganda, bino hajmini uning qismlarining hajmlari yig'indisi sifatida aniqlash lozim. Shuningdek agar bino qismlari tuzilishi yoki konstruksiyasi bo'yicha bir-biridan qattiq farq qilgan hollarda, binoning hajmini qismlarga bo'lib hisoblash zarur. Bino hajmi qismlarga bo'lib hisoblanganida chegara devor o'zining balandligi yoki konstruksiyasi bo'yicha to'g'ri keladigan bino qismiga tegishli hisoblanadi.

2. Tomning tashqi chizig'idan chiqib turgan chiroqlarning qurilish hajmi bino qurilish hajmiga kiritiladi.

3. Erek, peshayvon, tambur va binoning foydali hajmini ko'paytiruvchi boshqa qismlarini alohida hisoblash va binoning umumiy hajmiga qo'shish lozim. Lodjiya (bir tomoni ochiq ayvon)lar hajmi bino hajmidan chiqarib tashlanmaydi. O'tish yo'llari, portchalar, hamda ochiq va yopiq balkonlar hajmi bino hajmiga kiritilmaydi.

4. Jamoat va turar joy binolarining texnik qavatlarini binoning hajmiga kiritish lozim.

5. Mansard qavat (og‘ma boloxona) hajmini uning pol darajasidagi devorlar tashqi aylanmasi bo‘yicha mansardning gorizontal kesimi maydonini mansard polidan chordog‘ yopinchig‘ining tepe qismigacha bo‘lgan balandlikka ko‘paytirish orqali aniqlash lozim.

6. Yerto‘la va yarim yerto‘lalar hajmini yerto‘laning tsokoldan yuqori, birinchi qavat darajasidagi gorizontal kesimini toza poldan birinchi qavatning toza poligacha bo‘lgan o‘lcham uzunligiga ko‘paytirish orqali aniqlash lozim. Bino ichida ustidagi devorsiz yerto‘la qilinganida, maydonni uning tepasidagi yopinchig‘i darajasida yerto‘la tashqi aylanmasi bo‘yicha aniqlash lozim.

7. Yerto‘lali yoki yarim yerto‘lali binolarning umumiy qurilish hajmini mazkur ilovaning 1-5 bo‘limlariga muvofiq hisoblangan binoning yer usti hajmi va 6 bo‘limiga muvofiq hisoblangan yerto‘la (yarim yerto‘la) hajmi yig‘indisi sifatida aniqlash lozim.

8. Devorlarni tashqi aylanmasi bo‘yicha o‘lchash amalga oshirilganda uning suvog‘i va bezagi qalinligi hisobga olinishi lozim.

2.2. Qurilish qiymatini yiriklashtirilgan ko‘rsatkichlarni hisoblash

QQYK qayta qo‘llaniladigan namunaviy loyihalar asosida, shuningdek, individual, progressiv va nisbatan iqtisodiy samarali loyiha va loyiha yechimlari uchun ishlab chiqiladi.

QQYKning ustunlik jihatni qurilish ob’ektlari loyihalashtirilayotgan jarayonda ularning ishchi loyihalari va ishchi hujjatlari ishlanayotgan (hali tayyorlab tugallanmagan) jarayonda mavjud loyiha hujjatlari asosida ob’ekt qiymatini hisoblash imkonini beradi.

QQYKni tayyorlash rejalashtirilayotgan ob’ektlarning loyiha-smeta hujjatlari va boshqa kerakli boshlang‘ich ma’lumotlar uni loyihalasini ishlab chiqqan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

QQYK quydagilarga ishlab chiqiladi:

- korxona va ob’ektlar majmuasi (kompleks)ga;
- ob’ekt, bino va inshootlarga;
- ish turlariga va konstruktiv elementlarga.

QQYK tayyorlanadigan o‘lchov birligi bino va inshootning xarakteridan va ularning hajmiy rejaviy yechimlaridan hamda konstruktiv tuzilishidan kelib chiqib tanlanadi.

Shuningdek, o‘lchov birligini ob’ektdan foydalanish xususiyati va maqsadidan kelib chiqib tanlanishi mumkin.

O‘lchov birligiga misol:

Turarjoy binolarida – 1m² turatjoy, 1m² umumiy maydon, binoning iste'mol xususiyatlarini inobatga olgan holda (nufuzliligi, uy turi, konstruksiyasi va boshqa).

Jamoatchilik binolarida – bir o'rin, o'quvchi o'rni, bemor koykasi va boshqa.

O'lchov birligi: Ishlab chiqarish binolarida:

- bir turdag'i maxsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda bir birlik quvvat miqdori yoki ishlab chiqarish hajmi (yillik maxsulot ishlab chiqarish hajmi, sig'im hajim, o'tkazish quvati va boshqalar);
- to'liq bino yoki inshoot (bir xil vazifaga mo'ljallangan – nasosxona, qozonxona ob'ekti, rezervuar-tsesternalar va boshqalar);
- bino va inshootning umumiy (foydali) ishlab chiqarish maydoni birligiga (m², 1000m²);
- u yoki bu ob'ektning funksional xususiyatini to'laroq aks ettiruvchi boshqa o'lchov birliklari (km uzatish liniyasi inshootlari, kVt o'rnatilgan quvвати va boshqa).

Yiriklashtirilgan asosan quyidagi xususiyatlarga ega bo'lган analog-ob'ektlar asosida ishlab chiqiladi:

- turarjoy-fuqarolik maqsadida foydalanimadigan, nisbatan ko'p quriladigan bino va inshootlarning asosiy to'ldiruvchi materiallari (g'isht, panel, blokli va b.), qavatlari soni, turi (seksiyali, podezdli, kottedj.) va funksional vazifasidan kelib chiqib;
- jamoat binolarining sig'imi va quvvatidan kelib chiqib;
- ishlab chiqarish ob'ektlari yillik ishlab chiqarish hajmi, sig'imi, o'tkazish quvвати va boshqalarga bog'liq holda funksional vazifasi va bajariladigan ishlarning texnologik xarakteridan kelib chiqib.

QQYK texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari hozirgi kun talablariga javob beradigan va ko'plab (massaviy) qurilayotgan hamda amaldagi qurilish-loyihalash ishlari huquqiy-me'yoriy asoslar talablariga javob beradigan loyihamar asosida ishlab chiqiladi.

QQYKni ishlab chiqish uchun qabul qilinadigan ob'ektning resurs smeta hujjatlari tarkibida quyidagilar hisobga olingan bo'lishi lozim:

- a) qurilish uchun ajratilgan yer maydonini tayyorlash va muhandislik ishlarini amalgalashish, mavjud ob'ektlarni buzish va tugatish, muhandislik kommunikatsiyalarini o'tqizish va boshqa ishlar;

b) ob'ekt bo'yicha barcha qurilish-montaj ishlari, jumladan, loyihada ko'zda tutilgan ichki muxandislik-sanitar-texnik va elektromontaj ishlari, kam quvvatli qurilmalar va tarmoqlar, lift va qattiq chiqindi tashlash inshootlari va boshqalar;

v) tashqi suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik, energiya ta'minoti, radio va telefon tarmoqlari quriishi hamda ularni tashqi tegishli shahar muxandislik tarmoqlarga ulash ishlari;

g) hududni obodonlashtirish ishlari bo'lishi lozim.

Korxona va ob'ektlar kompleksi QQYK tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxona faoliyatini ta'minlovchi bino va inshootlarni qurish va montaj qilish ishlari qiymatini xisoblash uchun xizmat qiladi.

Korxona va ob'ektlar kompleksi QQYK bir turdag'i faolitani amalg'a oshiruvchi, turli ishlab chiqarish quvatiga ega bo'lgan korxonalar loyihasini tayyorlash uchun ishlab chiqiladi.

QQYK to'liq korxona yoki kosmpleks uchun yagona qilib, shuningdek, bir xil texnologik jarayonni bajaruvchi yoki bir xil uskunalar bilan jihozlangan bino va inshootlari kompleksiga bo'lingan holda ishlab chiqilishi mumkin.

Birinchi holatda QQYK qurilish kompleksining to'liq qiymati: qurilish-montaj ishlari va uskunalar xarajatlariga bo'lgan holda hisoblanadi.

Ikkinci holatda QQYK binlar va inshotlarga bo'lingan holda shakllantiriladi.

Korxona, bino va inshootlar QQYK to'liq ob'ekt bo'yicha umumiyligi yoki bir o'lchov birligi hajmida: 1m² foydali maydonga, 1m³ bino hajmiga; uzatuvchi inshootlar – 1km, m, pm; obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari – 1 ga maydonga va boshqa.

Yiriklashtirilgan ko'rsatkichlar korxona va ob'ektlar kompleksiga qurilishning texnik iqtisodiy asosnoma, texnik iqtisodiy hisobi (DTIA va DTIH) loyihalarni tayyorlashning dastlabki bosqichlarida, yakuniy texnik-iqtisodiy asosni (TIA va TIH) shakllantirish jarayonida qurilishni joriy narxlardagi qiymatini hisoblash uchun qo'llaniladi.

Alovida ob'ekt, bino va inshootning QQYK to'liq bino va inshoot bo'yicha umumiyligi qilib yoki uning ish turlari va konstruktiv elementlaridan kelib chiqib qismlarga bo'lib tayyorланади.

Alovida ob'ektlar, bino va inshotlarga QQYKni tayyorlashda quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

-hisoblash uchun boshlang'ich ma'lumotlar bino va inshoot loyiha yechimlarining asosiy variantining asosiy ishchi loyihalar va ishchi hujjatlari asosida tuzilgan resurslar vedomostlar (materiallar sarfi, mehnat sarfi, mashina-mexanizmlar ish vaqt sarfi va boshqalar)dan olib qo'llaniladi;

-asosiy variantdan farqlanuvchi loyiha yechimlari uchun, konstruktiv va boshqa o‘zgarishlarni hisobga oluvchi tuzatishlar kiritish lozim.

Alovida ob’ekt, bino va inshootning QQYK ko‘rsatkichi qurilish-montaj ishlarini bajarishning to‘liq qiymatini aks ettiradi. Jumladan:

- qurilish ishlariga ajratilgan hududni o‘zlashtirish va muhandislik tayyorgarligi ishlarini bajarish, mavjud qurilishlarni buzish va tugatish, muxandislik kommunikatsiyalarini qurish;

- ob’ekt bo‘yicha barcha turdagи qurilish-montaj ishlarini, shu jumladan loyihaga kiritilgan ichki sanitar-texnik va elektrmontaj ishlari, iqliki (slabotok)li tizimlar qurilishi, lift va qattiq chiqindi tashlash inshootlarini;

- ob’ektning suv, kanalizatsiya, issiqlik, elektr, gaz ta’minoti tarmoqlarini shahar yoki magestral tarmoqqa ularishini ta’minalash uchun zarur bo‘ladidan kommunikatsiyalar qurilishi ishlarining to‘liq hajmini;

- qurilishga ajratilgan hududni obodonlashtirish ishlarini.

Talab etiladigan uskunalar, mebellar va inventarlarning loyihada keltirilgan nomenklatura bo‘yicha to‘liq qiymatini alovida hisplash tavsiya etiladi.

QQYK ishlab chiqish uchun tanlangan ob’ektlar uchun ilovalarda quyidagi ma’lumotlarni keltirish talab etiladi:

QQYKni tayyorlash uchun analog sifatida tanlangan ob’ektlar ro‘yxati va ularning texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Har bir analog ob’ekt bo‘yicha xarajatlar strukturasi.

Har bir analog ob’ekt bo‘yicha to‘g‘ri xarajatlar va pudratchining egri xarajatlari strukturasi keltiriladi;

Alovida ob’ektlar, bino va inshootlar qurilishining joriy narxlardagi qiymatidan foydalanib hisoblash uchun yagona shaklga keltirilgan (unifikatsiya qilingan) resurslar-texnologik modelini (RTM) ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Modelda xarajatlarni diferensatsiya qilish hisobiga xarajatlar statyalarga QQYKda keltirilgan miqdordan kelib chiqib tuzatishlar kiritiladi.

Qurilish-montaj ishlarining unifiikatsiya qilingan resurslar-texnologik modeli (RTM) tarkibi analog ob’ektlar ma’lumotlari asosida shakllantirilgan material va mehnat resurslaridan tashkil topadi.

RTM ikki blokdan tashkil topadi:

a) resurslar bloki: u loyihada berilgan resurslarning natural ko‘rinishda: matayerallar, buyumlar, konstruksiyalarni va qurilish maontaj ishlariga sarflanadigan, normativ kattaliklarda keltirilgan mehnat xarajatlarini aks ettiradi.

Resurslar bloki modelini ishlab chiqishda qurilish matayerallar, buyumlar, konstruksiyalarning ular pozitsiyasi va namenklaturasidan kelib chiqqan holda kamida 85%ni qamrab olish talab etiladi. (Tablitsa 4.). Asosiy ro‘yxatga kirmagan materiallar "prochiye materiallar" deb qayt etilib, miqdori % da keltiriladi.

Resurslar blokini shakllantirish analog ob’ektlar sifatida qabul qilingan qurilish ob’ektlarida qo‘llanilgan resurslar hajmidan kelib-chiqib amalga oshiriladi;

b) qiymat bloki, resurslar qiymati miqdorini ko‘rsatib, u har bir birlik resurs kesimida (resurs narxi) va resursning umumiy qiymati aks ettiradi.

Qiymat bloki modeli resurslarning bazis davri sifatida keltirilgan vaqt kesimidagi qiymat ko‘rsatkichlarini aks ettiradi. (masalan, 1- kvartal 2017 y.).

Resurs qiymati shu guruh resurslari qiymatiga nisbatan o‘rtacha kattalik shaklida aniqlanadi.

RTMdA qo‘llanilgan material va mehnat resurslari hajmlari ishchi loyihalardan hisoblab topiladigan natural kattaliklardir. Ularni material, buyum va konstruksiyalarning joriy narxlariga ko‘paytirish va mehnat xarajatlarini o‘rtacha ish soati qiymati miqdoriga ko‘paytirish orqali har bir resurs qiymati aniqlanadi.

Barcha resurslar qiymati yig‘indisi esa belgilangan davrda qurilish-montaj ishlari umumiy qiymatini aks ettiradi.

RTMning qiymat blokida bazis sifatida keltirilgan ko‘rsatkich resursning bazis davrdagi qiymatini ko‘rsatadi. Navbatdagi davrdagi narxlarning o‘sish keffitsentini aniqlash va resurslar miqdorini ko‘paytirish orqali belgilangan davrdagi resurs qiymati aniqlanadi.

RTMga har doim yangi narxlarni qo‘llash orqali ob’ektning shu davrdagi joriy narxini aniqlash imkonini beradi.

Ish turlari va konstruktiv elementlar bo‘yicha QQYKlarni asosan ikki turda ishlab chiqish tavsiya etiladi:

iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ko‘plab (massovoy) qurilayotgan ob’ektlar bo‘yicha;

Tarmoq xususiyatiga ega bo‘lgan, ishlab chiqarishning u yoki bu xususiyatini o‘zida mujassamlashtirgan ob’ektlar bo‘yicha.

Ish turining yiriklashtirilgan ko‘rsatkichi undagi ishlar namenklaturasini unifikatsiya qilish asosida ishlab chiqiladi (ilva 6).

Ish turlari va konstruktiv elementlar bo‘yicha QQYKlar analog ob’ektning ishchi loyihalari asosida hisoblangan lokal resurs vedomostlar asosida ishlab chiqiladi.

QQYK bunday turdag'i bino va inshootlarning amaldagi smeta hujjalari bo'limlari va ish turlari va konstruktiv elementlar xarajatlari turkimlariga mos keladi.

2.3. Qurilish qiymatini aniqlash

Zamonaviy baholash amaliyotida yangi qurilish qiymatini aniqlashning quyidagi usullari qo'llaniladi:

- bir martalik narxlar usuli (xarajatlarni element bo'yicha baholash usuli);
- solishtirma birlik usuli;
- qiymatning kattalashgan elementli ko'rsatkichlari usuli.

Qurilishning smeta qiymatini aniqlash uchun dastlabki pozitsiya bo'lib loyihaviy qarorlar asosida ishlar hajini hisoblab chiqish xizmat qiladi. Buning uchun me'yoriy hujjat qo'llaniladi va u bo'yicha ish turlari va ushbu obekt bo'yicha konstruktiv elementlarga bog'liq ravishda smeta qiymati aniqlanadi. Ish hajmlarini aniqlash usullari qurilish obektlarining arxitektura-konstruktiv yechimlariga bog'liq bo'ladi.

Smetalarni (hisob-kitoblarni) tuzish usulini tanlash har bitta muayyan holatda shartnoma shartlari va umumiy itisodiy vaziyatga bog'liq ravishda amalga oshiriladi.

Smetsa qiymatini aniqlash uchun to'rtta usul: resursli, resurs-indeksli, bazis-indeksli va bazis-kompensatsiyali usullar qo'llaniladi.

A. *Resursli usul* – bu ajratilgan resurslarni (mehnat sarfi, qurilish mashinalariga bo'lgan ehtiyoj, materiallar, mahsulotlar va konstruksiyalar sarfi) baholash asosida qiymatni aniqlash usulidir. Bu usulni qo'llashga qurilish uchun texnik hujjalarni ishlab chiqish bosqichida yo'l qo'yiladi: investitsiyalarni texnik-iqtisodiy asoslash (TIA, turar joy-ijtimoiy mo'ljallanishdagi obektlarni detal rejalashtirish loyihalari (DRL), loyihalar (eskizli loyihalar) va ishchi hujjalarni.

Ishlarning smeta qiymatini resursli usul yordamida aniqlash uchun lokal resursli vedomost va lokal smeta hisob-kitobi, lokal smeta shakllarini qo'llash tavsiya etiladi.

Lokal smetalardagi bevosita xarajatlarni aniqlash uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida quyidagi resursli ko'rsatkichlar olinadi:

mehnat resurslari

ishchi-quruvchilarining mehnat xarajatlari – odam.-s.

mashinistlar mehnati xarajatlari – odam.-s.

qurilish mashinalari

Qurilish mashinalarni qo'llash vaqtiga to'g'risidagi ma'lumotlar – mash.-s.

material resurslar

materiallar, mahsulotlar (detallar) va konstruksiyalarning xarajati to‘g‘risidagi ma’lumotlar (qabul qilingan fizik kattaliklarda: dona, m², m³ va hokazo).

Ko‘rsatilgan resurslar loyihaviy hujjatlar, turli me’yoriy va boshqa manbalar tarkibidan ajratib olinadi.

Resursli usulni qo‘llaganda qurilish qiymati 9.10. formula asosida hisoblanadi. Bunda bevosa xarajatlar quyidagicha aniqlanadi:

$$PI3 = C_{zn} \cdot T_p + \sum_{i=1}^n C_{emm_i} \cdot T_{emm_i} + \sum_{j=1}^m C_{mam_j} \cdot T_{mam_j} \quad (9.10)$$

bu yerda C_{zp} - bitta odam-soat mehnat xarajatining narxi (bazisli pog‘onada – o‘rtacha me’yoriy razryaddan kelib chiqqan va 1,25 indeksni qo‘llagan holda; joriy pog‘onada – pudratchi tashkilotdagi barcha xodimlarning haqiqiy o‘rtacha oylik ish haqi asosida, biroq ish (mahsulot, xizmat) tannarxiga nisbatan odinadigan mehnat sarfining o‘rnatilgan me’yoriy kattaligidan oshib ketmagan holda; T_r - odam soatlarda ifodalangan mehnat xarajatlari; S_{emm} - qurilish mashinasi mash-soatining qiymati; T_{emm_i} - qurilish mashinasidan foydalanish vaqt; n - qurilishda ishtirok etayotgan qurilish mashinalari soni; C_{mam_j} - materiallar, mahsulot va konstruksiyalarning smeta narxlari; T_{mam_j} - smetali qurilish materiallari, mahsulotlar va konstruksiyalarga nisbatan bo‘lgan jismoniy ehtiyoj; m - qurilish materiallarining turlari soni.

Ajratib olingan resurslar usuli yordamida qiymatni aniqlash usuli investitsion jarayonning barcha ishtirokchilari – buyurtmachilar (investorlar), loyihaviy va pudratchi tashkilotlar, baholovchi firmalar tomonidan ularning mulk shakli va vedomostli bo‘ysunishidan qat’iy nazar qo‘llanilishi mumkin.

B. Resurs-indeksli usul – bu resursli usul bilan resurslarga nisbatan indekslar (material, texnik, mehnat va hokazo) tizimini birgalikda qo‘llash usulidir. Bu usul bozor munosabatlari va narxlarning liberallashuvi sharoitida eng ratsional hisoblanadi. Indekslar mahsulotlar, ishlar yoki resurslarning joriy (bashorat qilish davri) narx darajasidagi qiymatining narxlarning bazis darajasidagi qiymat nisbatiga teng. Ular o‘lchamsiz kattalikda ifodalanadi va odatda verguldan keyin ikkita raqam bilan olinadi.

Qabul qilinayotgan me’yoriy bazaga qarab indekslarga quyidagilarga nisbatan olinishi mumkin:

- 1984 yil 1 yanvardan amalga kirgan smetnarxlariga nisbatan;
- 1991 yil 1 yanvardan amalga kirgan smetnarxlariga nisbatan;
- avvalgi davrning joriy narxlariga nisbatan.

Narxlarning bashoratli indekslarini quyidagilar asosida ishlab chiqish tavsiya etiladi:

- avvalgi intervallar yoki oylardagi narxlar indeksi dinamikasi ko‘rsatkichlarini matematik qayta ishlash;
- narxlar darajasiga inflyatsiya omillari va birinchi navbatda o‘sish omillarining ta’sir qilishining sifatiy bahosi;

- narxlar darajasiga inflyatsiyaga qarshi choralar va davlat organlari, investorlar va pudratchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan narxlarni tartibga solish choralarining ta'sir qilishining sifatiy bahosi.

Narxlarning bazis darajasida aniqlangan smeta qiymatlarini joriy (bashorat qilinadigan) narxlar darajasiga keltirish uning har bitta qatoridagi (bo'limdagi) qiymatini tegishli joriy (bashorat qilindigan) indeksiga ko'paytirish va smeta bo'yicha umumiy natijani qo'shish orqali amalga oshiriladi.

Resursli va resurs-indeksli usullarni qo'llash ham buyurtmachi, ham pudratchi tomonidan qurilayotgan yoki rekonstruksiya qilinayotgan obekt narxi bo'yicha o'z takliflarini asoslagan holda texnik hujjatlarni ishlab chiqishning barcha bosqichlarida qo'llash mumkin. Bu usullar baholovchi firmalar tomonidan obekt qiymatini aniqlashda eng aniq usullar hisoblanadi.

V. *Bazis-indeks usul* joriy va bashorat qilinadigan indekslarning tizimini narxlarning bazis darajasida yoki joriy darajada aniqlangan qiymatiga nisbatan qo'llashga asoslangan.

Joriy (bashorat qilinadigan) narxlar darajasiga keltirish bazis qiymatni ish turlari, xarajatlar elementlari bo'yicha tegishli indekslarga ko'paytirish orqali amalga oshiriladi:

$$BV_n = C_m \cdot I_m + C_{3n} \cdot I_{3n} + C_{emm} \cdot I_{emm} + HP + CI, \quad (9.11)$$

bu yerda C_m , S_{zp} , S_{emm} – joriy darajadagi smeta qiymati elementlari – materiallar, zish haqi, mashina va mexanizmlarni ekspluatatsiya qilish; I_m , I_{zp} , I_{emm} – xarajat elementlari bo'yicha narx indekslari; NR – qo'shimcha xarajatlar; SP – smeta (rejali) daromadi.

G. *Bazisli-kompensatsion usul* o'z asosida BMT evropa iqtisodiyot komissiyasi taklif etgan o'zgaruvchi narxlarni (sliding-scale) hisoblash usuliga asoslanadi.

Bazisli-kompensatsion usulni qo'llashda qurilish qiymati haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqan holda shakllanadi va faqatgina qurilish tugaganidan keyin to'liq holda aniqlanishi mumkin.

Bu usulda qiymat ikki bosqichda topiladi:

- birinchi bosqichda qurilishning *bazis qiymatianiqlanadi* (1984 y., 1991 y. smeta normativlari bo'yicha). Bir vaqtning o'zida kutilayotgan inflyatsiyaga nisbatan narxlar va tariflarning kutilayotgan oshib ketishi tufayli bazis qiymatning qimmatlashishining asl bashorat qilinishi amalga oshiriladi;

- ikkinchi bosqichda ishlar, xizmatlar, uskunalar va hokazolarga haq to'lash bosqichida birinchi bosqichda bazis sharoitlariga nisbatan narx va tariflarning

oshishi munosabati bilan yuzaga kelgan *qo'shimcha xarajatlar hisob-kitobi* amalga oshiriladi.

Yakuniy qiymat uning bazis darajasidan, qo'llanilayotgan resurslarga nisbatan narx va tariflarning oshishi tufayli yuzaga kelgan *qo'shimcha xarajatlar* hamda konsepsion afzalliklardan tashkil topadi.

Obektli va lokal smetalar negizida xarajatlar tarkibi va kattaligini aniqlash

O'zining mohiyatiga ko'ra qayta tiklash qiymati ko'rsatkichi obektni qurishda haqiqiy xarajat qilingan mablag'lar kattaligiga mos keladi, ya'ni baholashning qiymatli usulini qo'llash natijalari bilan to'laligicha ustma-ust tushadi.

Agar ekspert (yoki baholovchi) ixtiyorida yangi qurilish obektiga nisbatan lokal va obektli smetalarning to'liq majmuasi bor bo'lsa, xarajatlarni qayta rekonstruksiya qilish masalasi, misol uchun bazisli-indeksli usul (9.11 formulasi) uchun quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- har bitta xarajat elementining qurilish-montaj ishlari umumiy qiymatidagi solishtirma vazni aniqlanadi:

$$d_M = C_M / B_n \cdot 100\%; d_{3n} / BV_n \cdot 100\%; d_{3MM} = C_{3MM} / BV_n \cdot 100\%, \quad (9.12)$$

- butun ishlar kompleksiga nisbatan qurilish qiymatini qayta hisoblash uchun indekslar aniqlanadi :

$$H_{mek./\deltaaz} = [d_M \cdot H_M + d_{3n} \cdot H_{3n} + d_{3MM} \cdot H_{3MM} + (d_{3n} + d_{3MM}) \cdot 0,3] \cdot 1,15 \cdot H_{3n} \cdot HP] \cdot (1 + C\Pi) / 100, \quad (9.13)$$

bu erda I_m , I_{zp} , Iye_{mm} - materiallar, qurilish mashinalarini ekspluatatsiya qilish va ish haqi narxlarining indekslari; 1,15 – ishchilarga beriladigan *qo'shimcha ish haqini* hisobga oladigan koyeffitsiyent; N_r – O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura qurilish tomonidan tavsiya etiladigan *qo'shimcha xarajatlar normativi*; SP – smeta daromadi normativi;

Yangi qurilish to'liq qiymatini aniqlash:

$$PS = S_{cnp} \cdot I_{mek./\deltaaz} + PP, \quad (9.14)$$

PP – tadbirkor (investor) daromadi

Qurilish qiymati ham elementar resursli smeta me'yollarining to'plamlari (ShNK 4.02-04) ham yiriklashgan smeta me'yolari asosida aniqlanadi.

Yirklashgan narxlar bo'yicha qurilish qiymatini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- o'xhash bo'lgan obektni tanlab olish (binoning umumiy mo'ljallanishi, umumiy shakli, bino konstruksiyasi va uning muhandislik uskunalarining yaqin xarakteristikasi, hisob-kitob qilinadigan hajm);
- bevosita UPVS To'plamidagi jadval asosida o'xhash obektning qayta tiklash qiymatini bazis darajadagi narxlarning bazis darjasini o'lchagichiga nisbatan aniqlash;
- o'xhash obekt baholash obektidan farq qilgan holda qayta tiklash qiymatini o'lchagichga nisbatan korrektirovka qilish (joylashish o'rni, asosiy yukni ko'taruvchi konstruksiyalar turlari bo'yicha farq, texnik xarakteristikalar orasidagi tafovutlar);

- narxlarning bazis darajasida bevosita va bilvosita xarajatlar yig‘indisini aniqlash;
- hisobga olinmagan bilvosita UPVS xarajatlarni aniqlash;
- bevosita va bilvosita xarajatlarni narxlarning joriy darajasiga keltirib qayta hisoblash;
- tadbirkor daromadini aniqlash;
- yangi qurilishning to‘liq qiymatini aniqlash.

Nazorat uchun savollar:

1. Qurilish qiymatini yiriklashtirilgan ko‘rsatkich (QQYK) da aniqlashning umumiy qoidalari, maqsadi va vazifalari izog bering.
2. Qurilish ishlari qiymatini QQYK usulida hisoblashda namuna-ob’ekt tanlash tushuntirib bering
3. Korxona va ob’ektlar kompleksi qiymatini QQYK usulida aniqlash nima?
4. Alovida ob’ektlar, bino va inshootlar qiymatini QQYK usulida aniqlash tartibi
5. Ish turlari va kostruktiv elementlar qiymatini QQYK usulida aniqlash qanday amlga oshiriladi.
6. Qurilish qiymatini aniqlashusullariga izog bering.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jack C. McCormac, Russell H. Brown. Design of Reinforced Concrete. 2013 Wiley 720 pages.
2. Xiaolin Chen. Finite Element Modeling and Simulation With Ansys Workbench. Publisher: Crc Pr I Llc. Released: March 26, 2014. ISBN-13: 978-1439873847.
3. Stepanov P. S. “Ekonomika stroitelstva” M., “Yurayt”, 2005.
4. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Xaitov E.B. Senoobrazovaniye v stroitelstve. TASI. DP «AQIIM», T.: 2012g.-188s.
5. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Haitov E.B. Qurilishda tanlov savdolari va uni tashkil etish. T.: TAQI, 2012.
6. “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2009.
7. “Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ xujjatlar tizimi” Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.01–04 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2004

8. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstvo. Uchebnoye posobiye. –T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyusa pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 s.

3-nazariy: Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning smeta-me'yoriy bazasi asoslari

- 1. Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning smeta-me'yoriy hujjatlar tizimi.**
- 2. Shaharsozlik normalari va qoidalar (ShNK).**
- 3. Qurilish va qurilish-ta'mirlash ishlari elementli smeta resurs normalari.**

3.1. Kapital qurilishda bahoni shakllantirishning smeta-me'yoriy hujjatlar tizimi.

Narxlarni shakllantirish uchun resursli smeta normativlar tizimi «Iqtisodiy normativlar» quyi tizimining shaharsozlik normalari va qoidalarini, hamda qurilish uchun zarur bo‘lgan resurslar hajmini aniqlash uchun kerak bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishi tomonidan tasdiqlanadigan boshqa resursli smeta normativlarni o‘z ichiga oladi.

Resursli smeta normativlar bu – alohida to‘plamlarga jamlanuvchi resursli smeta normalari kompleksining umumlashtirilgan nomi. Zarur talablarni o‘z ichiga oladigan qoida va nizomlar bilan bir qatorda ular turli xildagi bino va inshootlar qurilishiga, rekonstruksiyasiga, kengaytirilishiga, texnik qayta jihozlanishiga va ta’mirlanishiga sarflanadigan resurslarni xolis baholash uchun hizmat qiladi.

Shaxarsozlik va normalari qoidalarining to‘rtinchi ost tizimidagi asosiy qoida va nizomlariga oydinlik kirituvchi hujjatlar smeta resurs hujjatlarini tayyorlashda foydalanilishi kerak bo‘lgan yo‘riqnomasi, metodik ko‘rsatmalar, qo‘llanma va boshqa materiallar ko‘rinishida qo‘sishma sifatida chiqarilishi mumkin.

Qurilishda narx shakllantirish uchun resusrlarni smetali me’yorlashning asosiy yo‘nalishi bu - qurilishda narx shakllantirish uchun resursli smeta normativlar tizimi orqali turli xildan bino va inshootlar qurilishi (rekonstruksiysi, kengaytirilishi, texnik qayta jihozlanishi va ta’mirlanishi) uchun zarur bo‘lgan resurslarga bo‘lgan ehtiyojni xolis baholashdir.

Zarur hollarda resursli smeta normativlardan alohida loyihaviy yechimlarni taqqoslash va iqtisodiy baho berish uchun, hamda kapital qo‘yilmalardagi tuzilmaviy o‘zgarishlar tahlilida foydalanish mumkin.

Qurilishda normativ hujjatlar tizimi quyidagilarga bo‘linadi:

- respublika miqyosidagi
- davlatlararo
- boshqarmaviy

Qurilish bahosini aniqlash uchun resurs normativlarini ishlab chiqish va undan foydalanish qoidalarini o‘z ichiga oladigan «Iqtisodiy normativlar» ShNQ 4ning quyi tizimi bilan birgalikda normativlar resusrlarni smetali me’yorlash metodologiyasini xosil qiladi.

Bularning barchasi respublika miqyosidagi, davlatlararo va boshqarmaviy resurs normativlari 1-ilovada keltirilgan, qurilishda narx shakllantirish va me’yorlash tizimining resursli smeta-normativ bazasini tashkil qiladi.

Respublika miqyosidagi normativlar «Iqtisodiy normativlar» ShNQ 4ning quyi tizimiga kiruvchi, O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishi tomongidan kuchga kiritiluvchi normativlarni o‘z ichiga oladi.

Ulardan O’zbekiston Respublikasi xalq xo‘jalining turli sohalarida amalga oshiriladigan qurilishlarning bahosini aniqlashda foydalaniladigan resurslarning talab qilinadigan miqdorini aniqlashda foydalaniladi. Ushbu normativlarga shuningdek resursli elementli smeta normalari (RESN) ham kiradi.

Davlatlararo resurs normativlariga MDH davlatlarining standartlashtirish va texnik me’yorlash bo‘yicha Davlatlararo ilmiy-texnika xayati yordamida ishlab chiqilgan resusr normativlari kiradi va ular O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish buyrug‘i bilan O’zbekiston Respublikasi xududida kuchga kiradi.

Resurs normativlari qurilish bahosini resurs usuli bilan aniqlashning talablari tasnifi

-tizimning asosiy vazifalariga va qurilishda resursni me’yorlashga muvofiq bo‘lgan holda loyihalashning turli bosqichlarida narxni aniqlashga imkon berishi;

-turli resurslarni optimal sarfini, atrof tabiat muhitidan samarali foydalanishni, qurilish bahosini to‘g‘ri va aniq aniqlanishini ta’milagan holda texnik va iqtisodiy jixatdan asoslangan bo‘lishi;

-qurilish texnikasi yutuqlarini va qurilish ishlab chiqarishining ilg‘or texnologiyalarini hisobga olgan holda qurilishning ilmiy-texnik rivojini rag‘batlantirishi;

-foydalanishda juda qulay va oddiy bo‘lishi, kompyuterlardan va boshqa avtomatlashdirish usullaridan keng foydalanish imkonini beradigan, hamda normativ hujjatlar hajmini qisqartirish imkonini berishi lozim.

Resursli smeta normativlar ishlab chiqilishi jarayonida, alohida normativlarda mavjud bo‘lgan xarajatlarni qayta hisoblash imkonini bo‘lmasisligi kerak.

3.2. Shaharsozlik normalar va qoidalari (ShNK).

Resusrli smeta normativlarni ishlab chiqish uchun kerakli ma’lumotlarga quyidagilar kiradi:

- loyihaviy materiallardagi eng muvofiq texnik yechimlar;
- zamonaviy fan va texnika yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirgan qurilish ishlab chiqarishi texnologiyasi va qurilish mashinalari;
- materiallar, mahsulotlar va konstruksiyalar hamda uskunalarga ta’luqli amaldagi normativlar;
- qurilishda ishchilarga xaq to‘lash bo‘yicha amaldagi normalar va nizomlar.

Resursli smeta normativlar o‘z kuchini ma’lum vaqtgacha, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari asosida amalga oshiriladigan yangi smeta normativlariga kuchga kirguniga qadar saqlab turadi.

Qurilishda yangi smeta normalariiga o‘tish xaqida qaror qabul qilinganida, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yangi kuchga kiritilayotgan smeta normativlari qanday ma’lumotlar asosida ishlab chiqilishi kerakligini va muvofiq normativlarni kuchga kirish sanasini belgilaydi.

Resurs smeta normasi deganda qurilish yoki montaj ishlari hamda konstruksiyalar uchun, odatda tabiiy (fizik) birliklarda yoki nisbiy shaklda (foiz, koefitsiyent ko‘rinishida) qabul qilingan ko‘rsatkich uchun belgilangan resurslar majmuasi (ishchilar mehnat sarfi, qurilish mashinalarining ishslash vaqt, materiallar, mahsulotlar va konstruksiyalarga bo‘lgan ehtiyoj) tushuniladi.

Smeta normalaridagi resurslarning tarkibi va miqdori qurilish ishlab chiqarishi texnologiyasi va uni tashkil etish sohasidagi oxirgi yutuqlarga, montaj va qurilish tashkilotlarini texnik jixozlanishining zamonaviy talablariga javob berishi, qurilish sohasidagi ilg‘or tajribalarni, hamda samarali loyihaviy yechimlarni, materiallarni, mahsulotlarni va konstruksiyalarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Smeta normalarining asosiy funksiyasi – narx ko‘rsatkichlarga o‘tish uchun asos sifatida muvofiq turdagи ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarning normativ miqdorini aniqlashdir.

Resursli smeta normativlarni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va kuchga kiritish «Qurilishda normativ hujjatlar tizimi. Normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi»da keltirilgan tartibga muvofiq ravishda amalga oshiriladi va mavjud qoidalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Yangi resursli smeta normativlarni ishlab chiqish va ilgari amalda bo‘lganlarini qayta ishslash O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishi tomonidan tasdiqlanadigan metodik hujjatlar asosida Davarxitektqurilishning va alohida investorlarning topshirig‘i bilan muvofiq normativ ishlar rejasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Loyihada (ishchi hujjatlarda) ko‘zda tutilgan konstruksiyalar va ishlar uchun amaldagi resursli elementli smeta normativlar to‘plamlarida normativlar mavjud bo‘limgan hollarda, qurilish uchun resursli smeta hujjatlarini tuzuvchi loyihachi tashkilot loyiha (ishchi hujjatlar) tarkibida tasdiqlanadigan muvofiq resursli smeta normalarni ishlab chiqishi lozim.

Amalga kiritilishi zarur bo‘lgan resursli smeta normativlar loyihalari, ilmiytadqiqot va loyihachi tashkilotlarni jalb qilgan holda, O’zbekiston Respublikasi

Davarxitektqurilishining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar boshqarmasi tomonidan tayyorlanadi.

Resursli smeta normativlarni nashr qilish va qayta nashr qilish xuquqi, normativni tasdiqllovchi idoraga tegishlidir.

Tasdiqlangan resursli smeta normativlarni to‘plam ko‘rinishida nashr qilishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda:

- to‘plam muqovali qilinishi, alohida hujjatlarni esa to‘plamga muqovasiz, ya’ni faqat titul varag‘ini qo‘yish bilan nashr etish kerak;

- to‘plamning muqovasiga unga kirgan barcha alohida hujjatlarning belgilarini kiritish lozim;

- to‘plamning pastki qismida betlarning raqamlari qo‘yib borilishi lozim.

Smeta normativlarini tasdiqlagan va kuchga kiritgan resursli smeta normativlarni ishlab chiquvchi tashkilotlar (bir nechta amalga oshiruvchilar mavjud bo‘lgan xolda – ishlab chiquvchi tashkilotlar) va idoralar amaldagi normativlarni ilmiy-texnik darajasini aniqlash uchun ularni davriy ravishda tekshirib turishlari va ularni yangilash bo‘yicha takliflar tayyorlashlari zarur.

Amaldagi resursli smeta normativlarni yangilash qayta ko‘rib chiqish rejalariga muvofiq holda butunlay qayta ko‘rib chiqish yoki alohida o‘zgartirishlar kiritish (masalan: ularga nisbatan koeffitsiyentlar keltirish) yo‘li bilan amalga oshiriladi. Odatda bu, resursli smeta normativlarga o‘zgartirishlar yoki resursli smeta normativlar to‘plamlariga qo‘srimchalar ishlab chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi va ularni kuchga kiritish yangi normativlarni kuchga kiritish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Resursli smeta normativlar to‘plamlariga qo‘srimchalar, to‘plamlar rasmiylashtirilgani kabi rasmiylashtiriladi.

Resursli smeta normativlarni qayta ko‘rib chiqish, ularga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish uchun asos sifatida, tugallangan ilmiy-texnik yoki tajriba ishlarining natijalari, resursli smeta normativlar tuzish va qo‘llashning, smeta normativlar talablariga rioya qilish va ularni qo‘llanilishini nazorat qilishning milliy va xorij tajribasini o‘rganish, umumlashtirish xizmat qilishi mumkin.

Muvofiq resursli smeta normativlar to‘plamiga kiritiladigan har bir o‘zgarishga ro‘yxatdan utish tartib raqami beriladi. Smeta normativlari to‘plamiga qilingan har bir qo‘srimchaga quidagicha titul belgisi beriladi: «Soni (so‘ng tartib raqami keltiriladi)».

O‘zgartirishlar va qo‘srimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va raqamlash, resursli smeta normativlar to‘plamlarini birinchi bor kuchga kiritishdagi kabi tartibda amalga oshiriladi.

Resursli smeta normativlarni ishlab chiqish va to‘g‘ri qo‘llashdagi mas’uliyat. Resursli smeta normativlarni ishlab chiqqan yetakchi tashkilotlar, ularni amalga kiritish uchun taqdim etgan vazirliklar va boshqarmalar, hamda

ularni amalga kirituvchi idoralar quyidagilar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlikni o‘z zimmalariga oladilar:

resursli smeta normativlar talablarini zamonaviy fan, texnika, ilg‘or ishlab chiqarish tajribasiga, hamda qurilgan ob’ektdan foydalanish shart-sharoitlariga muvofiqligi;

resursli smeta normativlarda resurs sarfini pasaytirishga, qurilish muddatini kamaytirishga va qurilish sifatini oshirishga, eng optimal yechimlarni tadbiq etishga, moddiy, energiya, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanishga, qurilishni industrlash va mehnat samaradorligi darajasini oshirishga, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga, atrof muhitni muxofaza qilishga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan talablar o‘z aksini topishi;

resursli smeta normativlar asosi bo‘lgan birlamchi ma’lumotlarni to‘g‘riliqi va ularni texnik, hamda iqtisodiy jihatdan asoslanganligi;

resursli smeta normativlarni amaldagi qonunchilikka, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlariga muvofiqligi;

smeta normativlarning mazkur guruh ShNQ nizomlariga muvofiqligi, matnli va raqamli ma’lumotlarning, hamda ishlatilgan terminlarning to‘g‘riliqi;

resurs smeta normativlariga o‘zgartirishlar kiritish xaqida yoki amaldagi smeta normativlar to‘plamlari uchun qo‘srimchalar ishlab chiqish zarurligi xaqida o‘z vaqtida asoslangan takliflar taqdim etish;

resursli smeta normativlarni rejada belgilangan muddatda amalga kiritish uchun, ularni loyihibarini taqdim etish.

Resursli smeta normativlar talablariga rioya qilmaganliklari uchun, jumladan ushbu normativlarni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan muvofiq ravishda qo‘llamaganliklari uchun tashkilotlar, muassasalar va korxonalar, hamda ulardagagi mas’ul shaxslar, javobganlikka tortiladilar.

Smeta normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini nazorat qilish. Loyihani tuzuvchi, muhandislik tadqiqotlarni va qurilishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, muassasalar va korxonalar, hamda ekspertiza idoralari smeta normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini doimiy ravishda nazorat qilinishini ta’minlaydilar.

Smeta-normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini tanlov asosida nazoratini, O‘zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishi, hamda normativ hujjatni amalga kiritish uchun taqdim etgan vazirliklar va mahkamalar amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilishi Respublikaning barcha tashkilotlarida smeta normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini, tashkilotning qaysi boshqarmaga bo‘ysunishi va xo‘jalik turidan qat’iy nazar tekshiradi.

Smeta normativ hujjatlar talablariga rioya qilinishini tekshiruvchi natijalari dalolatnomaga yordamida rasmiylashtiriladi. Chora ko‘lilishi uchun tekshiruvlar dalolatnomasi tekshirilayotgan tashkilotning yuqori idoralarga yo‘naltirilishi lozim.

3.3. Qurilish va qurilish-ta’mirlash ishlari elementli smeta resurs normalari.

«Shaharsozlik normalari va qoidalari» ShNQ 4ning quyi tizimi tarkibiga kiruvchi resursli smeta normativlarning to‘liq shifri «ShNQ» xarflaridan, bir-biridan nuqtalar bilan ajratilgan quyi tizim raqami – «4»dan, guruh raqamidan (ikkita raqam) va guruh ilovasidagi to‘plam raqamidan (ikkita raqam) tashkil topgan bo‘lishi kerak; chiziqchadan keyin qo‘yilgan oxirgi ikki raqam smeta normativi tasdiqlangan yilini anglatadi. Masalan: ShNQ 4.02.01-2004y. deganda, ushbu ShNQ - «Shaharsozlik normalari va qoidalari»; 4-ost tizim - «Iqtisodiy normativlar»; 02-guruh – «Resursli elementli smeta normalari»; 01-To‘plam 1 «Yer ishlari»; 04 – oxirgi ikki raqam tasdiqlangan yilini anglatadi.

Har bir resursli smeta normativlar to‘plamidagi resursli smeta normativning ichki raqamlanishi (shifri), ushbu normativlarning texnik qismlarida keltiriladi. Ushbu raqamlanish shunday yo‘l bilan amalga oshiriladiki, to‘plam raqamidan so‘ng (bir yoki ikki raqam) chiziqchadan keyin, qoida bo‘yicha RESN jadvalining raqamiga muvofiq ushbu to‘plamdagagi qiymat raqami keltirilgan va oxirgi ikki raqam RESN jadvallarining muvofiq ustunini anglatadi.

Qo‘llaniladigan resursli smeta normativlarga havolalarni birxillashtirish maqsadida, tuziladigan resursli smeta hujjatlarida 3-ma’lumot uchun ilovaga muvofiq xolda qisqa shifrlardan foydalanish zarur.

Muassasa resursli smeta normativlarining shifrida, ularni ro‘yxatdan o‘tkazishda muassasa norma va qoidalaring qisqacha belgilanishi keltiriladi (Muassasa normalari va qoidalari) – «MNK», ost tizim raqami – «4», ro‘xatdan o‘tkazish kitobidagi tartib raqami va chiziqchadan so‘ng tasdiqlangan yilini ko‘rsatuvchi ikki raqam, hamda smeta normativini tasdiqlagan idoraning qisqacha normi. Masalan: MNK 4.(--)-04 Ximprom.

Agarda resursli smeta normativ amaldagi xuddi shunday nomli normativ o‘rniga tasdiqlanayotgan bo‘lsa, uning oldingi shifri saqlanib qoladi, faqat tasdiqlash yilini bildiruvchi raqamlargina muvofiq ravishda o‘zgaradi.

3.1-jadval.

«Iqtisodiy normativlar» ShNQ 4ning quyi tizimiga kiruvchi resursli smeta normativlar

Nº	Qisqacha belgisi	Nomi	Shifri
1	NT	Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ hujjatlar tizimi	ShNQ 4.01.01
2	SN	Qurilish ishlari resursli smeta normalarini ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha umumiy nizomlar	ShNQ 4.02.00
3	ESN	Qurilish va qurilish-ta’mirlash ishlari resursli elementli smeta normalari to‘plamlari	ShNQ 4.02.
4	QMRSN	Qurilish mashinalaridan foydalanish resursli	ShNQ 4.03.

		smeta normalari to‘plamlari	
5	YRK	Alohiba ish turlari bo‘yicha yiriklashtirilgan resurs ko‘rsatkichlari	ShNQ 4.08.
6	MISN	Mahsus ishlar resursli smeta normalari to‘plamlari	ShNQ 4.10.
7	JASN	Jamoat va ma’muriy binolarning jixoz va anjomlari uchun xarajatlar smeta normalari to‘plamlari	ShNQ 4.13.
8	YRSN	Yiriklashtirilgan resurs smeta normalalar to‘plamlari	ShNQ 4.14.
9	UMRSN	Uskunalarni montaj qilish resursli smeta normalari to‘plamlari	ShNQ 4.17.

Nazorat uchun savollar:

1. “Qurilish” va “ta’mirlash” smeta me’yorlariga ta’rif bering.
2. *Jixozlarni montaj qilishda qaysi me’yorlardan foydalaniladi?*
3. *Resursli smeta me’yorlar qanday bosqichlardan iborat bo‘ladi?*
4. *Qurilishda bahoni shakllantirish usullari qanday qo’llaniladi?*
5. *Material resurslarda qanday xarajatlar hisobga olinadi?*
6. *Resur smeta me’yorlari deganda nimalar nazarda tutiladi?*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xiaolin Chen. Finite Element Modeling and Simulation With Ansys Workbench. Publisher: Crc Pr I Llc. Released: March 26, 2014. ISBN-13: 978-1439873847.
2. Stepanov P. S. “Ekonomika stroitelstva” M., “Yurayt”, 2005.
3. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Xaitov E.B. Senoobrazovaniye v stroitelstve. TASI. DP «AQIIM», T.: 2012g.-188s.
4. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Haitov E.B. Qurilishda tanlov savdolari va uni tashkil etish. T.: TAQI, 2012.
5. “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2009.
6. “Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ xujjatlar tizimi” Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.01–04 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2004

7. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstvo. Uchebnoye posobiye. –T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyusa pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 s.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLAR

I-AMALIY MASHG'ULOT

1-amaliy: Smeta harajatlarini aniqlash qoidalari

Ob'ektning joriy narxlardagi boshlang'ich bahosi amaldagi “Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to‘g‘risida” Vaqtinchalik Nizomga, hamda ShNK 4.01.16-09ga muvofiq buyurtmachilar yoki ularning topshirig‘iga ko‘ra loyiha yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan proqnoz joriy narxlar va resurslar tariflari uchun xarajatlar kalkulyatsiyasiga asoslangan resurs metodi yordamida hisoblanadi.

Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash maqsadiga ko‘ra 3 usulda aniqlanadi:

1. Buyurtmachi tomonidan qurilishning boshlang'ich bahosini joriy narxda aniqlash.

2. Pudratchi tashkilotlarining (taklif etilgan narx) tanlov savdosida qatnashish uchun, qurilish bahosini joriy narxda aniqlash.

3. Pudratchi tashkilotlarni tanlov savdosini o‘tkazmasdan qurilish bahosini joriy narxda aniqlash.

“Resurs usuli”ni qo‘llashda fizik ko‘rsatkichlardi:

- asbob-uskunalar nomlari va miqdori;
- normativ mehnat sarfi;
- mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari;
- qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalar nomlari va miqdori;
- boshqa xarajatlar va sarflar aniqlanadi.

“Resurs usuli” bo‘yicha ob'ektning joriy narxlardagi qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$S=(S_o+S_m+S_{zp}+S_{em}+P_p+P_z+S_r) \times KR,$$

Bunda:

So - asbob-uskunalarga, mebel va inventarga xarajatlar;

Sm - qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarga xarajatlar;

Szp - ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar hisobga olingan holda asosiy ish haqiga xarajatlar;

Sem - mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari;

Pp - boshqa xarajatlar va pudratchining xarajatlari;

Pz - boshqa xarajatlar va buyurtmachining xarajatlari;

Sr - ob’ektlar qurilishini sug‘urta qilish xarajatlari;

Kr - navbatdagi yilda qurilishda narx o’sishining prognozlashtirilayotgan indeksidan kelib chiqib aniqlanadigan tavakkalchilik koeffitsiyenti.

Qurilish materiallari, mahsulotlari, konstruksiyalari, uskunalar, mebel va inventar uchun sarflanadigan xarajatlar transport, tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari va import materiallar, uskuna, mebel va inventar uchun qonunchilikda belgilangan bojxona to‘lovlarni qo‘shib hisoblangan ishlab chiqaruvchi (etkazib beruvchi) korxonalarining narxlari qo’llanilib loyiha spetsifikatsiyalariga muvofiq tarzda tuzilgan resurs ro‘yxatlarga asoslanib yoki mazkur hududda shakllangan narxlar monitoringi asosida tuziladigan ma’lumotlar banki bo‘yicha aniqlanadi.

Turli qurilish materiallari, mahsulotlari, konstruksiyalari, uskunalar, mebel va inventarning o‘rtacha narxi ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxi, qurilish materiallari birja va yarmarkalaridagi narxlari, qurilish materiallarini yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlari, O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasi tomonidan chop etiladigan qurilish materiallari uchun joriy narxlar katalogida keltirilgan narxlar asosida aniqlanishi mumkin.

Ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar ob’ekt qurilishining normativ mehnat sarfini 1 kishi-soat ko‘rsatkichining joriy narxiga (so‘m) va ijtimoiy sug‘urtaga ajratiladigan to‘lovlarni hisobga oluvchi koeffitsiyentga ko‘paytirish yo‘li bilan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sz = T \times Sch \times Kss$$

bu yerda:

T – ob’ekt qurilishining normativ mehnat sarfi, resurs smetasi bo‘yicha aniqlanadi, kishi-soat;

Sch – ishchilarining bir soat uchun o‘rtacha ish haqi, ob’ektning dastlabki bahosini aniqlashda, mintaqab o‘yicha quruvchilarining o‘rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanadi;

Kss – ijtimoiy sug‘urtaga ajratiladigan to‘lovlarni miqdorini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Bir soat uchun o‘rtacha ish haqi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$Sch = Zms : F$$

bu yerda:

Zms – avvalgi 12 oy uchun statistika ma’lumotlari asosida aniqlangan quruvchilarining mintaqab o‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, so‘m/oy;

F – O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma’lumotlari bo‘yicha ishchi vaqtining soatda berilgan o‘rtacha oylik fondi.

Ob'ekt qurilishining dastlabki narxini aniqlashda mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasi uchun joriy narxlarda sarflanadigan xarajatlar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Sem = Em \times Spr,$$

bu yerda:

Em – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining soatlarda berilgan hajmi;

Spr – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining soat/so'm dagi joriy narxlari.

Vaqtinchalik bino va inshootlarga sarflangan xarajatlar, qishki mavsumdagi narxlarning o'sishi ShNQ 4.09-06 "Vaqtinchalik binolar va inshootlarning smeta xarajatlari normalari" va ShNQ 4.07-06 "Qish paytida bajariladigan qurilish-montaj ishlari sarfiga qo'shimcha smeta normalari to'plami" asosida aniqlanadi.

Ob'ektning dastlabki bahosini belgilashda boshqa xarajatlarning narxini quyidagi formula bo'yicha qurilish-montaj ishlarining narxiga nisbatan foizlarda qabul qilish tavsiya qilinadi:

$$Pp = (Sm + Szp + Sem + Sp) \times U,$$

bu yerda:

Sm – qurilish materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari uchun sarflangan xarajatlar;

Szp – ijtimoiy sug'urta uchun to'lovlar bilan birga hisoblangan asosiy ish haqi uchun sarflangan xarajatlar;

Sem – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasi uchun sarflangan xarajatlar;

Sp – ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar;

U – pudratchi "boshqa xarajatlari"ning qurilish-montaj ishlarining narxiga nisbatan solishtirma ko'rsatkichi.

Ob'ektning dastlabki bahosini aniqlashda mintaqa va faoliyat turlari bo'yicha boshqa xarajatlarning solishtirma ko'rsatkichi pudratchi tashkilotlarining "5-S Shakl" bo'yicha tuziladigan hisobotlari asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining "Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar, mahsulotlar va xizmatlar uchun sarflangan xarajatlarning asosiy ko'rsatkichlari" statistika byulleteni bo'yicha qabul qilinishi mumkin.

Ob'ektning dastlabki narxi aniqlanishida qurilishni sug'urtalash uchun sarflanadigan xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.12.1999y. 532-sonli "davlat mablag'lari va davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar hisobiga qurilayotgan ob'ektlar qurilishga oid tavakkallarini majburiy sug'urtalash to'g'risida" qaroriga muvofiq aniqlanadi.

Majburiy sug'urtalash bo'yicha oxirigi tariflar sug'urta summasining 0,4% ni tashkil qiladi (ob'ektning to'liq narxidan 80%)

$$Sr = (So + Sm + Szp + Sem + Sp + Pp) \times 0,8 \times 0,4\%,$$

bu yerda:

So – transport va tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari bilan birga hisoblangan uskuna, mebel va inventar uchun sarflanadigan xarajatlar;

Sm - transport va tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari bilan birga hisoblangan qurilish materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari uchun sarflanadigan xarajatlar;

Szp – ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari bilan birga hisoblanadigan asosiy ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar;

Sem – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasiga sarflanadigan xarajatlar (mashinistlarning ish haqlari bilan birga hisoblanadi);

Sp – ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar;

Pp – pudratchining boshqa xarajatları.

Tavakkalchilik koeffitsiyenti navbatdagi yilda qurilishdagi narxlar o‘sishini prognozlash indeksidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tavakkalchilik koeffitsiyenti har bir alohida ob’ekt qurilishining bahosini shakllantiruvchi komponentlar narxlarining o‘sishini prognozlashtirilgan indeksidan kelib chiqqan holda hisoblanib aniqlanadi.

1.2. Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilotlari tomonidan qurilish bahosini joriy narxlarda aniqlash

Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilot tomonidan ob’ekt qurilishining joriy narxlardagi bahosini (kelgusida – taklif etilgan narx) aniqlash bo‘yicha asosiy prinsiplar va xususiyatlar keltirilgan.

Taklif etilgan narx (oferta) – bu tanlov savdosi shartlariga muvofiq tarzda talabgor (pudratchi) tomonidan bajariladigan ishlar (xizmatlar)ning narxi. Taklif etilgan narx tanlov hujjatlari (resurs smeta) asosida, joriy narxlarda, tanlov shartlariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Joriy narxlardagi taklif etilgan narxlarni talabgorning o‘zi mustaqil yoki uning buyurtmasiga ko‘ra quyidagi tashkilotlar hisoblashi mumkin:

- loyiha instituti;

-ixtisoslashgan injiring yoki konsalting kompaniyalar, O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi.

Ixtisoslashgan injiring yoki konsalting kompaniyalar, O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan hisoblangan ob’ekt qurilishining narxi tavsiya tariqasida bo‘ladi.

Tanlov savdolarida qatnashish uchun taklif etilgan narx sifatida tavsiya qilingan narxlarni qabul qilish to‘g‘risidagi qarorni pudratchi (talabgor) qabul qiladi.

Talabgor tomonidan joriy narxlarda “resurs usuli”da taklif etilgan narx 4-bobning 4.5. moddasida keltirilgan formula yordamida aniqlanadi.

Taklif etilgan narxni hisoblash jarayoni quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Qurilish materiallari (mahsulotlar, konstruksiyalar, uskunalar, mebel va inventar) joriy narxlari transport xarajatlari, tayyorlash-omborda saqlash, bojxona

to‘lovlar va sotib olish va ob’ektga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar bilan birga qo‘shib hisoblangan ishlab chiqaruvchilar (import qiluvchilar)ning narxlaridan tashkil topgan mintaqaviy bozorda shakllangan narxlar asosida talabgor tomonidan belgilanadi.

“Foydalanishga tayyor holdagi ob’ekt” qurilishida uskuna, mebel va inventar uchun taklif etilayotgan narxlar tarkibiga ularni sotib olish, yetkazib berish, saqlash, montaj qilish, sozlanishi uchun sarflangan xarajatlar hamda nafaqa, yo‘l va maktab ta’limi fondlariga o‘tkaziladigan to‘lovlar ham kiritiladi.

Talabgorlar material resurslarning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bevosita qurilish materiallarni yetkazib beruvchi tashkilotlardan, shuningdek qurilish materiallarining birja va yarmarkalarining byulletenlaridan, Davarxitektqurilish qo‘mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan chop etiluvchi kataloglardan olishlari mumkin.

Transport xarajatlarini O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining 06.05.2004y. 31-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish uchun yuklarni tashishning joriy narxlarini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Tayyorlash-omborda saqlash xarajatlarini pudrat tashkilotining sarflagan xarajatlari asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Ish haqi bo‘yicha xarajatlarni aniqlashda, talabgor (pudratchi) tomonidan kishi/soat bo‘yicha narx avvalgi 12 oy davomida o‘rtacha oylik ish haqining shakllangan miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Pudratchi taklif etgan narxni hisoblashda qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda mash/soat joriy narxini O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining 06.05.2004 y. 31-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda hisoblangan joriy narxlarni aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Pudratchining “boshqa xarajatlari”ning miqdori (darajasi)ni aniqlash muvofiq muddat (avvalgi 12 (o‘n ikki) oy) uchun qabul qilingan ko‘rsatkichlar bazisi asosida pudrat tashkilotining amaldagi balans ko‘rsatkichlariga asoslangan moliyaviy natijalari 2-shakl bo‘yicha, korxona xarajatlari 5-S shakl bo‘yicha, mehnat xarajatlari 1-T shakl bo‘yicha, hisobot 1-MB (mikrofirma va kichik korxonalar uchun) bo‘yicha va hisobot ko‘rsatkichlarining tahlili asosida quyidagi formulalar yordamida amalga oshiriladi pudratchining “boshqa xarajatlari” % dagi darajasi:

$$U = (Pp/Spr) \times 100$$

bu yerda:

U – pudratchining boshqa xarajatlarining muvofiq bazis davr davomida qurilish, montaj, ta'mirlash, ishga tushirish-sozlash ishlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan foizda berilgan darjasи (kattaligi), bunda “foydalanishga tayyor holdagi” ob'ektlar narxini aniqlashda hisobga olingan pudratchi tomonidan sotib olingan va montaj qilingan uskunalarining narxi chiqarib tashlanadi.

Pp – muvofiq bazis davr uchun qabul qilingan pudratchining boshqa xarajatlari (narx ko'rsatkichi), xarajatlar ro'yxati va O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasining 28.12.2007y. 129-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Ob'ektlar qurilishini shartnomaviy joriy narxlardagi bahosini hisoblashda buyurtmachi va pudratchining “boshqa xarajatlari”ni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar”ning №1, №2 va №3 ilovalarida keltirilgan tartibga asoslangan holda hisoblanadi.

Spr – muvofiq bazis davr davomida bajarilgan qurilish, montaj, ta'mirlash, ishga tushirish ishlarining ishlab chiqarish tannarxi, bunda bunda “foydalanishga tayyor holdagi” ob'ektlar narxini aniqlashda hisobga olingan pudratchi tomonidan sotib olingan va montaj qilingan uskunalarining narxi chiqarib tashlanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarda hisobga olinmagan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган boshqa xarajatlar pudratchining amaldagi xarajatlari va QTL ko'rsatkichlariga (muvaqqat bino va inshootlar, qishki mavsumda narxlarning o'sishi, ishchilarni tashish, qurilishning vaxta usuli va sh.k) mos ravishda aniqlanadi.

Pudratchi (talabgor) taklif etilgan narxdagi “boshqa xarajatlar” tarkibida taklif etilgan ishlarni bajarish evaziga olinadigan iqtisodiy asoslangan foydani ham hisobga oladi.

1.3. Ish haqi tushunchasi va mehnatga haq to'lash tizimi

Ish haqi yollanma xodim daromadining elementi, unga tegishli ishchi kuchiga bo'lган mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish shaklidir.

Ish haqining asosiy elementi – uning stavkasidir. Ish haqining stavkasi shartnomada belgilab qo'yiladi va muayyan vaqt birligi ichida bajariladigan va muayyan kasb-malaka xususiyatlariga ega bo'lган mehnatga to'lanadigan haq darajasini belgilab beradi

Ish haqini tartibga solish mexanizmida boshlang'ich baza sifatida uning eng kam miqdori (minimal ish haqi) namoyon bo'ladi, u oddiy, kam malakali mehnat bilan band bo'lган xodimlarning takror hosil qilinishi uchun normal shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Korxonalarda mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy elementlari - mehnatni normalash, tarif tizimi, ish haqining shakllari va tizimlaridir. Har bir element qat'iy belgilangan vazifasiga egadir.

Mehnatni normalash - bu ilmiy asoslangan mehnat xarajatlarini va uning natijalarini: vaqt normalari, soni, xizmat ko'rsatishning boshqarilishi, mahsulot

ishlab chiqarish normalangan topshiriqlari normalarini aniqlashdir. Bular bo‘lmasa, mehnat miqdorini, har bir xodimning umumiyligi natijalarga qo‘shgan alohida hissasini hisobga olib bo‘lmaydi.

Ish haqining shakllari va tizimlari - bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog‘liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

Tarif tizimi turli normativ materiallar majmuidan iborat bo‘lib, ular yordamida korxonadagi xodimlarning ish haqi darajasi ularning malakasiga, mehnat sharoitlariga, korxonalar o‘rnashgan jo‘g‘rofiy joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi. Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, tarif-malaka ma’lumotnomalari, lavozim maoshlari, xizmatchilar lavozimlarining tarif ma’lumotnomalari, tarif stavkalariga ustama va qo‘shimcha haqlar, ish haqiga doir mintaqaviy malaka koeffitsiyentlari kiradi.

Mehnatga haq to‘lash tizimlari tushunchasi va ularning tasnifi.

Ish haqining barcha tizimlarini ish haqining shakllari deb ataluvchi ikkita katta guruhgaga bo‘lish qabul qilingan.

Agar mehnat natijalarining asosiy o‘lchovi sifatida tayyorlangan mahsulot (ko‘rsatilgan xizmat)dan foydalaniladigan bo‘lsa, u holda mehnatga haq to‘lashning ishbay shakli haqida gap yuritiladi.

Agar bunday o‘lchov sifatida ishlangan vaqt miqdoridan foydalanilsa, bunday holda vaqtbay ish haqi to‘g‘risida gap boradi. Demak, ish haqining shakli - haq to‘lash tizimlarining muayyan toifasidan iborat bo‘lib, ish haq to‘lash maqsadida unga narx belgilashda mehnat natijalarini hisobga olish asosiy ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlarga ajratilgan bo‘ladi.

Ish haqining ishbay va vaqtbay tizimlarini qo‘llash. Mehnatga haq to‘lashning oddiy tizimlari. Bu tizimlar ishchilarning ish haqini mehnat natijalarini hisobga olishning faqat bir ko‘rsatkichiga: ish vaqtiga yoki bajarilgan qurilish ishlari miqdoriga qarab shakllantiradi.

Oddiy vaqtbay tizim xodimning maoshini uning tarif stavkasiga va amalda ishlagan vaqtiga qarab shakllantiradi. Shunga muvofiq holda soatbay, kunbay va oylik tarif stavkalari qo‘llanadi. Oddiy vaqtbay haq to‘lashda ishlangan vaqt miqdori bilan maosh o‘rtasidagi aloqa proporsional xarakterga ega bo‘ladi.

Oddiy ishbay haq to‘lashda ishchining maoshi tayyorlangan mahsulot (bajarilgan ish) birligiga to‘lanadigan haq miqdoridan iborat bo‘lgan ishbay belgilangan narxga va ana shu mahsulot miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Amaliyotda mehnatga haq to‘lashning bevosita individual, jamoa (brigada), akkord, bilvosita, ishbay-progressiv, ishbay-regressiv tizimlari qo‘llanishi mumkin.

Mehnatga haq to‘lashningakkord tizimi shunisi bilan ajralib turadiki, unda ayrim operatsiyalar yoki ish turlarining bajarilishiga emas, balkiakkord topshiriqqa kiradigan ishlarning muayyan kompleksi bajarilishiga haq to‘lanadi.

Ishbay-progressiv haq to‘lashning o‘ziga xos unsurlari ishbay normalarni bajarishning boshlang‘ich darajasidan (rassenkaning ko‘payishi shundan boshlanadi (baza)) hamda normalarni boshlang‘ich bazadan muayyan darajada oshirib bajarilganida ishbay rassenkaning ko‘payish miqdorini ko‘rsatuvchi progressiv qo‘sishchalar shkalasidan iborat.

1.4. Ish vaqtি fondи

Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o‘z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo‘lgan vaqt ish vaqtি hisoblanadi.

Ish vaqtining normal muddati. Xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga qirq soatdan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Olti kunlik ish haftasida har kungi ishning muddati yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa sakkiz soatdan ortib ketmasligi lozim.

Korxonada ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy qilingan taqdirda Mehnat Kodeksining 123-moddasida nazarda tutilgan qoidalar qo‘llaniladi.

To‘liqsiz ish vaqtি. Xodim bilan ish beruvchi o‘rtasidagi kelishuvga binoan ishga qabul qilish chog‘ida ham, keyinchalik ham to‘liqsiz ish kuni yoki to‘liqsiz ish haftasi belgilab qo‘yilishi mumkin.

Ish beruvchi Mehnat Kodeksi 229-modda, shuningdek mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodimning iltimosiga ko‘ra to‘liqsiz ish vaqtini belgilab qo‘yishi shart.

To‘liqsiz ish vaqtি sharti bilan ishslash xodimning yillik asosiy mehnat ta’tilining muddatini, mehnat stajini hisoblashni hamda boshqa mehnat huquqlarini biron bir tarzda cheklashga asos bo‘lmaydi va ishlangan vaqtga yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga mutanosib ravishda haq to‘lanadi.

Ish haftasining turlari. Ish vaqtি rejimi. Ish haftasining turi (ikki kundam olinadigan besh kunlik ish haftasi yoki bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi) va ish vaqtি rejimi (kundalik ish vaqtining (smenaning) muddati, ishning boshlanish va tugash vaqtি, ishdagi tanaffuslar vaqtি, sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari hamda ishlanmaydigan kunlarning navbat bilan almashinishi, xodimlarning smenadan smenaga o‘tish tartibi) korxonada ichki mehnat tartibi

qoidalari, boshqa lokal normativ hujjatlar bilan, bu hujjatlar bo‘lmaganda esa, - xodim bilan ish beruvchining kelishuviga binoan belgilanadi.

Xodimni surunkasiga ikki smena davomida ishga jalb etish taqiqlanadi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlari arafasida kundalik ish (smena) muddati barcha xodimlar uchun kamida bir soatga qisqartiriladi.

Tungi vaqtdagi ishning muddati. Soat 22-00 dan to soat 6-00 gacha bo‘lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi. Agar xodim uchun belgilangan kundalik ish (smena) muddatining kamida yarmi tungi vaqtga to‘g‘ri kelsa, tungi ish vaqt muddati bir soatga, ish haftasi muddati ham shunga muvofiq ravishda qisqartiriladi.

Ishlab chiqarish sharoitlariga ko‘ra zarur bo‘lgan hollarda, xususan ishlab chiqarish uzluksiz bo‘lgan joylarda, shuningdek bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi sharoitida smena bo‘lib ishlanayotgan joylarda tungi ish muddati kunduzgi ish muddatiga tenglashtiriladi.

Ish vaqtini jamlab hisobga olish. Hisobga olinadigan davrdagi ish vaqtining muddati ish soatlarining normal miqdoridan oshib ketmaydigan shart bilan korxonada ish vaqtini jamlab hisobga olish joriy qilinishi mumkin. Bunda hisobga olinadigan davr bir yildan, kundalik ish vaqtining (smenaning) muddati esa o‘n ikki soatdan ortib ketmasligi lozim. Ish vaqtini jamlab hisobga olishni qo‘llanish tartibi, shuningdek hisobga olinadigan davr mobaynida xodimlarga har oyda to‘lanadigan ish haqi miqdorini tenglashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar jamoa shartnomasida belgilanadi, agar u tuzilmagan bo‘lsa, - ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib belgilanadi.

1.5. Qurilishning boshlang‘ich bahosini joriy narxlarda aniqlashda ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar

Ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar ob’ekt qurilishining normativ mehnat sarfini 1 kishi-soat ko‘rsatkichining joriy narxiga (so‘m) va ijtimoiy sug‘urtaga ajratiladigan to‘lovlarni hisobga oluvchi koeffitsiyentga ko‘paytirish yo‘li bilan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Szp = T \times Sch \times Kss$$

bu yerda:

T – ob'ekt qurilishining normativ mehnat sarfi, resurs smetasi bo'yicha aniqlanadi, kishi-soat;

Sch – ishchilarning bir soat uchun o'rtacha ish haqi, ob'ektning dastlabki bahosini aniqlashda, mintaqal bo'yicha quruvchilarning o'rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanadi;

Kss – ijtimoiy sug'urtaga ajratiladigan to'lovlar miqdorini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Bir soat uchun o'rtacha ish haqi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sch = Zms : F$$

bu yerda:

Zms – avvalgi 12 oy uchun statistika ma'lumotlari asosida aniqlangan quruvchilarning mintaqal bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, so'm/oy;

F – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlari bo'yicha ishchi vaqtining soatda berilgan o'rtacha oylik fondi.

Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilotlari tomonidan qurilish bahosini joriy narxlarda aniqlashda, ish haqi bo'yicha xarajatlarni aniqlash, talabgor (pudratchi) tomonidan kishi/soat bo'yicha narx avvalgi 12 oy davomida o'rtacha oylik ish haqining shakllangan miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Pudratchi tashkilotlarni **tanlov savdolarini o'tkazmasdan** tanlashda ob'ekt bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlashda, ish haqi bo'yicha xarajatlarni aniqlash pudratchi tashkilot bo'yicha kishi/soat narxidan foydalanib, avvalgi 12 oy davomida o'rtacha oylik ish haqining shakllangan miqdoridan kelib chiqqan holda bajariladi.

Qurilishning me'yoriy muddatidan va ishlarning mehnat talab qiladigan hajmidan va ish haqining soatiga o'rtacha miqdoridan kelib chiqqan holda quyidagi formula bo'yicha:

$$Oz = Tch/ch \times Sch/ch$$

Bu yerda,

Tch/ch - ob'ekt qurilishi talab qiladigan mehnat sarflanishi

Sch/ch - pudrat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra ish haqining soatiga o'rtacha miqdori

Ish haqining soatiga o'rtacha ko'rsatkichi O'zbekiston Respublikasining hududlari bo'yicha (statistik hisobotlarga muvofiq) "qurilish" sohasi bo'yicha yoki tashkilotda o'tgan yilda haqiqatdan shakllangan ish haqining o'rtacha miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

I variant

Ish haqining soatiga o'rtacha miqdori quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sch/ch = Zsr : 365 (366 - V - P - P \times 1 : 8) : 8 \times 12 \times Krv,$$

Bu yerda,

365 (366) - yildagi kunlar soni;

V - yildagi dam olish kunlar soni;

P - yildagi bayram kunlar soni;

P x 1 : 8 - ish vaqtি bir soatga qisqartirishni hisobga olingan yildagi bayram kunlar soni;

Krv - rejalarashtirilayotgan yilda ish hajmi o'sishidan kelib chiqqan holda ish haqi o'sishini hisobga oladigan koeffitsiyenti;

Koeffitsiyent quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Krv = 1 + (V_p : V_f) \times 0,85, \text{ shu yerda}$$

Bu yerda,

V_p - rejalarashtirilayotgan yilda ish hajmi;

V_f - o'tgan yilda asl ish hajmi;

0,85 - ish hajmi o'sishining har bir foiziga ish haqi o'sishining direktiv koeffitsiyenti;

II variant

Ish haqining soatiga o'rtacha miqdori quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sch/ch = Zsr : (Fr_v : 12) \times Krv$$

Bu yerda,

Sch/ch - ish haqining soatiga o'rtacha mikdori;

Zsr - tashkilot bo'yicha o'tgan yildagi ish haqining soatiga o'rtacha miqdori;

Fr_v - yildagi ish vaqtining hajmi;

Krv - rejalarashtirilayotgan yilda ish hajmi o'sishidan kelib chiqqan holda ish haqi o'sishini hisobga oladigan koeffitsiyenti (koeffitsiyent I variantga o'xshab hisoblanadi).

1.6. Uskunalar, mebel va inventarlari xarajatlari.

Jamoat va ma'muriy binolar smeta-resurs normalarida hisobga olingan asbob-uskunalariga, komplekt tipovoy texnologik va laboratoriya asbob-uskunalar, apparaturalar va asboblar kiradi, ularning tarkibi va tavsifnomasi qoida bo'yicha normalarni harakati davrigacha o'zgarmas holda qoladi.

Ko'rsatilgan binolar inventarlarga quyidagilar kiradi:

a) ishlab chiqarish inventari, ya'ni ishlab chiqarishga oid predmetlar, ular texnologik jarayonlarni (ishchi stollar, verstaklar, asbob-uskunalar, mehnatni muhofaza etish uchun xizmat qiluvchi shkaflar, stellajlar sh.o'x) yengillatish va uni bajarish uchun sharoit yaratishadi.

b) xo'jalik predmetlari, ya'ni idora va boshqa mebel va jihozlash (stollar, stullar, shkaflar, veshalkalar, garderoblar va sh.o'x) hamda xo'jalik va xizmatga mo'ljallangan predmetlar va xonalarni yig'ishtirish yong'inga qarshi inventarlar, orgtexnika vositalari va boshqalar.

Namunaviy asbob-uskunalar va inventarlar tarkibida, shu bilan birga resurs – smeta normalarida quyidagilar ko'rsatilmaydi:

qurilish – montaj ishlari tarkibida kiritilgan mebel qurilmalari;

ichki xonalarini qimmatbaho predmetlar (gilamlar, rasmlar va h.k.) johozi;

maishiy – xo‘jalik ahamiyatiga ega mayda predmetlar va yumshoq inventarlar (ovqatlanish idishlari, kanselyariya ashyolari va h.k.);

xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun maxsus kiyimlar, yangi tuzilayotgan kutubxonalarini, kitob fondi va h.k.

Ayrim hollarda, o‘rnatilgan tartibda ruxsatnomalar bo‘lsa, resurs smeta normalariga yumshoq va mayda inventarlarni kiritilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Resurs normalari butun bir ob’ektga ayrim maxsus xonalarini normalarini ajratib ko‘rsatilgan holda ko‘rsatilishi lozim. Resurs smeta normalarida, shuningdek qabul etilgan o‘lchov birligi ko‘rsatkichlari ham ko‘rsatiladi (o‘rin, o‘quvchi va h.k.).

Har bir resurs normalari to‘plamlari tarkibida, yangi qurilish va harakatdagi ob’ektlarni ta’mirlash, kengaytirish resurs smeta hujjatlaridan foydalanish tartibi va shartlari to‘plamning texnik qismida belgilab berilgan.

Resurs normalari O‘zbekiston Respublikasi “Davarxitektquri-lish” tomonidan tasdiqlanib, respublika smeta normalari deb ataladi.

Resurs smeta normalari to‘plamlarini ro‘yxati 1 ilovada berilgan

Yangi qurilayotgan hamda kengaytirilayotgan va ta’mirlanayotgan jamoat va ma’muriyat maqsadiga mo‘ljallangan ob’ektlarni dastlabki asbob-uskunalar va inventarlar bilan jihozlash resurs smetalari, amaldagi resurs smeta normalari to‘plamlari asosida ushbu maqsad uchun tuzilib, tegishli butun bino uchun, qabul etilgan o‘lchov birligi ko‘rsatkichlari (o‘rin, o‘quvchi va h.k.) asosida tuziladi.

Harakatdagi ob’ektlarni kengaytirish resurs smeta hujjatlari tuzishda resurs smeta normalari ko‘rsatkichlarini o‘sishidan qabul etilgan kengaytirish loyihibarini, ya’ni qo‘shimcha o‘lchov berish miqdoridan foydalaniladi.

Resurs smeta normalarining namunaviy ro‘yxatida inventarlar, asbob-uskunalarni turi, markasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, buyurtmachi ularni boshqalariga almashtirishga haqlidir, agar ular loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan asbob-uskunalar va inventarlar vazifasini bajara olsa.

1.1-jadval

Jamoat va ma’muriy binolar asbob-uskunalarini va inventarlarning resurs smeta normalari to‘plamlari Ro‘yxati

To‘plamlar	To‘plamlar nomi
Davolash va profilaktika ob’ektlari:	
2	Sanatoriylar, dam olish va turizm muassasalari
4	Tug‘ruqxonalar
5	Ko‘p ixtisosli kasalxonalar
6	Ambulatoriya – poliklinika muassasalari
7	Bolalar kasalxonalar
8	Ixtisoslashtirilgan kasalxonalar
9	Shoshilinch va kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam stansiyalari
Madaniy – ma’rifiy ob’ektlar:	

21	Klublar, madaniyat uylari, teatrlar, sirklar
22	Kinoteatrлar
23	Kinematografiya ob'ektlarining yordamchi xizmatlari. Film bazalari.
Maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari:	
31	Maishiy xizmat ko'rsatish korxonaları
32	Hammomlar
Savdo va umumiy ovqatlanish ob'ektlari:	
41	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonaları
O'quv yurtlari ob'ektlari:	
51	Umumta'lim maktablari va maktablarning huzuridagi internatlar
52	Kasb-hunar kolledjlari va akademik litseylar
53	Bolalar mакtabgacha muassasalari
55	Bolalar uylari va maktablar – yetim bolalar, ota-onalarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun internatlar
56	Oliy ta'lim o'quv yurtlari
Kommunal ob'ektlar:	
61	Birinchi, ikkinchi va yuqori A va B darajali mehmonxonalar
Transport ob'ektlari:	
71	Fuqaro aviatsiyasi ob'ektlari
72	Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadigan avtomobil shox bekatlari va avtovokzallar
Ma'muriy ob'ektlar:	
81	Ma'muriy binolar

1.7. Mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining joriy narxlardagi qiymati

Pudratchi tashkilotlarining (taklif etilgan narx) tanlov savdosida qatnashish uchun, qurilish bahosini joriy narxda aniqlashda va pudratchi tashkilotlarni tanlov savdosi o'tkazmasdan qurilish bahosini joriy narxda aniqlashda qurilish mashina va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilishning bir mashina soat qiymati O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura qurilish Qo'mitasi Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxni shakllantirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan "Qurilish mashina va mexanizmlarini ekspluatatsiya qilishning jariy narxlar hisobini aniqlash" Uslubiy ko'rsatma, hamda ShNQ 4.03.01-04 Qurilish mashina va mexanizmlaridan foydalanish smeta resurs normalari to'plami asosida aniqlanadi.

Mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining joriy narxlardagi qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi: soat/so‘m

$$Smash. = Ao + Zzp + Zbich + Ze + Zsm + Zgj + Ztr + Zp$$

Bu yerda,

Ayao-Amortizatsiya ajratmalari

Zzp- mashinani boshqaruvchining (mashinist, haydovchi) ning ish haqi xarajatlari (ijtimoiy sug‘urtaga to‘lovlar bilan)

Zbich-tez ishdan chiqadiga qismlarni almashtirish xarajatlari

Ze-energiya xarajatlari

Zsm-moylash materiallariga ketadigan xarajatlar

Zgj- gidravlik vasovutuvchi suyuqlik xarajatlari

Ztr-ta’mirlash va texnik xizmat ko‘tsatish xarajatlari

Zp –mashinani bir qurilish maydonidan boshqasiga ko‘chirish xarajatlari

1) Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ao = \frac{Vs \times Nao}{T \times 100}$$

Bu yerda

Vs-mashinaning balans qiymati

Nao - amortizatsiya ajartmalari normasi

T-mashinadan bir yillik foydalanish rejimi, mash.-soat/yil.

$$T=(365-(52*2+Pd+Pm))*Kr*Ks$$

Bu yerda

365 - bir yildagi kunlar;

52 - bir yildagi xtaftalar soni;

2-haftadagi dam olish kunlari;

Pd-bayram kunlari;

Pm-texnik ximzat ko‘rtsatish kunlari;

Kr-bir smena davomiyligi, soat;

Ks –smenalik koeffitsiyenti.

2-amaliy: Qurilish montaj va ta’mirlash ishlariga smeta tuzish

Obyektlar qurilishining ikkinchi va keyingi yillarida shartnomaviy joriy

narxlarda qurilish shartnomaviy qiymatini aniqlashtirish

Tanlov savdolari (tender) natijasida joriy narxlarda tuzilgan pudrat shartnomalari (kontrakt) bo‘yicha markazlashtirilgan manbalar (davlat kapital qo‘yilmalari) hisobiga qurilayotgan qurilish ob’ektlarining ikkinchi va keyingi yillar uchun shartnomaviy joriy narxlarini aniqlashtiriladi.

Tanlov savdolari (tender) natijalari bo'yicha tuzilgan ob'ektning qurilishini amalga oshirish pudrat shartnomasiga (kontraktga), ish hajmlari bosqichlar va bajarish muddatlari bo'yicha bo'lingan holda, ishlarni amalga oshirish jadvali ilova qilinadi.

Har yili hisobot yili tugashi bilan buyurtmachi tomonidan pudratchi tashkilot bilan birgalikda prognoz qilinayotgan yil va keyingi yillar uchun bajarilayotgan ishlarning (xizmatlarning) kontrakt bo'yicha qoldiq qiymati aniqlanadi.

Qurilishning titul ro'yxatini shakllantirish va kapital qo'yilmalarining ob'ektlar bo'yicha limitlarini aniqlash mazkur Nizomga muvofiq shartnomalarda belgilangan ob'ekt qurilishining davom etish muddatlari va qiymatiga qat'iy muvofiq bo'lishi zarur.

Ikkinci va keyingi yillar uchun qurilishning titul ro'yxatlariga o'zgartirishlar pudrat shartnomasi (kontrakt) asosida kiritiladi.

Narx omillari bo'yicha indeksatsiya qilinishi lozim bo'lgan ikkinchi yil uchun pudrat ishlari (xizmatlar) qiymati buyurtmachilar va pudratchi tashkilotlar tomonidan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O_2 = (C - O_1 - P_p - H_1) \times K_1$$

Bunda:

O_2 - ikkinchi yil uchun pudrat ishlari qiymati;

C - tanlov savdolari (tender) natijasida aniqlangan ob'ektning joriy narxlardagi qiymati;

O_1 - ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq qurilishning birinchi yilidagi pudrat ishlari hajmining joriy narxlardagi qiymati;

P_p - ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq keyingi yillar uchun ishlar qiymati;

N_1 - buyurtmachining oldindan berilgan avansi;

K1 - pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan vaqtda belgilangan ob'ekt qiyatiga nisbatan hisoblab chiqiladigan ob'ekt qurilishining ikkinchi yili uchun shartnomaviy narx o'zgarishini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Narx omillari bo'yicha indeksatsiya qilinishi lozim bo'lgan uchinchi yil uchun pudrat ishlari (xizmatlar) qiymati buyurtmachilar va pudratchi tashkilotlar tomonidan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$O_3 = (S - O_1 - O_2 - P_p - N_2) \times K_2$$

Bunda:

O₃ - uchinchi yil uchun pudrat ishlari qiymati;

C - ob'ektning tanlov savdolari (tender) natijalari bo'yicha aniqlangan joriy narxlardagi qiymati;

O₁ va O₂ - ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq qurilishning birinchi va ikkinchi yillari uchun pudrat ishlari hajmining joriy narxlardagi qiymati;

P_p - ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq keyingi yillar uchun ishlar qiymati;

N₂ - qurilishning ikkinchi yilda buyurtmachining oldindan berilgan avansi;

K₂ - pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan vaqtda belgilangan ob'ektning qiymatiga nisbatan hisoblab chiqiladigan ob'ekt qurilishining uchinchi yili uchun shartnomaviy narx o'zgarishini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Qurilishning keyingi yillari uchun ob'ekt qurilish qiymati ham shu tartibda aniqlanadi.

K koeffitsiyentni - qurilishning ikkinchi yili (va keyingi yillari) uchun shartnomaviy narx o'zgarishini aniqlash buyurtmachi va pudratchi bilan birgalikda quyidagi asosiy narx shakllantiruvchi komponentlar asosida aniqlanadi:

- a) mehnat xarajatlari (eng kam oylik ish haqining o'zgarishi);
- b) elektr energiyasi ("O'zbekenergo" kompaniyasi);
- v) yonilg'i-moylash materiallari ("O'zbekneftgaz" kompaniyasi);
- g) metall ("O'zmetkombinat" birlashmasi);
- d) sement (sement zavodlari);
- e) qum (zavod-karerlar);
- j) yig'ma temir-beton buyumlari (tayyorlovchi zavodlar);

- z) yog‘och-taxta materiallar (birja narxlari);
- i) g‘isht (tayyorlovchi zavodlar) va boshqa komponentlar.

Bunda komponentlar va asosiy qurilish materiallarining turlari har bir muayyan ob’ekt bo‘yicha, pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzilgan paytdagi ob’ektni qurish qiymatining kamida 70 foizini tashkil etadigan asosiy narx shakllantiruvchi komponentlarni hisobga olgan holda tanlanadi.

Aniqlangan pudrat ishlari (xizmatlar) qiymati ushbu qurilish ob’ekti bo‘yicha tanlov savdolari (tender) o‘tkazgan tanlov komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, "Davarxitektqurilish" qo‘mitasi, O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi ob’ektlar markazlashtirilgan manbalar (davlat kapital qo‘yilmalari) hisobiga qurilganda ikkinchi yilga (va keyingi yillarga) qurilishning shartnomaviy joriy narxi aniqlashtirilishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshiradilar. (O’zR VM 12.08.2005 y. 196-son Qarori taxriridagi band)

Ob’ekt qurilishining keyingi yillari uchun shartnomaviy narxlar to‘g‘ri aniqlanishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzgan buyurtmachi bilan pudratchi tashkilotlar zimmasiga yukланади.

O’zaro hisob-kitob qilishda narxni shakllantiruvchi asosiy omillar va boshqa hisoblab chiqiladigan ko‘rsatkichlar asossiz qo‘llanilishi natijasida ikkinchi yilga va keyingi yillarga ob’ektlar qurilishi qiymati oshirib yuborilishi hollari aniqlangan taqdirda oshirib yuborilgan summa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda respublika budjetida tiklanadi.

2.2. Obyektlar va resurs smeta hujjatlarining turlari

Resurs smeta hujjatlari ob'ekt narxini, muayyan ketma-ketlikda, ish turlari (xarajatlari) – ishlarning bosqichi – ob'ekt – topshiriladigan kompleks – qurilish navbati – umuman qurilishdan iborat bo‘lgan qurilishning kichik elementlaridan yirikroq elementlariga bosqichma-bosqich o‘tgan holda aniqlash imkoniyatini beradi.

Resurs smeta hujjatlarini tuzishga muvofiq alohida qurilayotgan bino (ishlab chiqarish korpusi yoki sex, ombor, vokzal, sabzavot saqlanadidan ombor, turar joy binosi, klub va shu kabilar) yoki inshoot (ko‘prik, tonnel, platforma, to‘g‘on va shu kabilar) va unga tegishli barcha qurilmalar (galareya, estakada va shu kabilar), uskunalar, mebel, inventar, yordamchi va qo‘srimcha qurilmalar, shuningdek, zarurat bo‘lgan holatlarda yondosh muhandislik tarmoqlari va umummaydon ishlari (vertikal rejlashtirish, obodonlashtirish, ko‘kalamlashtirish va shu kabilar) *qurilish ob’ekti* deb qabul qilinadi.

Umumiy texnologik yoki boshqa vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan bino va inshootlar majmuasi (sexlarning bloki, qozonxona va yoqilg‘i ombori, bir nechta rezervuar, suv oluvchi, tozalovchi va boshqa inshootlar guruhi) ham qurilish ob’ekti bo‘lishi mumkin.

Korxonalar, ishlab chiqarish yoki turar joy-fuqarolik komplekslari qurilishida tashqi tarmoqlar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi hamda yordamchi inshootlar (suv ta’mnoti, kanalizatsiya, issiqlashtirish, gazlashtirish, elektr energiya ta’mnoti va boshqalar), shaxobcha yo‘llari, zavod yoki mavze ichidagi yo‘llar, boshqa umummaydon ishlari alohida qurilish ob’ektlari hisoblanadi.

ЛОКАЛЬНАЯ РЕСУРСНАЯ ВЕДОМОСТЬ №

Н.п.	Шифр калька изделия и номер ресурса	Наименование работы/материала	Единица измерения	Количество	
				на из- за износа	по проектным данным
1	2	3	4	5	6
1	E1504-005-03	ОКРАСКА ПОЛИВИНИЛАЦЕТАТНЫМИ ВОДОЭМУЛЬСИОННЫМИ СОСТАВАМИ УЛУЧШЕННАЯ ПО ШТУКАТУРКЕ СТЕН	100М2	1,50	
1.1	1	ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧИХ-СТРОИТЕЛЕЙ	ЧЕЛ-Ч	42,9	64,35
1.2	3	ЗАТРАТЫ ТРУДА МАШИНСТВОВ	ЧЕЛ-Ч	0,17	0,255
1.3	1522	ПОДЪЕМНИКИ МАЧТОВЫЕ СТРОИТЕЛЬНЫЕ 0,5 Т	МАШ-Ч	0,02	0,03
1.4	2499	АВТОМОБИЛИ БОРТОВЫЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 5 Т 40/25	МАШ-Ч	0,15	0,225
1.5	31054	КРАСКИ ВОДОЭМУЛЬСИОННЫЕ	Т	0,063	0,0945
1.6	31710	ШПАГАЛЕВКА КЛЕЕВАЯ	Т	0,051	0,0765
1.7	35538	ШКУРКА ШЛИФОВАЛЬНАЯ ДВУХСЛОЙНАЯ С ЗЕРНИСТОСТЬЮ 40/25	М2	0,84	1,26
1.8	44059	ВЕТОШЬ	КГ	0,31	0,465

ИТОГО ПО ЛОКАЛЬНОЙ РЕСУРСНОЙ ВЕДОМОСТИ:					
ТРУДОВЫЕ РЕСУРСЫ					
1	1	ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧИХ-СТРОИТЕЛЕЙ	ЧЕЛ-Ч	64,35	
2	3	ЗАТРАТЫ ТРУДА МАШИНСТВОВ	ЧЕЛ-Ч	0,255	
СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАШИНЫ И МЕХАНИЗМЫ					
3	1522	ПОДЪЕМНИКИ МАЧТОВЫЕ СТРОИТЕЛЬНЫЕ 0,5 Т	МАШ-Ч	0,03	
4	2499	АВТОМОБИЛИ БОРТОВЫЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ ДО 5 Т 40/25	МАШ-Ч	0,225	
МАТЕРИАЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ					
5	31054	КРАСКИ ВОДОЭМУЛЬСИОННЫЕ	Т	0,0945	
6	31710	ШПАГАЛЕВКА КЛЕЕВАЯ	Т	0,0765	
7	35538	ШКУРКА ШЛИФОВАЛЬНАЯ ДВУХСЛОЙНАЯ С ЗЕРНИСТОСТЬЮ 40/25	М2	1,26	
8	44059	ВЕТОШЬ	КГ	0,465	

Qurilishning ixtisoslashgan turlarining o‘ziga xos xususiyatlari ham u yoki bu bino va inshootlarni alohida ob’ektlar qatoriga kiritishda hisobga olinadi. Bunday ob’ektlar sirasiga quyidagilar kiradi:

neft va gaz sanoatida – neft yoki gaz quvurlari (ekspluatatsiya qilinayotgan va qidiruv quvurlari) va ularga tegishli barcha uskunalar, yordamchi inshootlar va ishlar;

ko‘mir va tog‘-kon ruda sanoatida – kavlab borish va kavlanayotgan konlar va shaxtalarning boshqa yer osti inshootlarini uskunalar bilan jihozlash ishlari;

melioratsiya va suv xo‘jaligida – barcha inshootlari bilan birga kanal yoki kanal qismi, barcha inshootlari va ish turlari bilan birga melioratsiya qilinidagigan yer maydonlari;

temir yo‘l qurilishida – peregon (ikkita qo‘shi stansiya orasidagi masofa) yoki alohida punkt chegarasida, aloqa tarmoqlari, SMB (signalizatsiya, markazlashtirish, blokirovka – poyezdlar harakatini avtomatik ravishda boshqarishi

tizimi), elektr energiya ta'minoti yoki kontakt tarmog'ining muayyan qismidagi temir yo'l ko'tarmasi yoki yo'lning yuqori qismidagi ko'tarma;

avtomobil yo'li qurilishida – yer polotnosi (ko'tarmasi), yo'l to'shamasi, suv quvurlari va avtomobil yo'li ma'lum qismi chegarasidagi boshqa inshootlar. Chiziqli qurilishda (temir va avtomobil yo'llari, elektr toki va aloqa uzatish liniyalari, magistral quvurlar va hk.) uchastkalarning biri chegarasidagi binolar guruhi (masalan: tirkalgan devorlar, yer ko'chishi va siljishiga qarshi mo'ljallangan inshootlar, peregon chegarasida - suv o'tkazuvchi quvurlar, alohida punkt chegarasida - strelka postlari, texnik ko'rikdan o'tkazish punktlari; ma'lum uchastkada – kuchaytirish punktlari guruhi, aloqa qurilmalari va SMB).

**ЛОКАЛЬНАЯ РЕСУРСНАЯ ВЕДОМОСТЬ №
(ВЕДОМОСТЬ РАСХОДА МАТЕРИАЛОВ)**

Н/п	Наименование материалов и конструкций	Единица измерения	Количество	Стоимость в текущих ценах	
				единицы	на весь объем
1	2	3	4	5	6
Ресурсы по нормам ПИК					
ЗАТРАТЫ ТРУДА					
1	ЗАТРАТЫ ТРУДА РАБОЧИХ-СТРОИТЕЛЕЙ	ЧЕЛ-Ч	64,350		
2	ЗАТРАТЫ ТРУДА МАШИНИСТОВ	ЧЕЛ-Ч	0,2550		
	ИТОГО ПО ТРУДОВЫМ РЕСУРСАМ (БЕЗ МАШИНИСТОВ)	ЧЕЛ-Ч	64,605		
СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАШИНЫ И МЕХАНИЗМЫ					
1	ПОДЪЕМНИКИ МАШТОВЫЕ СТРОИТЕЛЬНЫЕ 0,5 Т	МАШ-Ч	0,030	6412,00	192,36
2	АВТОМОБИЛИ БОРТОВЫЕ ГРУЗОПОДЪЕМНОСТЬЮ 5 Т	МАШ-Ч	0,225	25880,00	5823,00
	ИТОГО ПО СТРОИТЕЛЬНЫМ МАШИНАМ	СУМ		6 015	
СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ИЗДЕЛИЯ И ДЕТАЛИ					
1	КРАСКИ ВОДОЭМУЛЬСИОННЫЕ	т	0,0945	6 250 300,00	590 653
2	ШЛАПЛЕВКА КЛЕЕВАЯ	т	0,0765	856 200,00	65 499
3	ЦИКУРКА ШЛИФОВАЛЬНАЯ ДВУХСЛОЙНАЯ С ЗЕРНИСТОСТЬЮ 40/25	м2	1,260	12 450,00	15 687
4	ВЕТОЦЫ	кг	0,4650	4 870,00	2 265
	ИТОГО ПО МАТЕРИАЛЬНЫМ РЕСУРСАМ	СУМ		674 104	

Agar loyihaga asosan qurilish maydonchasida yordamchi va qo'shimcha ob'ektlarsiz faqat bitta asosiy ob'ekt qurilayotgan bo'lsa (masalan: sanoatda – asosiy sex binosi; transportda – temir yo'l vokzalining binosi; turar joy qurilishida – turar joy, teatr, mакtab binosi va shu kabilar), u holda ob'ekt tushunchasi qurilish tushunchasi bilan muvofiq bo'lishi mumkin.

Qurilish bahosi, kapital mablag'lar kiritish tuzilmasiga muvofiq, quyidagi ishlar va xarajatlar bo'yicha toifalarga bo'linadi:

- umumqurilish va maxsus qurilish ishlari;

- uskunalarni montaj qilish bo‘yicha ishlari (montaj ishlari);
- uskuna, mebel va inventarga qilinadigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar (vaqtinchalik bino va inshootlar, qishki mavsumdagi narxlarning oshishi, vaxta metodi va shu kabilar);
- buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari.

Qurilish bahosini belgilashda *umumqurilish* va *maxsus ishlar* sirasiga quyidagilar kiradi:

bino va inshootlarni qurish bo‘yicha: yer ishlari, yig‘ma va monolit temirbeton va beton, g‘isht, blok, metall, yog‘och va boshqa qurilish konstruksiyalari, pol, tom, pardozlash ishlari;

kon yuzasini ochish, burg‘ulash-portlatish, ustun qoziq qoqish, tuproqni mustahkamlash, pastga tushiriluvchi quduqlarni joylashtirish, quduqlarni burg‘ulash, qurilish konstruksiyalari va uskunalarini korroziyadan saqlash, issiqlik izolyatsiyasi (shu jumladan, qozonlar, sanoat pechlari va boshqa agregatlarni o‘ta chidamli qoplama bilan o‘rash), tog‘-kon kavlash, suv osti-qurilish (g‘avvoslik) ishlari;

turar-joy va jamoat binolarini yoritish bo‘yicha ishlari;

ichki suv quvurlari, kanalizatsiya, isitish quvurlari, gaz ta’mиноти, ventilyatsiya va havoni sovitish tizimini o‘tkazish bo‘yicha ishlari (isitish qozonlari, radiatorlar, kalorifer, boyler, nasos va boshqa sanitariya-texnik jihozlar va moslamalar narxini qo‘sib hisoblaganda);

ixtisoslashgan qurilishda bajariladigan ishlari, shu jumladan: avtomobil va temir yo‘llari; ko‘priklar va quvurlar; tonnellar va metropolitenlar; tramvay yo‘llari; aerodromlar; elektr toki uzatish tarmoqlari; aloqa, radio va televide niye inshootlari, gidrotexnik inshootlari konstruksiyalari, stapel va sliplarning kema o‘tkazuvchi yo‘llari; sanoat pechlari va quvurlari; neft va gaz quduqlarini burg‘ulash (shu

jumladan, dengiz sharoitida); eroziya, sel, ko‘chki, siljish va boshqa tabiiy ofatlarga qarshi inshootlar; qirg‘oqni mustahkamlash ishlari; melioratsiya ishlari (sug‘orish, quritish, suv keltirish);

suv ta’mnoti, kanalizatsiya, issiqlik va elektr energiya ta’mnotining tashqi tarmoqlari va inshootlarini; gaz-neft mahsulotlari uchun magistral quvurlarni, oqova suvlarni tozalash va atmosfera ifloslanishidan saqlashga mo‘ljallangan inshootlarni qurish bo‘yicha ishlar;

ko‘kalamlashtirish, ixota va ko‘p yillik mevali daraxtlarni o‘tkazish ishlari;

qurilish hududini tayyorlash bo‘yicha ishlar: daraxt va butalarni kesish, to‘nkalarni qo‘porish, maydonni rejalashtirish, tuproqni yuvish va relefni tuzish bo‘yicha boshqa ishlar, qurilmalarni buzish va ko‘chirish va shu kabilar;

zaminlar, poydevorlar va tayanch konstruksiyalarni uskunalar bilan jihozlashga tayyorlash bo‘yicha ishlar; bino va inshootlar qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan geologik va gidrogeologik (shurflash, suvni tortib olish va boshqa), tubni chuqurlashtirish, tog‘-kapital va yuzasini ochish bo‘yicha ishlar;

resurs smeta normalari to‘plamlarida ko‘zda tutilgan boshqa qurilish konstruksiyalari va ishlari, shu jumladan korxona, bino va inshootlar rekonstruksiyasi va ularni qayta texnik jihozlashda bajariluvchi qurilish konstruksiyalarini qismlarga ajratish bo‘yicha ishlar.

Qurilish narxini belgilashda *montaj ishlari* sirasiga quyidagilar kiradi:

uskunalarning barcha turlarini, shu jumladan kompressor mashinalari, nasoslar, ventilyatorlar, elektrtexnik qurilmalar, elektr pechlar, avtomatlashtirish asboblari va vositalari hamda hisoblash texnikasini doimiy ekspluatatsiya qilinuvchi joyda loyihami holatda yig‘ish va o‘rnatish (shu jumladan tekshirish va yakka tartibda sinovdan o‘tkazish);

elektr ta’mnot liniyalari va tarmoqlarini elektr qurilmalariga o‘tkazish, elektr tarmoqlariga ulash va elektr mashinalarini sozlashga topshirishga tayyorlash;

texnologik quvurlarni yotqizish hamda suv, havo, bug‘, sovituvchi va boshqa suyuqliklarni uskunalar montaji bo‘yicha resurs smeta normalari to‘plamlarida ko‘zda tutilgan hajmlarda uskunalarga o‘tkazilishini bajarish;

uskunalar montaji bo‘yicha resurs smeta normalari to‘plamlarida ko‘zda tutilgan boshqva ishlar, shu jumladan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar, bino va inshootlarning rekonstruksiyasi va qayta texnik jihozlanishida bajariladigan uskunalar, moslamalar, mashinalar va qurilmalarning demontaji.

4. Объект сметаси хисоби (объект сметаси тузилиши: тартибий тузилиши ва қулланиш соҳаси

ОБЪЕКТНАЯ РЕСУРСНАЯ ВЕДОМОСТЬ

№ ПП	ХАРАЖАТЛАР ТУРЛАРИ	БАХОСИ (МИНГ.СУМ)
1	УСКУНАЛАР, МЕБЕЛЛАР ВА ИНВЕНТАРЛАР ХАРАЖАТЛАРИ	0,000
2	ҚУРИЛШИ МАТЕРИАЛЛАРИ, БЮОМЛАРИ ВА КОНСТРУКЦИЯЛАРИ ХАРАЖАТЛАРИ	721,291
3	ЯГОНА НИКТИМОНИЙ СУФУРТА БИЛАН ХИСОБЛАНГАН АСОСИЙ ИШ ҲАҚИ ХАРАЖАТЛАРИ	649,870
4	ҚУРИЛШИ МАШИНА ВА МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАРАЖАТЛАРИ	6,015
5	ИШЛАБ ЧИҚАРИШГА ОИД БОШҚА ХАРАЖАТЛАР	0
6	ЖАМИ ТҮҒРИХАРАЖАТЛАР	1 377,176
7	ПУДРАТЧИННИГ БОШҚА ХАРАЖАТЛАРИ, 17,27%	237,838
8	БҮОРТМАЧИННИГ БОШҚА ХАРАЖАТЛАРИ	0,000
9	ҚУРИЛШИ ОБЪЕКТИНИ СУФУРТАЛАШ ХАРАЖАТЛАРИ	0,000
10	НАВБАТДАГИ ЙИЛДА ҚУРИЛИШИ НАРХИННИГ ОШИШИНИНГ ИНДЕКСИ ПРОГНОЗИ ҚАРАБ АНИКЛАНДИГАН ТАВАККАЛЧИЛИК КОЭФФИЦИЕНТИ	1,00
11	ЖАМИ ҚУРИЛИШ ҚИЙМАТИ ЖОРИЙ БАҲОДА	1 615,014
12	ҚКС 20%	323,003
13	ЖАМИ ҚУРИЛИШ ҚИЙМАТИ ЖОРИЙ БАҲОДА ҚКС 20% БИЛАН	1 938,017

Qurilish narxini belgilashda hisobga olinuvchi *asbob-uskuna, mebel va inventarning* narxi quyidagilar:

1) Xarid qilish (tayyorlash) va ob’ekt omboriga keltirish narxi:

montaj qilinuvchi va montaj qilinmaydigan uskunalarning barcha turlari (texnologik, energetik, ko‘tarish-transport, nasos-kompressor va boshqa), shu jumladan nostandard (loyihalashtirish narxini qo‘shib hisoblaganda), tashkiliy texnika, laboratoriylar, turli ustaxonalar, tibbiy xonalarning uskunalar;

ishlab chiqarish bilan texnologik ravishda bog‘liq bo‘lgan transport vositalari, shu jumladan loyihada ko‘zda tutilgan yo‘llarda yuklarni tashishga mo‘ljallangan va qurilishni amalga oshirayotgan tashkilot balansiga kiritiluvchi harakatlanuvchi temir yo‘l sostavi hamda

ommaviy bo‘lmagan yuklarni tashishga ixtisoslashgan boshqa transport turlarining maxsus harakatlanuvchi sostavi;

territoriyalar, sexlar va boshqa ob’ektlarni tozalovchi mashinalar, yong‘in o‘chirish vositalarining uskunalar;

nazorat-o‘Ichov asboblari, avtomatlashtirish va aloqa vositalari;

ishga tushiriladigan ishlab chiqarishlarning dastlabki fondlariga kiritiluvchi asbob, inventar, shtamplar, moslamalar, jihozlar, ehtiyyot qismlar, yarim tayyor yoki tayyor mahsulotni tashish uchun mo‘ljallangan konteynerlar

yotoqxonalar, kommunal xo‘jalik, ma’rifiy, madaniy, sog‘liqni saqlash, savdo ob’ektlarini dastlabki jihozlanishi uchun zarur bo‘lgan uskunalar, asboblar, inventar, mebel va boshqa ichki asbob-anjomlar.

2) bir martalik buyurtmalar uchun tayyorlanish sikli uzoq bo‘lgan mashinalar va murakkab texnologik uskunalar konstruksiyasini ishlash chiqishning narxi;

3) resurs smeta normalarida uskunalar bilan montaj qilinishi hisobga olingan material, mahsulot va konstruksiyalarning narxi;

4) shefmontaj uskunalarining narxi.

Pudratchi tashkilotlarining boshqa xarajatlari va buyurtmachilarining boshqa xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlarini shartnomaviy narxini hisoblashda buyurtmachi va pudratchining “boshqa xarajatlarini” aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar”ga muvofiq aniqlanadi.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarni aniqlash tartibi ShNQ 4.01.16 -09ning 4.12, 5.11, 6.7 bandlarida berilgan.

Loyihalashtirilayotgan korxonalar, binolar, inshootlar yoki ularning navbatlari qurilishining narxini aniqlash uchun lokal resurslar ro‘yxatlaridan, ob’ekt resurs ro‘yxatlaridan, ishlar hajmi ro‘yxatidan tashkil topgan yig‘ma ro‘yxat tuziladi.

Lokal resurslar ro‘yxatlari birlamchi hujjatlar bo‘lib, ishchi loyiha, ishchi hujjatlar (ishchi chizmalar) ishlab chiqish jarayonida aniqlangan hajmlarga asoslangan bino va

inshootlar bo'yicha alohida ishlar va xarajatlar yoki umummaydon ishlari uchun alohida tuziladilar.

Ob'ekt resurslarining ro'yxatlari o'z tarkibida ob'ekt uchun lokal resurslar ro'yxatlaridagi ko'rsatkichlarni birlashtiradilar va smeta hujjatlari bo'lib hisoblanadilar, ularga asoslangan holda ob'ektlar qurilishining shartnomaviy joriy narxlardagi bahosi bo'yicha buyurtmachi va pudratchi o'rtasida hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Korxona, bino, inshootlar (yoki ularning navbatlari) qurilishining yig'ma resurs ro'yxatlari yangi qurilayotgan, kengaytirilgan, rekonstruksiya qilinayotgan, qayta texnik jihozlanayotgan korxonalar, binolar va inshootlar uchun ob'ekt resurs ro'yxatlari asosida tuziladilar.

Korxona, bino yoki inshoot qurilishida atrof muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda resurslar va atrof muhit muhofazasi bo'yicha ro'yxat tuziladi.

Qurilish konstruksiyalari va ishlari yoki uskunalar montaji uchun umumqurilish resurs smetalari bo'lmanan holatlarda loyiha (ishchi loyiha) tarkibida konstruktiv elementlar va qurilish ishlaringning turlari hamda uskuna montaji uchun yakka tartibda resurs normalari ishlab chiqiladi va ShNQ 4.01.01-04 "Qurilish narxlarini shakllantirish uchun resurs normativ hujjatlar tizimi"da belgilangan tartibga muvofiq loyiha tarkibida tasdiqlanadi.

Qurilish va montaj ishlaringning ayrim turlari uchun lokal resurs ro'yxatlari, shuningdek uskunalar sonining hisobi quyidagi ma'lumotlar asosida tuziladi:

bino, inshootlar va ularning qismlari hamda konstruktiv elementlarining ishchi chizmalar bo'yicha qabul qilingan parametrlari;

ishchi chizmalar bo'yicha belgilanadigan qurilish va montaj ishlari hajmining ro'yxati bo'yicha qabul qilingan ishlar hajmi;

buyurtma spetsifikatsiyalar, ro'yxatlar va ishchi chizmalar bo'yicha qabul qilingan uskuna, mebel va inventar nomenklaturasi va soni;

ishlarning turi, konstruktiv elementlar, shuningdek uskuna, mebel va inventarlar uchun amaldagi resurs smeta normativlar.

Qabul qilingan texnik yechimlar bo‘yicha lokal resurs ro‘yxatlari tuzilayotganida amaldagi smeta normativlari yoki resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarni belgilash usullarining tanlovi quyidagi shartlardan kelib chiqqan holda bajariladi:

agar ishchi chizmalar bo‘yicha ro‘yxatlar tuzish uchun mo‘ljallangan yiriklashtirilgan resurs smeta normalari (YRSN) mavjud bo‘lsa, u holda ana shu yiriklashtirilgan resurs smeta normalari qabul qilinadi;

agar yiriklashtirilgan resurs smeta normalari bo‘lmasa, lekin namunaviy va qurilishning mahalliy sharoitlariga mos va iqtisod nuqtai nazarida samarali hisoblangan qayta qo‘llaniluvchi yakka tartibdagi loyihalarning resurs smetalari bo‘lsa, u holda aynan shu resurs smeta normativlari qabul qilinadi;

agar yiriklashtirilgan resurs smeta normalari, shuningdek namunaviy va qurilishning mahalliy sharoitlariga mos va iqtisod nuqtai nazarida samarali hisoblangan qayta qo‘llaniluvchi yakka tartibdagi loyihalarning resurs smetalari bo‘lmasa, u holda qurilish konstruksiyalari yoki qurilish va monaj ishlarining ayrim turlari uchun muvofiq to‘plamlardagi resurs smeta normalari qabul qilinadi.

(наименование стройки)
СВОДНАЯ РЕСУРСНАЯ ВЕДОМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА

№ п/п	Наименование затрат	ПО ОБЪЕКТУ	жилой дом 1	жилой дом 2	ВНУТРИПЛОЩАДОЧНЫЕ СЕТИ	БЛАГОУСТРОЙСТВА И ОЗЕЛЕНЕНИЕ
			тыс сум	тыс сум		
1	ЗАТРАТЫ НА ОБОРУДОВАНИЕ, МЕБЕЛЬ И ИНВЕНТАРЬ С УЧЕТОМ ТРАНСПОРТНЫХ И ЗАГОТОВИТЕЛЬНО-СКЛАДСКИХ РАСХОДОВ	183 103,368	92 551,684	92 551,684	-	-
2	ЗАТРАТЫ НА СТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ, ИЗДЕЛИЯ И КОНСТРУКЦИИ С УЧЕТОМ ТРАНСПОРТНЫХ И ЗАГОТОВИТЕЛЬНО-СКЛАДСКИХ РАСХОДОВ	12 884 072,307	5 876 357,234	5 876 357,234	65 187,709	245 470,030
3	ЗАТРАТЫ НА ОСНОВНУЮ ЗАРАБОТНУЮ ПЛАТУ С УЧЕТОМ НАЧИСЛЕНИЙ НА СОЦИАЛЬНОЕ СТРАХОВАНИЕ	2 386 968,123	1 125 916,988	1 125 916,988	29 186,444	25 948,702
4	ЗАТРАТЫ НА ЭКСПЛУАТАЦИЮ МАШИН И МЕХАНИЗМОВ (С УЧЕТОМ ЗАРПЛАТЫ МАШИНИСТОВ)	383 937,599	158 178,016	158 178,016	6 284,954	61 296,613
5	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ХАРАКТЕРА	317 232,047	153 949,723	153 949,723	2 179,221	7 153,380
6	ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ И РАСХОДЫ ПОДРЯДЧИКА	1 402 970,835	1 265 197,119	1 265 197,119	17 181,069	16 691,329
7	ЗАТРАТЫ НА СТРАХОВАНИЕ СТРОИТЕЛЬСТВА ОБЪЕКТОВ	56 560,582	27 448,317	27 448,317	388,542	1 275,405
8	ИТОГО СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА В ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ	17 916 843,761	8 687 599,181	8 687 599,181	121 807,939	399 839,459
9	НДС 20%	3 583 369,152	1 739 519,036	1 739 519,036	24 361,588	79 961,892
10	ИТОГО СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА В ДОГОВОРНЫХ ТЕКУЩИХ ЦЕНАХ С НДС	21 500 214,913	10 437 119,018	10 437 119,018	146 169,527	479 801,351

Qurilish ishlarining ayrim turlari, ixtisoslashgan pudratchi qurilish va montaj tashkilotlarining loyiha hujjatlarining tuzilmasidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda lokal resurs ro‘yxatlar quyidagilar uchun tuziladi:

1) bino va inshootlar bo‘yicha:

qurilish ishlari, maxsus qurilish ishlari, ichki sanitariya-texnika ishlari, ichki elektr yoritish, elektr kuchlanish uskunalar, texnologik va boshqa turdagি uskunalar, nazorat-o‘lchov asboblari (NO’A), kam tokli qurilmalar (aloqa, signalizatsiya va hk.), moslamlar, mebel, inventar sotib olish va boshqa ishlar;

2) umummaydon ishlari bo‘yicha:

vertikal rejalashtirish, muhandislik tarmoqlarini o‘rnatish va yo‘llarni tashkil etish, territoriyani obodonlashtirish, kichik me’moriy shakllarni joylashtirish va boshqalar.

Lokal resurs ro‘yxatlarda ma’lumotlar bino (inshoot)ning alohida konstruktiv elementlari, ishlarning turlari va tuzilmalar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga ajratish tartibi ishlarning texnologik ketma-ketligiga muvofiq bo‘lishi va qurilishning ayrim turlarining spetsifik xususiyatlarini hisobga olishi kerak. Ushbu tartib idoraviy normativ hujjatlar bilan belgilanishi lozim. Bunda bino va inshootlar bo‘yicha bajariladigan ishlar yer osti (“nol sikli” ishlari) va yer usti qismlarga bo‘linishi mumkin.

Guruhlarga ajratishning yuqorida bayon etilgan prinsipiga ko‘ra:

qurilish ishlari uchun lokal resurs ro‘yxati quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi mumkin: yer ishlari; poydevorlar va devorning yer osti qismlari; devorlar; karkaslar; orayopmalar; pardevorlar; pollar va zaminlar; tom qoplamlari va yopmalari; ochiq o‘rinlarni to‘ldirish; zinapoyalar va maydonchalar, pardozlash ishlari; turli ishlar (peshayvon, tashqi devor atrofi to‘samasi va boshqalar) va hk.;

maxsus qurilish ishlari uchun lokal resurs ro‘yxatida quyidagi bo‘limlar bo‘lishi mumkin: uskunalar uchun poydevorlar; maxsus zaminlar; kanal va chuqurchalar; obmurovka (himoya qatlami), futerovka va izolyatsiya; kimyoviy himoya qatlamlari va hk.;

ichki sanitariya-texnika ishlarining lokal resurs ro‘yxati quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi mumkin: suv quvurlari, kanalizatsiya, isitish tizimi; ventilyatsiya va havoni sovitish va hk.

uskunalarni o‘rnatish uchun lokal resurs ro‘yxatida quyidagi bo‘limlar bo‘lishi mumkin: texnologik uskunalarni sotib olish va montaj qilish; texnologik quvurlar; metall konstruksiyalar (uskunalarni o‘rnatish bilan bog‘liq) va hk.

Lokal resurs ro‘yxatlari O‘zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasi tomonidan belgilangan, O‘zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining 12.12.2003 y. 74-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish va montaj ishlari uchun resurs hisoblari (smetalari)ni tuzish bo‘yicha uslubiy tavsiyanomalar”ida ko‘rsatilgan shakllar bo‘yicha tuziladi.

Loyihada belgilangan ma’lumotlarga ko‘ra qayta foydalanish uchun yaroqli konstruksiya, materiallar va mahsulotlar yoki yo‘l-yo‘lakay qurilish uchun zarur bo‘lgan ayrim materiallar (tosh, shag‘al va boshqalar) olinishi uchun konstruksiyalarni (metall, temirbeton va boshqa) qismlarga ajratish, bino va inshootlarni buzish bajarilayotgan bo‘lsa, bino va inshootlarni qismlarga ajratish, buzish (ko‘chirish) va boshqa ishlar bo‘yicha lokal smeta yakunlariga asoslangan holda, kapital mablag‘lar kiritilishini kamaytiruvchi qaytarma resurslar ma’lumotnomaga asosida keltiriladi.

Qaytarma resurslar alohida satrda “Shu jumladan qaytarma resurslar” deb ko‘rsatiladi va kelgusida foydalanish uchun olinadigan konstruksiya, material va mahsulotlar nomenklatura va soni bo‘yicha yakuniy smeta asosida belgilanadi. Bu kabi konstruksiya, material va mahsulotlarning narxi bozor narxlari va eskirishi, shuningdek ularni yaroqli holatga keltirish va omborga olib kelishga sarflangan xarajatlar hisobga olingan holda, buyurtmachi tomonidan, komissiya asosida, belgilanadi. Ko‘rsatilgan qaytarma resurslar narxiga pudratchining boshqa xarajatlari qo‘shiladi.

Yo‘l-yo‘lakay olingan materiallarning narxi, agar ularni amalga oshirilayotgan qurilishda ishlatishning imkonii bo‘lmay turib, lekin kelgusida sotish imkoniyati bo‘lsa, tayyorlashning franko-joyi (mahalliy materiallar va qazilmalar uchun frankokarer; o‘rmon kesilishida olinadigan yog‘och uchun franko-daraxt kesilayotgan uchastka va hk.) narxlari bo‘yicha belgilanadi.

Agar (kerakli hujjatlar bilan tasdiqlangan) buzishdan hosil bo‘lgan yoki yo‘l-yo‘lakay qazib olingan materiallardan foydalanish yoki sotish imkonini bo‘lmasa, ularni bahosi qurilish bahosida hisobga olinmaydi.

Asosiy fondlarda ro‘yxatga olingan va demontaj qilinib, kengaytirilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan yoki qayta texnik jihozlanayotgan korxona chegarasida qurilayotgan binoga ko‘chirilishi mo‘ljallanayotgan uskunalardan foydalanishda lokal resurs ro‘yxatlarida faqat ushbu uskunaning demontaji va qayta montaji bo‘yicha resurslari ko‘rsatiladi, resurs ro‘yxati yakunlari uchun esa, tasdiqlovchi instansiya hamda loyiha (ishchi loyiha)ning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini belgilash uchun ushbu uskunaning ro‘yxati va balansda qayd etilgan narxi, qayta texnik jihozlanish uchun belgilangan narx bundan istisno, ma’lumotnomaga asosida ko‘rsatiladi.

3-amaliy: Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari

Reja

3.1 Qurilish ishlari hajmini aniqlash

3.2 Bino qurilish xajmini aniqlash.

Qurilish hajmini aniqlashda binolar chordoqli va chordoqsiz tom épma turlariga ajratiladi. Ular uchun qurilish xajmini hisoblash qoidasi turlicha hisoblanadi.

Chordoq qoplamlari (V_1) binolar uchun qurilish xajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_I = S_I * H,$$

Bu yerda:

S_1 - tsokoldan yuqori birinchi qavat balandligida tashqi tomon bo‘yicha binoning gorizontal qirqimi yuzasi (fasaddagi old tomon suvok éki pardozlash oblitsovka qavatining qalinligini inobatga olgan holda)

H - qirqim bo‘yicha birinchi qavatning toza poli **otmetkasi**dan chordoq qoplamasini to‘ldirilgan yuzasigacha bo‘lgan balandlik.

Chordoq qoplamasiz (V_2) binolar uchun qurilish xajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_2 = S_2 * l,$$

S_2 - binoning tashqi devor o‘rami bo‘yicha vertikal qirqim yuzasi (tomning tepe ko‘rinishi va birinchi qavat toza poli yuzasi, shtukaturka ëki oblitsovka qoplamasini inobatga olgan holda, lekin bo‘rtib chiqgan arxitektura detallarini hisobga olmagan holda);

l - tsokoldan yuqori birinchi qavat balandligida tashqi devor chegaralari bo‘yicha binoning uzunligi.

Yuqoridagi formulalar orqali bino qurilish xajmini aniqlashda ikkala holda ham quyidagi muhim jihatlariga rioya qilish kerak:

- Bino xajmidan yo‘laklar xajmi ayirib tashlanadi, lekin loja va nishning xajmi emas.
- Bino xajmiga erker, verand, tambur va boshqa foydali xajmini oshiruvchi qismlar shuningdek, tomning tashqi ko‘rinishaga tushib turuvchi chiroqli fonarlarqo‘shiladi. Lekin pesh ayvon va balkon xajmi qo‘shilmaydi.

Agarda binoning qavat maydonlari turlicha bo‘lsa (misol uchun turar joy binosida markaziy qismi o‘n qavatli, tom qismi yetti qavatli) bunday hollarda binoning har bir qismi uchun xajm alohida hisoblanib so‘ngra qo‘shiladi.

Texnik maqsadralr uchun mo‘ljallangan chordoq xonasi bino xajmiga qo‘shilmaydi. Agarda loyiha bo‘yicha chordoq gabaritida mansard ko‘zda tutilgan bo‘lsa u holda xajmga qo‘shiladi. Bunday xona uchun qurilish xajmi xuddi chordoq qoplamali binolar uchun hisoblanganidek aniqlanadi; bunda gorizontal qirqim yuzasi mansard balandligida tashqi devor bo‘yicha (qoplama qalinligini inobatga olgan holda), balandligi esa mansard xonaning toza polidan chordoq qoplamasi yuqorisigacha olinadi (potolokning notekis og‘ma ko‘rinishida o‘rtacha balandlik aniqlanadi).

Bino yer to‘la ëki yarim yerto‘la bilan loyihalanganda yuqoridagi tartibda qurilish xajmi hisoblansa faqatgina yer usti qismi xajmi aniqlanadi. Binoning umumiy xajmi esa uning yer usti va yer osti qismlari xajmlari yeg‘indisidan aniqlanadi.

Binoning yerosti qismi xajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_3 = S_3 * H_1,$$

Bu yerda

S_3 - tsokoldan yuqorida birinchi qavat balandligida o‘lgangan yer to‘la (yarim yerto‘la)ning gorizontal kesimi yuzasi;

H_1 - yer to‘la (yarim yerto‘la) toza poli yuzasidan birinchi qavat toza poli yuzasigacha bo‘lgan balandlik.

3.2. Binoning umumiy, foydali va me’yoriy maydoni, qurilish va qavatlar maydonini hisoblash qoidalari.

1. Jamoat binolarining umumiy maydoni barcha qavatlar maydoni yeg‘indisi ko‘rinishida aniqlanadi. (texnik, mansard, tsokol va yer to‘la qavatlarini inobatga olgan holda).

Binoning qavatlari maydonini tashqi devorlarning ichki yuzasi chegarasida o‘lchash talab etiladi. Antersol, boshqa binolarga o‘tish joylari, oynali verandalar,

galereya, tomosha va boshqa zallar balkonlarini binoning umumiy maydoniga qo'shish talab etiladi. Ko'p chiroqli xonalar maydoni umumiy maydonga faqat birinchi qavat doirasidagina qo'shiladi. Mansard qavat maydoni tashqi devorlarning ichki chegarasi va chordoq bo'shlig'i bilan chegaradosh mansard devorlari orqali aniqlanadi. Og'ma tashqi devorlarda qavat maydoni pol balandligida aniqlanadi.

2. Jamoat binolarining foydali maydoni unda joylashgan barcha xonalar maydonlari yeg'indisi hamda balkon, zaldagi antersollar, foye va boshqalar yeg'indisi sifatida aniqlanadi. Zina kataklari, lift shaxtasi, ichki ochiq zinalar va panduslar hisobga olinmaydi.

3. Jamoat binolarining normali (hisoblangan) maydoni undagi barcha xonalar maydonlari yeg'indisi sifatida aniqlanadi, yo'lak, tambur, zina kataklari, lift shaxtasi, ichki ochiq zinalar va muhandislik jixozlari, tarmoqlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan xonalar maydonlaridan tashqari.

O'quv, shifoxona, sanatoriyalar, dam olish uylari, kinoteatrlar va shu kabi boshqa binolardagi sog'lomlashtirish maqsadda foydalaniladigan, dam olish va navbatda turish uchun mo'ljallangan yo'laklar maydoni normali maydonga qo'shiladi.

Kommutatsiya uchun xizmat qiladigan radiouzellar, sahna va kinoapparatdagagi ko'makchi xonalar faqatgina eni 1 mdan kam bo'lman, balandligi 1,8 va undan yuqori bo'lgandagina, hamda o'rnatilgan shkaflar (muhandislik shkaflaridan tashqari) maydonlari normali maydonga qo'shiladi.

4. Doimiy muz bo'ladigan gruntlarda qurishg uchun loyihalanidigan binoni shamollatish yerto'lsasi maydoni, poldan og'ma konstruksiyagacha bo'lgan balandlik 1,8 mdan kam bo'lgan chordoq va texnik chordoqlar, hamda lodja, tambur, tashqi balkonlar, peshayvonlar, binoning tomonlari, tashqi ochiq zinalar maydonlari binoning umumiy, foydali va normali maydoniga qo'shilmaydi.

5. Bino xonalarining maydoni devor va pardevorning alohida yuzasi orasidagi masofa sifatida, pol balandligida (plintusni hisobga olmagan holda) aniqlanadigan o'lcham orqali aniqlanadi. Mansard qavatda joylashgan xona maydoni nishabli devorning balandligi 30^0 - $1,5$ mgacha, 45^0 - $1,1$ mgacha, 60^0 va undan yuqorida- $0,5$ mgacha bo'lgan chegarada pasaytiruvchi koeffitsiyent 0,7 orqali aniqlanadi.

6. Binoning qurilish maydoni tsokol balandligida bino tashqi devori bo'ylab gorizontal qirqim sifatida bo'rtib chiqgan qismlarini inobatga olgan holda aniqlanadi. Ustunlarda joylashgan bino osti maydoni hamda bino osti yo'laklari qurilish maydoniga qo'shiladi.

7. Bino ustki qismi qavatlari sonini aniqlashda binoning barcha ustki qavatlari qo'shiladi: texnik qavat, mansard, hamda tsokol agarda uning épmasi 2mdan kam bo'lman o'rtacha yerning rejaviy otmetkasidan baland bo'lsagina. Doimiy muz bo'ladigan gruntlarda qurilish uchun loyihalanadigan bino ostini shamollatish uchun mo'ljallangan yerto'la balandligidan qat'iy nazar bino ustki qavatlari soniga qo'shilmaydi.

Binoning turli qismlarida qavatlar soni turlicha bo'lganda, hamda maydonda binoni nishab bilan joylashtirish natijasida qavatlar soni ko'paygan hollarda bino qavatlari soni har bir qism uchun alohida aniqlanadi.

3.3. Ko'p qavatli uydagi kvartira maydoni, turar joy binolari qurilish hajmi, qurilish va qavatlar maydonini hisoblash qoidalari.

1. Xonodon maydonini lodja, balkon, verand, terass va tambur, omborxonalarsiz faqatgina yashash xonalari va érdamchi xonalarni yeg'indisi sifatida aniqlanadi.

2. Xonadoning umumiy maydoni xonalari, lodji, balkon, verand, terras va omborxona maydonlari yeg'indisi sifatida aniqlanadi va quyidagi pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llaniladi: lodji uchun 0,5, balkon va terass uchun 0,3, verand va omborxona uchun 1.

Xonada joylashgan pechka maydoni xona maydoniga qo'shilmaydi. Ichki xonadonlararo zina marshi osti maydoni balandlik poldan bo'rtib chiqgan konstruksiyalar ostigacha 1,6 m va undan yuqori bo'lganda zina joylashgan xona maydoniga qo'shiladi.

3. Turar joy binolaridagi kvartiralar umumiy maydoni 2 bandga muvofiq aniqlangan kvartiralar maydonlari yeg'indisi va jamoat maqsadidagi xonalar umumiy maydoni yeg'indisi sifatida aniqlanadi.

Binoning umumiy maydoniga doimiy muz bo'ladigan gruntlarda qurilish uchun loyihalanadigan bino ostini shamollatish uchun mo'ljallangan yerto'la, chordoq, texnik chordoq, xonadan tashqari kommunikatsiyalar, zina kataklari tamburlari, lift va boshqa shaxtalar, peshayvon, tashqi ochiq zinalar maydonlari qo'shilmaydi.

4. Turar joy binosi maydoni tashqi devorlarning ichki chegarasida o'lchanigan qavatlar maydoni hamda balkon, lodjilar yeg'indisi sifatida aniqlanadi.

Qavat maydoniga zina kataklari, lift va boshqa shaxtalar ushbu qavat balandligidagi maydonini hisobga olgan holda qo'shiladi.

5. Binoning qurilish maydoni bo'rtib chiqgan qismlarini hisobga olgan holdagi tsokol balandligida bino tashqi devori bo'ylab gorizontal qirqimi yuzasi sifatida aniqlanadi. Ustunlarda joylashgan bino osti yuzasi, bino osti yo'laklari qurilish maydoniga qo'shiladi.

6. Bino ustki qismi qavatlari sonini aniqlashda binoning barcha ustki qavatlari qo'shiladi: texnik qavat, mansard, hamda tsokol agarda uning épmasi 2mdan kam bo'lman o'rtacha yerning rejaviy otmetkasidan baland bo'lsagina. Doimiy muz bo'ladigan gruntlarda qurilish uchun

loyihalanadigan bino ostini shamollatish uchun mo‘ljallangan yerto‘la balandligidan qat’iy nazar bino ustki qavatlari soniga qo‘shilmaydi.

3.4. Qurilish ishlari hajmini hisoblash qoidasi va metodikasi.

3.4.1. qurilish ishlari xajmini hisoblashga qo‘yiladigan umumiyl talablar.

Smeta - qurilish jaraenida bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning narxlangan ro‘yxati. Qurilish (rekonstruksiya, texnik qayta jixozlash, kapital ta’mir) narxini aniqlashdagi eng ko‘p mehnat talab qiluvchi ishlardan biri bu ishlar tarkibi va xajmini aniqlash hisoblanadi. Buning uchun smeta tuzishda asos va birinchi bosqich hisoblanadigan ishlar xajmi xisoblab chiqiladi.

Ishlar hajmi ro‘yxati ishlarning qisqacha tavsifi va ularning sonini hisoblovchi formuladan iborat bo‘ladi.

Ishlar xajmi ro‘yxati to‘liq tugallangan, tekshirilgan va jamlangan tarkibdagi chizma, spetsifikatsiyalar va boshqa loyiha materiallari asosida tuziladi.

Ishlar nomenklaturasi, tavsifi va o‘lchov birligi qo‘llanilidigan smeta normalariga mos tushishi kerak. Ishlar xajmini hisoblash ShNKning 4 qismi bilan tasdiqlangan ishlar xajmini hisoblash qoidalariaga mos ravishda bajarilishi kerak.

Biroq ishlar xajmini tuzishni amalda qo‘llash uchun faqatgina qoidalarni o‘zini bilish kifoya qilmaydi. Ishlar xajmini hisoblashni ratsional metodda olib borish ko‘proq natijalarni beradi.

Amaldagi yo‘riqnomalar va amaliёт tajribasidan kelib chiqgan holda ishlar hajmi hisobi ro‘yxati ko‘paytirilmaydi. U loyihalash tashkilotida saqlanadi va talabiga binoan smetani tekshiruvchi va kelishib beruvchi tashkilotlarga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi.

Ishlar xajmi ro‘yxati shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, matn va formulani o‘qish, o‘lcham va boshqa asoslovchi ma’lumotlarni topish oson bo‘lishi kerak. Buning uchun ro‘xat aniq va tuzatishlarsiz to‘ldirilishi, formul va matn ma’lum ketlikda kerakli joylarga ezilishi va hisoblar chizma raqami, detal va boshqa loyiha materiallariga misollar bilan ko‘rsatib berilishi kerak.

Smetalar tuzishda qoidaga ko‘ra ular bo‘limlarga ajratiladi. Loyihalangan bino shartli ravishda qismlarga - konstruktiv elementlarga ajratiladi. Bir konstruktiv elementga tegishli bo‘lgan barcha ishlar smetaning bir qismiga jamlanadi (tashqi va ichki pardoz ishlari alohida konstruktiv element sifatida qaraladi). Bundan tashqari smetada binoning ustki va ostki qismlari ham ajratiladi.

Smeta tarkibiga o‘xshash ishlar xajmi xisobi ro‘yxati ham bir xil bo‘limlarga tuziladi.

Jamoat turar joy binolari qurilishida konstruktiv elementlar ro‘yxati quyidagicha:

A.binonig ostki qismi.

1. Yer ishlari
2. Poydevor
3. Yer to‘la devorlari
4. Ëpmalar
5. Pardevor
6. Oynalar
7. Eshiklar
8. Pollar
9. Zinalar
10. Ichki pardoz ishlari

B. Binoning ustki qismi

- 1.Devorlar
2. ëpmalar
3. Tom
4. To‘sıqlar
5. Pollar
6. Zinalar
7. Oynalar
8. Eshiklar
9. Boloxona ayvoni (balkon) va binoning tomoni
10. ichki pardoz ishlari
11. tashqi pardoz ishlari
12. boshqa turli ishlar

Ichki maxsus qurilish ishlari

1. Isitish tizimi
2. Shamollatish
3. Suv tizimi
4. Oqava suv tizimi
5. Gaz ta’mnoti
6. Elektr ëritish tizimi
7. Telefon kiritish
8. Radio
9. Televideniya
10. Ëng‘in signallari
11. Signalitsaziya va video kuzatuv
12. Musor quvurlari

Sanoat qurilishida konstruktiv elementlar ro‘yxati ob’ekt qo‘llanish sohasiga bog‘liq bo‘ladi. Ishlab chiqarish binolarida ishlar xajmining bo‘limlari namunaviy ro‘xati quyidagicha:

A binoning ostki qismi

1. Yer ishlari
2. Poydevor osti asosi

3. Poydevor
4. Yerto‘la devorlari
5. Ëpmalar
6. To‘sıqlar
7. Proyemlar (oyna va eshik)
8. Pollar
9. Zinalar
10. Ichki pardoz ishlari
11. Tashqi pardoz ishlari

B binoning ustki qismi

1. Karkas
2. Devorlar
3. Ëpmalar
4. Tom
5. To‘sıqlar
6. Proyemlar (devor, eshik, darvoza)
7. Pollar
8. Zinalar
9. Ichki pardozlash ishlari
10. Tashqi pardozlash ishlari
11. Boshqa ishlar

3.4.2. ishlar xajmini hisoblashni bajarish metodikasi.

Ishlar xajmini hisoblash - unga smeta xujjatining sifati bog‘liq bo‘lgan smeta ishida eng ko‘p mehnat talab qiluvchi va mas’uliyatli qismi hisoblanadi.

Ishlar xajmini hisoblash uchun tayёrlanish kerak. Ishchi avvalo hisoblashi lozim bo‘lgan barcha loyiha xajmi bilan tanishib olishi kerak. Barcha loyiha xujjatlarini ish joyiga topish, foydalanish oson va qulay bo‘ladigan holda joylashtirish kerak.

Ishlar xajmi hisobini jadvallarda yuritish kerak. Har bir ish turi uchun o‘zining ratsional jadval turi qo‘llanilishi kerak. Quyida unifitsirovannaya jadval keltirib o‘tilgan:

Turli ishlar

Ish va chizmalar nomi	Hisoblash formulasi	O‘lchov birligi	Miqdori

Hisob ishlarini ma'lum ketma ketlikda, binoning yer usti (nulevoy sikl) va yer osti qismlari konstruksiya, ishlari uchun alohida olib borish kerak.

Konstruktiv elementlar va ish turi bo'yicha hisoblangan ish hajmlari hisobini shunday olib borish va jadvalga joylashtirish kerakki, keyingi jadvallarda avvalgilaridan olingan ma'lumotlarni qo'llash imkonni bo'lsin. Bunga keyingi hisoblar uchun izchillikda ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi jadvallar tuzish orqali erishish mumkin. Misol uchun, avval proyemlarni to'ldirish ishlari xajmini hisoblash keyingi o'rnlarda devor, to'siq va ajratuvchi yuzalar maydonidan proyemlarni chiqarib tashlashda qo'llanilishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, bo'yicha ishlar hajmi hisobini quyidagi ketma ketlikda amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Tashqi devorlar proyemlari;
2. Ichki devor va to'siqlar proyemlari;
3. Devorlar;
4. Poydevor;
5. Yer ishlari;
6. To'siqlar;
7. Pollar;
8. Oraëpmalar;
9. Tomlar;
10. Zinalar;
11. Balkon, kozqrka va qanotlar;
12. Ichki pardozlar;
13. Tashqi pardoz ishlari;
14. Boshqa (turli) ishlar.

Keyinchalik smeta xujjatlarni tuzishda esa konstruksiya va ish turlari xaqiqatda bajarilish ketma ketligi bo'yicha joylashtiriladi.

Jadvallarni to'ldirishda ishlar xajmini hisoblashning ba'zi elementar texnika qoidalariga rioya qilish kerak:

- Kerak bo'lgan barcha joylarga chizma, detallar, albom va boshqa xujjatlarning nomi, raqami va shifrini ezib qo'yish;
- Loyiha chizmalarda keltirilmagan ishlar xajmini hisoblanganda (er ishlari va boshqalar) ular eskizlar (qo'lda chizilgan chizmalar) bilan tasdiqlanishi kerak;
- Formulalarni iloji boricha qisqa tuzish kerak va ular orqali butun bino xajmini emas balki alohida xona, qavat, seksiya, uchastka, o'q bo'yicha ishlar xajmini aniqlash kerak.

Hisoblashda tayёр loyiha ma'lumotlaridan foydalanish kerak. Birinchi o'rinda bu temirbeton, metall, ёг'och, sanitar texnik, elekrotexnik va boshqa jixozlar tasnifiga tarmoqlarga tegishli.

Buyumlar sarfi to'g'risidagi dona, kub metr, kvadrat metr va tonna o'lchov birliklarida berilgan ma'lumotlar bevosita smetaga ishlar xajmini hisoblash qaydnomasining bir bo'limi sifatida keltirilgan loyiha tasnifidan olib eziladi.

Bunday hollarda smeta moddalari matnida buyumlarning markasi (turi), chizma raqami va shunga o‘xhash asoslovchi izohlovchi ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Ishlar xajmini hisoblashda arxitektorlar tomonidan hisoblangan boshqa tayёр loyiha ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish kerak. Bularga yashash, ish va umumiy maydonlar, qurilish xajmi, xona va xonadonlar soni va boshqalar kiradi. Ushbu ma’lumotlar orqali pollar va pardozlash ishlari olib boriladigan ajratiladigan potoloklar, eshiklar soni va tipi kabi boshqa smeta xajmlari aniqlanadi.

Oldindan tayёrlab qo‘yilgan ёrdamchi ma’lumotlarning bo‘lishi ham foydali hisoblanadi. Zamnaviy loyihalash tiplarga ajratish va unifikatsiyalash prinsiplariga asoslanadi. Faqatgina namunaviy emas balki yakka tartibdagi loyihalarda ham mashhur asosiy ko‘rsatkich parametr va modullarga asoslangan rejaviy xajmiy xajmiy-loyihaviy, konstruktivlik va boshqa yechimlarning chegaralangan nomenklaturasidan foydalaniadi.

Buning natijasida esa ishlar xajmi hisobining namunaviy yarim tayёr ma’lumotlarini tayёrlash imkonini bo‘ladi.

Ishlar xajmini hisoblash uchun jadvallar oldindan tayёrlangan matnga ega bo‘lishi kerak. Ijrochi faqatgina oldindan bilish imkonini bo‘lmagan ma’lumotlarnigina ёзishi kerak.


Jadvallardagi matnlar qisqa lekin shu bilan birga o‘zida keyinchalik smeta tuzish uchun yetarli bo‘lgan ishlar xarakteristikasi va mazmunini ham aks ettirishi kerak.

Ijrochi matndan nimani qoldirish, o‘zgartirish ёki o‘chirishni aniq bilishi uchun matn o‘zida bor variantlarni ko‘zda tutishi kerak.

Hisoblash ishlarida ishni yengillashtirish maqsadida formulalardan ham foydalanish mumkin. Bunday formulalar doimiy deb ataluvchi, hisoblashda ko‘p takrorlanadigan kattaliklardan foydalanish asosida hosil qilingan.

Taklif etiladigan formulalar uchun doimiy kattaliklar sifatida devorlar uzunligi (perimetri) va bino tashqi o‘qidan olingan gorizontal yuza maydoni olinadi. Dastlabki ma’lumot sifatida doimiy kattaliklar oddiy tartibda hisoblanadi.

Loyiha o‘lchovlari bilan hisoblangan o‘qlar bo‘yicha tashqi devor perimetri R harfi bilan belgilaymiz. Har qanday talab etiladigan parellel perimetri qayta hisoblash shart emas. Uni birlamchi parametr R ni loyihadan olingan, biron kattalikka ko‘paytirish ёki qisqartirish orqali aniqlash mumkin.



3.1. bino tashqi devorlari plani rejasi.

Misol. 3.1. rasmida bino tashqi devorlari plani keltirilgan. O'qlarda perimetetr R ga teng. Fasad maydonini aniqlash uchun tashqi devorlarning sirtki yuzasi bo'yicha perimetрini hisoblash kerak bo'ladi. Ushbu perimetрni R_1 deb belgilaymiz va rasmdan ko'rinish turibdiki u R dan 8 ta a_2 bo'lakka katta, bundan

$$R_1 = R + 8a_2$$


Suvoq ishlari maydonini aniqlash uchun tashqi devorlarning ichki yuzalari bo'yicha perimetрini hisoblash kerak. Ushbu perimetрni R_2 deb belgilaymiz. Yuqorida rasmdan ko'rinish turibdiki, R_2 perimetr R dan 8 ta a_1 bo'lakka kichik, bundan

$$R_2 = R - 8a_1$$

Tom navesi va devoriy tarnovlar uzunligi aniqlash talab etiladi. Ushbu uzunlikni R_4 bilan belgilaymiz.

3.2.rasmdan ko'rinish turibdiki R_4 R dan 8 ta a_4 bo'lakka katta, bundan

$$R_4 = R + 8a_4$$



3.2. Tom navesi bo'yicha qirqim.

Har qanday tashqi devorlar o'qi chegarasidan chiquvchi eki uning chegarasidagi yuza perimetрini qo'shimcha hisoblashlarsiz bitta formula orqali aniqlash mumkin. Formula uchun doimiy kattalik R va R chizig'idan aniqlanaётган perimetrgacha bo'lgan, chizmadan olingan masofadan foydalilanadi. Ushbu masofa formulada 8 ga faqatgina binoning to'rt burchagida emas, balki boshqa xar qaydan miqdorda ham ko'paytiriladi, chunki xar bir ikkita qo'shimcha burchaklar orasidagi masofa hamma parallel peremitrлarda bir xil.

Xuddi shu metod bo'yicha sodda formulalar orqali kotlovan yuzasi, turpoq chiqarish va qayta to'ldirish xajmi, tom va tomëpma maydoni, ichki yuzalar pardozi maydoni kabi o'lchamlarni ham aniqlash mumkin. Hisoblanaётган binoning tashqi ko'rinishi qanchalik murakkab bo'lsa ushbu formulalardan foydalanish samarasi shuncha yuqqori bo'ladi.

Birlamchi kattalik - tashqi devorlar o'qi bo'yicha qurilish maydonini S harfi bilan belgilaymiz. Tomning gorizontal preksiyasi S_4 maydonini aniqlash talab etiladi. S_4 Sdan uzunligi o'q bo'yicha perimetri Rga va eni tom navesidan a_4 o'qgacha masofaga teng bo'lgan tasmaga katta, bundan,

$$C_4 = C + P \times a_4$$

Lekin tomning burchaklarida olingan tasmaning maydoniga kirmagan, R perimetri chegarasidan tashqaridagi 4 ta $a_4 \times a_4$ kvadratlar bor. Ushbu kvadratlarni qo'shamiz va quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$C_4 = C + (P + 4a_4)a_4$$


Tom ёпма maydoni S_5 quyidagiga teng bo'ladi

$$C_5 = C_4 * K_y,$$

Bu yerda, K_y - nishablik koeffitsiyenta va ushbu formula orqali aniqlanadi,

$$K_y = \frac{\sqrt{a^2 + b^2}}{a}$$

a va b belgilari rasmda keltirilgan:



3.3. Tom nishabi sxemasi

Namuna sifatida yuqorida keltirilgan formulalar orqali 5 qavatlik binoning ba'zi ishlari xajmini hisoblaymiz. (3.4 rasm)

1) o'qlar bo'yicha tashqi devor perimetri:

$$P = (37,2 + 12,8) \times 2 = 100 \text{ m}$$

2) ushbu devorlarning ichki yuza bo'yicha perimetri:

$$P_2 = P - 8a_1 = 100 - 8 \times 0,2 = 98,4 \text{ m}$$

3) tashqi devor o'qi bo'yicha besh karra qurilish maydoni:

$$C = 37,2 \times 12,8 = 476,16 \text{ m}^2$$

4) ichki devorlar uzunligi $L=78,8 \text{ m}$, shu jumladan:

- kanalnih

$$L_3 = 6,0 \times 3 = 18,0 \text{ m}$$

- zina kataklari


$$L_2 = 6,0 \times 4 = 24,0 \text{ m}$$

- o'rta devorlar

$$L_1 = 35,8 \text{ m}$$

5) plandagi devorlar maydoni:

$$T = 18,0 \times 0,40 + 60,8 \times 0,38 = 30,3 \text{ m}^2$$



3.4 Namunaviy plan qavati

6) ërug'likdagi zina kataklari maydoni:

$$A_L = 6,0 \times 2,8 \times 2 = 33,6 \text{ m}^2$$

Bir marotaba R va S birlamchi kattaliklarini ketma ket aniqlangan natijalardan foydalanilgan holda hisoblab topilsa, qo'shimcha hisoblarsiz, sodda formulalar erdamida, yetarli aniqlikda bir qator ishlar va konstruksiyalar xajmlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Bino tuzilishi murakkablashgani sari uning xajmi ham ortib boradi va formuladan foydalanish natijasi effektivligi oshadi.

4-amaliy: Eng maqbul va eng samarali foydalanish tahlili

Ob'ektning joriy narxlardagi boshlang'ich bahosi amaldagi "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida" Vaqtinchalik Nizomga, hamda ShNK 4.01.16-09ga muvofiq buyurtmachilar yoki ularning topshirig'iga ko'ra loyiha yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan proqnoz joriy narxlar va resurslar tariflari uchun xarajatlar kalkulyatsiyasiga asoslangan resurs metodi yordamida hisoblanadi.

Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash maqsadiga ko'ra 3 usulda aniqlanadi:

1. Buyurtmachi tomonidan qurilishning boshlang'ich bahosini joriy narxda aniqlash.
2. Pudratchi tashkilotlarining (taklif etilgan narx) tanlov savdosida qatnashish uchun, qurilish bahosini joriy narxda aniqlash.
3. Pudratchi tashkilotlarni tanlov savdosi o'tkazmasdan qurilish bahosini joriy narxda aniqlash.

"Resurs usuli"ni qo'llashda fizik ko'rsatkichlardagi:

- asbob-uskunalar nomlari va miqdori;
- normativ mehnat sarfi;
- mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari;
- qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalar nomlari va miqdori;
- boshqa xarajatlar va sarflar aniqlanadi.

"Resurs usuli" bo'yicha ob'ektning joriy narxlardagi qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = (S_o + S_m + S_{zp} + S_{em} + S_{p_p} + S_{p_z} + S_r) \times KR,$$

Bunda:

S_o - asbob-uskunalarga, mebel va inventarga xarajatlar;

S_m - qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalarga xarajatlar;

S_{zp} - ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar hisobga olingan holda asosiy ish haqiga xarajatlar;

S_{em} - mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari;

S_{p_p} - boshqa xarajatlar va pudratchining xarajatlari;

S_{p_z} - boshqa xarajatlar va buyurtmachining xarajatlari;

S_r - ob'ektlar qurilishini sug'urta qilish xarajatlari;

KR - navbatdagi yilda qurilishda narx o'sishining prognozlashtirilayotgan indeksidan kelib chiqib aniqlanadigan tavakkalchilik koeffitsiyenti.

Qurilish materiallari, mahsulotlari, konstruksiyalari, uskunalar, mebel va inventar uchun sarflanadigan xarajatlar transport, tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari va import materiallar, uskuna, mebel va inventar uchun qonunchilikda belgilangan bojxona to'lovlarini qo'shib hisoblangan ishlab chiqaruvchi (etkazib beruvchi) korxonalarining narxlari qo'llanilib loyiha spetsifikatsiyalariga muvofiq tarzda tuzilgan resurs ro'yxatlarga asoslanib yoki mazkur hududda shakllangan narxlар monitoringi asosida tuziladigan ma'lumotlar banki bo'yicha aniqlanadi.

Turli qurilish materiallari, mahsulotlari, konstruksiyalari, uskunalar, mebel va inventarning o'rtacha narxi ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxi, qurilish materiallari birja va yarmarkalaridagi narxlari, qurilish materiallarini yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlari, O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasi tomonidan chop etiladigan qurilish materiallari uchun joriy narxlар katalogida keltirilgan narxlар asosida aniqlanishi mumkin.

Ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar ob'ekt qurilishining normativ mehnat sarfini 1 kishi-soat ko'rsatkichining joriy narxiga (so'm) va ijtimoiy

sug‘urtaga ajratiladigan to‘lovlarni hisobga oluvchi koeffitsiyentga ko‘paytirish yo‘li bilan quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\mathbf{Szp} = \mathbf{T} \times \mathbf{Sch} \times \mathbf{Kss}$$

bu yerda:

T – ob’ekt qurilishining normativ mehnat sarfi, resurs smetasi bo‘yicha aniqlanadi, kishi-soat;

Sch – ishchilarning bir soat uchun o‘rtacha ish haqi, ob’ektning dastlabki bahosini aniqlashda, mintqa bo‘yicha quruvchilarning o‘rtacha oylik ish haqining miqdori asosida hisoblanadi;

Kss – ijtimoiy sug‘urtaga ajratiladigan to‘lovlar miqdorini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Bir soat uchun o‘rtacha ish haqi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\mathbf{Sch} = \mathbf{Zms} : \mathbf{F}$$

bu yerda:

Zms – avvalgi 12 oy uchun statistika ma’lumotlari asosida aniqlangan quruvchilarning mintqa bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, so‘m/oy;

F – O’zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma’lumotlari bo‘yicha ishchi vaqtining soatda berilgan o‘rtacha oylik fondi.

Ob’ekt qurilishining dastlabki narxini aniqlashda mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasi uchun joriy narxlarda sarflanadigan xarajatlar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\mathbf{Sem} = \mathbf{Em} \times \mathbf{Spr},$$

bu yerda:

Em – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining soatlarda berilgan hajmi;

Spr – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasining soat/so‘m dagi joriy narxlari.

Vaqtinchalik bino va inshootlarga sarflangan xarajatlar, qishki mavsumdagi narxlarning o‘sishi ShNQ 4.09-06 “Vaqtinchalik binolar va inshootlarning smeta xarajatlari normalari” va ShNQ 4.07-06 “Qish paytida bajariladigan qurilish-montaj ishlari sarfiga qo‘sishimcha smeta normalari to‘plami” asosida aniqlanadi.

Ob’ektning dastlabki bahosini belgilashda boshqa xarajatlarning narxini quyidagi formula bo‘yicha qurilish-montaj ishlarining narxiga nisbatan foizlarda qabul qilish tavsiya qilinadi:

$$Pp = (Sm + Szp + Sem + Sp) \times U,$$

bu yerda:

Sm – qurilish materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari uchun sarflangan xarajatlar;

Szp – ijtimoiy sug‘urta uchun to‘lovlar bilan birga hisoblangan asosiy ish haqi uchun sarflangan xarajatlar;

Sem – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasi uchun sarflangan xarajatlar;

Sp – ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar;

U – pudratchi “boshqa xarajatlari”ning qurilish-montaj ishlarining narxiga nisbatan solishtirma ko‘rsatkichi.

Ob’ektning dastlabki bahosini aniqlashda mintaqa va faoliyat turlari bo‘yicha boshqa xarajatlarning solishtirma ko‘rsatkichi pudratchi tashkilotlarining “5-S Shakl” bo‘yicha tuziladigan hisobotlari asosida O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar, mahsulotlar va xizmatlar uchun sarflangan xarajatlarning asosiy ko‘rsatkichlari” statistika byulleteni bo‘yicha qabul qilinishi mumkin.

Ob’ektning dastlabki narxi aniqlanishida qurilishni sug‘urtalash uchun sarflanadigan xarajatlar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.12.1999y. 532-sonli “davlat mablag‘lari va davlat tomonidan kafolatlangan

kreditlar hisobiga qurilayotgan ob'ektlar qurilishga oid tavakkallarini majburiy sug'urtalash to'g'risida" qaroriga muvofiq aniqlanadi.

Majburiy sug'urtalash bo'yicha oxirigi tariflar sug'urta summasining 0,4% ni tashkil qiladi (ob'ektning to'liq narxidan 80%)

$$Sr = (So + Sm + Szp + Sem + Sp + Pp) \times 0,8 \times 0,4\%,$$

bu yerda:

So – transport va tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari bilan birga hisoblangan uskuna, mebel va inventar uchun sarflanadigan xarajatlar;

Sm - transport va tayyorlash-omborda saqlash xarajatlari bilan birga hisoblangan qurilish materiallari, mahsulotlari va konstruksiyalari uchun sarflanadigan xarajatlar;

Szp – ijtimoiy sug'urta to'lovlari bilan birga hisoblanadigan asosiy ish haqi uchun sarflanadigan xarajatlar;

Sem – mashina va mexanizmlar ekspluatatsiyasiga sarflanadigan xarajatlar (mashinistlarning ish haqlari bilan birga hisoblanadi);

Sp – ishlab chiqarishga oid boshqa xarajatlar;

Pp – pudratchining boshqa xarajatlari.

Tavakkalchilik koeffitsiyenti navbatdagi yilda qurilishdagi narxlar o'sishini prognozlash indeksidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tavakkalchilik koeffitsiyenti har bir alohida ob'ekt qurilishining bahosini shakllantiruvchi komponentlar narxlarining o'sishini prognozlashtirilgan indeksidan kelib chiqqan holda hisoblanib aniqlanadi.

6.2.Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilotlari tomonidan qurilish bahosini joriy narxlarda aniqlash

Tanlov savdolarida qatnashishi uchun pudratchi tashkilot tomonidan ob'ekt qurilishining joriy narxlardagi bahosini (kelgusida – taklif etilgan narx) aniqlash bo'yicha asosiy prinsiplar va xususiyatlari keltirilgan.

Taklif etilgan narx (oferta) – bu tanlov savdosi shartlariga muvofiq tarzda talabgor (pudratchi) tomonidan bajariladigan ishlar (xizmatlar)ning narxi. Taklif etilgan narx tanlov hujjatlari (resurs smeta) asosida, joriy narxlarda, tanlov shartlariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Joriy narxlardagi taklif etilgan narxlarni talabgorning o'zi mustaqil yoki uning buyurtmasiga ko'ra quyidagi tashkilotlar hisoblashi mumkin:

- loyiha instituti;
- ixtisoslashgan injiring yoki konsalting kompaniyalar, O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi.

Ixtisoslashgan injiring yoki konsalting kompaniyalar, O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan hisoblangan ob'ekt qurilishining narxi tavsiya tariqasida bo'ladi.

Tanlov savdolarida qatnashish uchun taklif etilgan narx sifatida tavsiya qilingan narxlarni qabul qilish to'g'risidagi qarorni pudratchi (talabgor) qabul qiladi.

Talabgor tomonidan joriy narxlarda "resurs usuli"da taklif etilgan narx 4-bobning 4.5. moddasida keltirilgan formula yordamida aniqlanadi.

Taklif etilgan narxni hisoblash jarayoni quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Qurilish materiallari (mahsulotlar, konstruksiyalar, uskunalar, mebel va inventar) joriy narxlari transport xarajatlari, tayyorlash-omborda saqlash, bojxona to'lovlar va sotib olish va ob'ektga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar bilan birga qo'shib hisoblangan ishlab chiqaruvchilar (import qiluvchilar)ning narxlaridan tashkil topgan mintaqaviy bozorda shakllangan narxlar asosida talabgor tomonidan belgilanadi.

“Foydalanishga tayyor holdagi ob’ekt” qurilishida uskuna, mebel va inventar uchun taklif etilayotgan narxlar tarkibiga ularni sotib olish, yetkazib berish, saqlash, montaj qilish, sozlanishi uchun sarflangan xarajatlar hamda nafaqa, yo’l va maktab ta’limi fondlariga o’tkaziladigan to‘lovlar ham kiritiladi.

Talabgorlar material resurslarning narxlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bevosita qurilish materiallarni yetkazib beruvchi tashkilotlardan, shuningdek qurilish materiallarining birja va yarmarkalarining byulletenlaridan, Davarxitektqurilish qo‘mitasining kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish markazi tomonidan chop etiluvchi kataloglardan olishlari mumkin.

Transport xarajatlarini O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining 06.05.2004y. 31-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish uchun yuklarni tashishning joriy narxlarini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Tayyorlash-omborda saqlash xarajatlarini pudrat tashkilotining sarflagan xarajatlari asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Ish haqi bo‘yicha xarajatlarni aniqlashda, talabgor (pudratchi) tomonidan kishi/soat bo‘yicha narx avvalgi 12 oy davomida o‘rtacha oylik ish haqining shakllangan miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Pudratchi taklif etgan narxni hisoblashda qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda mash/soat joriy narxini O’zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo‘mitasining 06.05.2004 y. 31-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Qurilish mashinalari va mexanizmlaridan foydalanishda hisoblangan joriy narxlarni aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” asosida aniqlash tavsiya etiladi.

Pudratchining “boshqa xarajatlari”ning miqdori (darajasi)ni aniqlash muvofiq muddat (avvalgi 12 (o’n ikki) oy) uchun qabul qilingan ko‘rsatkichlar

bazisi asosida pudrat tashkilotining amaldagi balans ko'rsatkichlariga asoslangan moliyaviy natijalari 2-shakl bo'yicha, korxona xarajatlari 5-S shakl bo'yicha, mehnat xarajatlari 1-T shakl bo'yicha, hisobot 1-MB (mikrofirma va kichik korxonalar uchun) bo'yicha va hisobot ko'rsatkichlarining tahlili asosida quyidagi formulalar yordamida amalga oshiriladi pudratchining "boshqa xarajatlari" % dagi darajasi:

$$U = (Pp/Spr) \times 100$$

bu yerda:

U – pudratchining boshqa xarajatlarining muvofiq bazis davr davomida qurilish, montaj, ta'mirlash, ishga tushirish-sozlash ishlarining ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan foizda berilgan darajasi (kattaligi), bunda "foydalanishga tayyor holdagi" ob'ektlar narxini aniqlashda hisobga olingan pudratchi tomonidan sotib olingan va montaj qilingan uskunalarning narxi chiqarib tashlanadi.

Pp – muvofiq bazis davr uchun qabul qilingan pudratchining boshqa xarajatlari (narx ko'rsatkichi), xarajatlar ro'yxati va O'zbekiston Respublikasi Davarxitektqurilish qo'mitasining 28.12.2007y. 129-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ob'ektlar qurilishini shartnomaviy joriy narxlardagi bahosini hisoblashda buyurtmachi va pudratchining "boshqa xarajatlari"ni aniqlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar"ning №1, №2 va №3 ilovalarida keltirilgan tartibga asoslangan holda hisoblanadi.

Spr – muvofiq bazis davr davomida bajarilgan qurilish, montaj, ta'mirlash, ishga tushirish ishlarining ishlab chiqarish tannarxi, bunda bunda "foydalanishga tayyor holdagi" ob'ektlar narxini aniqlashda hisobga olingan pudratchi tomonidan sotib olingan va montaj qilingan uskunalarning narxi chiqarib tashlanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xarajatlarda hisobga olinmagan ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган boshqa xarajatlar pudratchining amaldagi xarajatlari va QTL ko'rsatkichlariga (muvaqqat bino va inshootlar, qishki mavsumda narxlarning o'sishi, ishchilarni tashish, qurilishning vaxta usuli va sh.k) mos ravishda aniqlanadi.

Pudratchi (talabgor) taklif etilgan narxdagi “boshqa xarajatlar” tarkibida taklif etilgan ishlarni bajarish evaziga olinadigan iqtisodiy asoslangan foydani ham hisobga oladi.

V. KYESLAR BANKI

Keys №1: Bino va inshootlar ishonchliligi.

Umrboqiylik, xizmat muddat, qoldiq xizmat muddati, konstruksiyalarning ishdan chiqmaslik ehtimoli.

I. Pedagogik annotatsiya.

Modul nomi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”.

Mavzu: Modul maqsadi va vazifalari. Ishonchlilik, umrboqiylik, xizmat muddati turlari.

Berilgan case study maqsadi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”ga umumiy tavsif beradi, Tinglovchilarga baho berish mezonlari tushuntiriladi, guruhchalar tashkil qiladi, keys stadining individual bosqichida bajarish uchun mavzu beriladi. Tinglovchilarga keys daftarchalari tarqatadiladi. Mavjud adabiyot bilan tanishtiriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu mavzuni o‘rganish jarayoni orqali “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” modulining asosiy vazifalari, yutuqlari, boshqa modullar bilan bog‘lanish darajalari, jamiyatdagi ahamiyati hamda bugungi O‘zbekistandagi taraqqiyot darajalari haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Sase study-ni muvaffaqiyatli bajarish uchun Tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

Tinglovchi bilishi kerak:

Bino va inshootlarni texnik baholashda ishonchlilik nazariyasni, umrboqiylik, xizmat muddati turlari.

Tinglovchi amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi, muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chaqaradi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, tanqidiy xulosa chiqaradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Sase study-ning ob’ekti: ishonchlilik nazariyasida umrboqiylik parametri, xizmat muddati turlari.

Sase study-da ishlatalgan ma’lumotlar manbai:

“Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” moduli bo‘yicha adabiyotlar.

Sase study-ning tipologik xususiyatlarga ko‘ra xarakteristikasi:

Sase study kabinetli toifaga kirib syujetsiz hisoblanadi, sase study ma’lumotlarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, hamda tahlil qilishga qaratilgan.

Muammolar: Bino va inshootlarni texnik holatini baholashda ishonchlilik nazariyasining o‘rni. Respublikamizda joriy etilgan me’yoriy ta’minotning ilg‘or horijiy mamlaktarda bu sohadagi foydalaniladigan tizimlari ?

Bino va inshootlar texnik holatini baholashda ishonchlilik nazariyasining ko‘rsatkichlari- ishdan chiqmaslik ehtimoli; umrboqiylik; ta’mirtalablik; saqlanuvchanlik.

Bizda SOVYeT ITTIFOQI davrida bunday modul o‘qilganmi ?
Mustaqil O’zbekistonda ushbu yo‘nalishda dastlab qanday modul o‘qilgan ?
Undan keyin bakalavr va magistrlarga o‘qilgan modulning nomi ?
Konstruksiyalarni hisoblashda deterministik yondoshuvning tavsifi ?
Konstruksiyalarni hisoblashda ehtimoliy yondoshuvning tavsifi ?
Konstruksiyalarni hisoblashda qaysi yondoshuv asos bo‘ladi (deterministik yoki ehtimoliy) ?
Bugungi kunda yevropada qabul qilingan “EVROCOD” tizimi nimani nazarda tutadi?
Respublikamizda “EVROCOD” tizimiga o‘tish qanchalik o‘rinli ?

Keys №2: Bino va inshootlarni texnik holatini baholashda yemirilish nazariyasi haqida

I. Pedagogik annotatsiya.

Modul nomi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”.

Mavzu: Bino va inshootlarni texnik holatini baholashda yemirilish nazariyasi haqida

Berilgan case study maqsadi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”ga umumiy tavsif beradi, Tinglovchilarga baho berish mezonlari tushuntiriladi, guruhchalar tashkil qiladi, keys stadining individual bosqichida bajarish uchun mavzu beriladi. Tinglovchilarga keys daftarchalari tarqatiladi. Mavjud adabiyot bilan tanishtiriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu mavzuni o‘rganish jarayoni orqali “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” modulining asosiy vazifalari, yutuqlari, boshqa modullar bilan bog‘lanish darajalari, jamiyatdagi ahamiyati hamda bugungi O’zbekistonidagi taraqqiyot darajalari haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar.

Sase study-ni muvaffaqiyatli bajarish uchun Tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

Tinglovchi bilishi kerak:

Bino va inshootlarni texnik holatini baholashda yemirilish nazariyasi haqida boshlang‘ich ma’lumotlar haqida.

Tinglovchi amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi, muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chaqaradi,

ma'lumotlarni taqqoslaydi, tanqidiy xulosa chiqaradi, tahlil qiladi va umumlashtiradi.

Sase study-ning ob'ekti: Bino va inshootlarning yemirilishi-eskirish nazariyasi.

Sase study-da ishlatalgan ma'lumotlar manbai:

“Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” moduli bo'yicha adabiyotlar.

Sase study-ning tipologik xususiyatlarga ko'ra xarakteristikasi:

Sase study kabinetli toifaga kirib syujetsiz xisoblanadi, sase study ma'lumotlarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, hamda tahlil qilishga qaratilgan.

Muammolar: Bino va inshootlarning yemirilish turlari. Jismoniy yemirilish. Uning kelib chiqishi bo'yicha turlari. qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan jismoniy yemirilish? Jismoniy yemirilish darajasini aniqlash ahamiyati ?

Tabiiy va mexanik tarzda yemirilish. Ularning o'zaro farqlari.

Konstruksiyalarning yemirilishga moil qismlari bo'ladimi?

Konstruksiyalarning yemirilishiga sabab bo'luvchi hududiy omillar.

Bazaviy yemirilish nima, bunday yemirilish qayta tiklanadimi?

Konstruksiyalarning yemirilishiga hududiy omillarning ta'sirini o'rghanish ?

Hududiy omillarning klassifikatsiyasi ?

Konstruksiyalarning yemirilishi ma'lum bir qonuniyatga buysunadimi?

Yemirilish grafigini tushuntirish orqali uning eskirish tabiatini o'rghanish ?

Sizingcha bino va inshootlarning barvaqt ishdan chiqishiga ko'proq qanday omillar ta'sir qiladi?

Yemirilish intensivligi nima, u qanday qonuniyatga buysunadi?

Bino va inshootlarning qoldiq xizmat muddatini prognoz qilish mumkinmi ?

Keys №3: Bino va inshootlarni texnik holatini baholash haqida

I. Pedagogik annotatsiya.

Modul nomi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”.

Mavzu: Bino va inshootlarni texnik holatini baholash haqida

Berilgan case study maqsadi: “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash”ga umumiy tavsif beradi, Tinglovchilarga baho berish mezonlari tushuntiriladi, guruhchalar tashkil qiladi, keys stadining individual bosqichida bajarish uchun mavzu beriladi. Tinglovchilarga keys daftarchalari tarqatiladi. Mavjud adabiyot bilan tanishtiriladi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar ushbu mavzuni o'rghanish jarayoni orqali “Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” modulining asosiy vazifalari, yutuqlari, boshqa modullar bilan bog'lanish darajalari, jamiyatdagi ahamiyati hamda bugungi O'zbekistondagi taraqqiyot darajalari haqida tushunchalarga ega bo'ladilar.

Sase study-ni muvaffaqiyatli bajarish uchun Tinglovchi quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim:

Tinglovchi bilishi kerak:

Bino va inshootlarni texnik holatini baholash bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumotlar haqida.

Tinglovchi amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi, muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi, o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi, ma’lumotlarni taqqoslaydi, tanqidiy xulosa chiqaradi, taxlil qiladi va umumlashtiradi.

Sase study-ning ob’ekti: Bino va inshootlarning texnik holati.

Sase study-da ishlatilgan ma’lumotlar manbai:

“Bino va inshootlarni texnik holatini baholash” moduli bo‘yicha adabiyotlar.

Sase study-ning tipologik xususiyatlarga ko‘ra xarakteristikasi:

Sase study kabinetli toifaga kirib syujetsiz xisoblanadi, sase study ma’lumotlarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, hamda tahlil qilishga qaratilgan.

Muammolar: Bino va inshootlarning texnik holatini baholash. Baholash maqsadlari. Konstruksiyalaridagi yemirilish, shikastlanish, defekt, deformatsiya va boshqa o‘zgarishlar. Uning kelib chiqishi bo‘yicha turlari. ularni aniqlash. Texnik diagnostika. Texnik diagnostikada buzuvchi va buzmaydigan us ullardan foydalanish.

Bino va inshootlarning texnik holatini aniqlashning ahamiyati ?

Bino konstruksiyalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash qanday amalga oshiriladi ?

Defektoskopiya nima ?

Bino va inshootlarning texnik holatini aniqlashning zamonaviy usullari deganda nimalar nazarda tutiladi ?

Konstruksiyalarning yemirilishga moil qismlari bo‘ladimi ?

Konstruksiyalarning yemirilishiga sabab bo‘luvchi hududiy omillar.

Bazaviy yemirilish nima, bunday yemirilish qanday aniqlanadi ?

Konstruksiyalarning yemirilishiga hududiy omillarning ta’sirini o‘rganish ?

Loyihaviy hisoblash sxemasining haqiqiy sxemadan farqi nimada ?

Konstruksiyalarning yemirilishi ma’lum bir qonuniyatga buysunadimi?

Sizningcha bino va inshootlar konstruksiyalarining muddatidan oldin ishdan chiqishiga ko‘proq qanday omillar ta’sir qiladi?

Yemirilish jadalligi nima, u qandaydir qonuniyatga buysunadimi ?

Bino va inshootlarning umrboqiyligini proqnoz qilish mumkinmi ?

VI. GLOSSARY

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Adgeziya	Adhesion	Adgeziya	Ikkita tarkibli jismning molekulyar darajada bir biriga yopishishi.
Avariya holati	Alarm status	Avariynoye sostoyaniye	Ob’ekt konstruksiyalarini buzilish darajasi, ularning yuk ko‘tara olmasligi mumkinligi haqida guvohlik beruvchi holati.
Bino (inshoot)larning ishonchhliligi	The reliability of buildings (structures)	Nadejnosc zdaniy (soorujeniy)	Ob’ekt o‘zining asosiy xarakteristikalarini belgilangan chegarada va ma’lum bir shart-sharoitda berilgan funksiyalarni bajarish qobiliyatining majmuuy tarkibi
Bino (inshoot)larning umrboqiyligi	The durability of buildings (structures)	Dolgovechnost zdaniy (soorujeniy)	Ob’ektlarning ma’lum ekspluatatsiya jarayonida, belgilangan muddatga mos ravishda xizmat ko’rsatish va ta’mirlash ishlarini o’tkazishda ishga yaroqli holatini saqlab turishi.
Bino pasporti	Passport buildings	Pasport zdaniy	Bino (inshoot)ning butun xizmat davrida texnik va texnik-iqtisodiy ma’lumotlarini, uni texnik holatini butun xizmat davri davomida saqlash va ta’mirlash ishlarini olib borishni hisobga olib boradigan hujjat.
Bino (inshoot)ni inventarlashtirish	Inventory of buildings (structures)	Inventarizatsiya zdaniy (soorujeniy)	Obe’ktlarni davriy ravishda texnik holatini amalda tekshirish va konstruksiyaning mustahkamligini aniqlab, hisobga olish.
Bino (inshoot)ni pasportlashtirish	Certification of buildings (structures)	Pasportizatsiya zdaniy (soorujeniy)	Binolarning texnik va texnik-iqtisodiy ma’lumotlarini va ularni texnik holatini baholash va hisobga olish bo‘yicha bajariladigan ishlar.
Bino va	The warranty	Garantiyniy srok	Bu shunday muddatki, unda bosh

inshootlarning kafolatli muddati	period buildings	zdaniy i soorujeniy	pudratchi o'zi tomonidan qilingan barcha kamchilik va defektlarni o'z hisobidan bartaraf qilishi lozim. Bu muddat 2 yil bo'lib, muddat yangi binoni yoki kapital ta'mirlangan bino yoki inshootni foydalanishga topshirgan kundan boshlab hisoblanadi.
Bino (inshoot)ning deformatsiyasi	Deformation of the buildings (structures)	Deformatsii zdaniy (soorujeniy)	Bino yoki inshootning yuklar va ta'sirlar natijasida shakl va o'lchamlarining o'zgarishi hamda ustivorligining yo'qotishi (cho'kish, siljish, og'ish va h.k.).
Bino (inshoot) karkasi	Frame buildings (structures)	Karkas zdaniy (soorujeniy)	Bino yoki inshootning tashqi yuk va ta'sirlarni qabul qiluvchi hamda ularning mustahkamligi va bikirligini ta'minlovchi asosiy yuk ko'taruvchi vertikal va gorizontal sterjenlardan iborat tizim.
Bino (inshoot)ning ustivorligi	The stability of buildings (structures)	Ustoychivost zdaniy (soorujeniy)	Bino (inshoot)ning dastlabki statik yoki dinamik muvozanati holatidan chiqaruvchi kuchlarga qarshi tura olishi qobiliyatি.
Brandmauer	Firewall	Brandmauer	gluxaya protivopojarnaya stena zdaniya, vyipolnyayemaya iz nesgorayemykh materialov i prednaznachennaya dlya vosprepyatstvovaniya rasprostraneniyu ognya na sosedniye pomeşheniya ili na sosedniye zdaniya.
Defekt	Defect	Defekt	Konstruksiyani tayyorlash, transportirovka qilish va montaj bosqichida hamda ekspluatatsiya jarayonida ma'lum bir parametrlarga, me'yoriy yoki loyiha talablariga mos kelmaydigan nuqson.

Bikrlik	Rigidity	Jestkost	Konstruksiyaning deformatsiyalanishga qarshilik ko‘rsata olishini belgilovchi ko‘rsatgich.
Diagnostikaning maqsadi	The purpose of the diagnosis	Sel diagnostiki	Bino va inshootlarning texnik holatini baholash usul va vositalarini ishlab chiqishdan iborat
Zamin	Grounds	Osnovaniya	Bino va inshoot poydevorlari orqali tushayotgan yuklar ta’sirida deformatsiyalanuvchi grunt.
Zilzilabardoshlik	Seismic resistance	Seysmostoykost	Bino (inshoot)ning odamlarni, qurilish konstruksiyalarini va qimmatbaho jihozlarni xavfsizligini ta’minlagan holda ma’lum bir hisobiy kuch doirasida zilzila ta’siriga qarshi tura olish qobiliyati.
Zamin deformatsiyasi	Deformation of foundations	Deformatsiya osnovaniy	Bino (inshoot)ning zaminga beradigan ta’siridan paydo bo‘ladigan yoki ekspluatatsiya mobaynida gruntning fizik xossalaringin o‘zgarishi evaziga paydo bo‘ladigan deformatsiya.
Zamin ustivorligi	Stability bases	Ustoychivost osnovaniy	Zamin yoki inshootga qo‘yilgan kuchni so‘nmaydigan ko‘chishlar hosil qilmasdan tura olish qobiliyati.
Soz holat	Working condition	Ispravnoye sostoyaniye	Obe’ktning barcha me’yoriy-texnik va konstruktorlik hujjatlaridagi talablarga mos keladigan holati.
Ishga yaroqli holat	Usable state	Rabotosposobnoye sostoyaniye	Ob’ektning berilgan funksiyalarini bajarish jarayonida qayd qilingan barcha parametrlarining qiymati me’yoriy-texnik hujjatlarda talab kilinadigan qiymatiga mos keladigan xolati
Cheklangan ishga yaroqli holat	Limited usable state	Ogranichennoye rabotosposobnoye sostoyaniye	Ob’ekt konstruksiyalar xolatini, texnologik jarayon ko‘rsatkichlarini yoki boshqa ekspluatatsiya shartlarini nazorat

			qilishda maxsus (ekspluatatsiyaning ruxsat berilgan sharoitlarida) tadbirlar bajarishni talab qiladigan holati.
Ishga yaroqsiz holat	Nonoperable condition	Nerabotosposobnoye sostoyaniye	Berilgan funksiyalarni bajarish chog‘ida ob‘ektning ish qobiliyatini xarakterlovchi hech bo‘limganda bitta parametr qiyamatining me’yoriy- texnik va (yoki) konstrukturlik hujjatlarining belgilangan qiyamatiga mos kelmaydigan holati.
Kadastr	Cadastre	Kadastr	Bu tegishli ob‘ekt bo‘yicha muntazam yoki davriy ravishda yig‘ilgan ma’lumotlar to‘plami.
Kuchlar	Of force	Silbi	Tashqi yuk va ta’sirlar ostida konstruksiyaning ko‘ndalang kesim yuzalarida paydo bo‘ladigan ichki kuchlar (bo‘ylama va ko‘ndalang kuchlar, eguvchi va burovchi momentlar).
Kuchaytirish	Gain	Usileniya	Konstruksiyaning ko‘ndalang kesimi yoki uning ishlash sxemasini o‘zgartirish bilan uning mustahkamligi yoki bikirligini oshirish.
Konstruksiyaning texnik holatini baholash	Evaluation of technical state of constructions	Otsenka texnicheskogo sostoyaniya konstruksiy	baholash kuzatuv-tekshiruv natijalari bo‘yicha olib borilib, ular quyidagilardan iborat: konstruksiyani aniqlangan defekt va shikastlanishlar, materialning haqiqiy tarkibi bo‘yicha, haqiqiy va kutiladigan yuklar, ta’sirlar va ekspluatatsiya sharoitlaridan kelib chiqqan holda tekshiruv hisoboti hamda texnik xulosa tuzish.
Konstruksiyanini kuzatuv-tekshiruv	Survey design	Obsledovaniya konstruksii	Konstruksiyaning texnik holati haqida uning yuk ko‘tarishi qobiliyatini qayta tiklash,

			kuchaytirish yoki qayta qurish loyihalarini ishlab chiqish uchun ma'lumotlar yig'ish bo'yicha tadqiqot ishlari majmuasi.
Konstruksiya deformatsiyasi	Deformation structure	Deformatsiya konstruksii	Yuk va ta'sirlar ostida konstruksiya (yoki uning qismi) shakl va o'lchamlarining o'zgarishi.
Plastiklik	Plastic	Plastichnost	Qattiq jismlarning tashqi kuchlar ta'sirida buzilmasdan o'z shakl va o'lchamlarini o'zgartirishi, shu bilan birga kuchlar ta'siri olingandan so'ng qoldiq (plastik) deformatsiyaning saqlashi.
Ruxsat etilmagan chetlanish	Unacceptable deviations	Nedopustimaya otkloneniya	Konstruksiyaning normal ishlashiga halaqt beruvchi me'yoriy holatdan chetlanish yoki hisobiy sxemaga shunday o'zgartirish kiritadiki, bu o'zgarishni hisobga olish uchun konstruksiyani kuchaytirish talab qilinadi.
Sanoat korxonasining xavfsizligi	Security industry	Bezopasnost promyshlennix predpriyatii	Davriy kuzatuv va tekshiruv ishlarini olib borish bilan qurilish konstruksiyasining avariya holati mumkinligini bashorat qilishni ta'minlovchi tadbirlar tizimi.
Sanoat binosi	Manufacture building	Proizvodstvennoye zdaniye	Yuk ko'taruvchi va boshqa konstruksiyadan iborat, ishlab-chiqarish jarayonini joylashtirish uchun mo'ljallangan yopiq fazo hosil qiluvchi va odamlar mehnat qilishi hamda texnologik uskunalarning ishlashi uchun zaruriy sharoitlar bilan ta'minlangan bino.
Sanoat ob'ekti	Manufacturing premises	Proizvodstvennyy ob'ekt	Ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan korxona, sex, maxsus ish joyi va boshqa bo'linmalar.
Ta'sirlar	Impact	Vliyaniya	Konstruksiya elementlaridagi ichki kuchlarni o'zgarishiga olib keluvchi omillar (zaminning

			notekis cho‘kishidan, tog‘li hududlarda yer sirtining deformatsiyalanishi, harorat-namlik o‘zgarishi ta’siridan, konstruksiya ashyosining hajmiy torayishidan, zilzila, portlash va h.k.).
Texnik diagnostika	Technical diagnostics	Texnicheskiye diagnostiki	Konstruksiyaning ishdan chiqishi va shikastlanishi sabablarini aniqlash va baholash usullarini ishlab chiquvchi soha.
Texnik holatni nazorati	Control of technical condition	Kontrol texnicheskoye sostoyaniye	Ekspluatatsiya mobaynida konstruksiyani ishlash qobiliyatini saqlab turishi uchun uning texnik holatini nazorat qilish tizimi.
Inshoot	structure	Soorujeniye	Hajmiy, tekis, yuk ko‘taruvchi va boshqa konstruksiyalardan iborat bo‘lgan, turli xildagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish va h.k. uchun mo‘ljallangan yer ustidagi yoki ostidagi qurilish tizimi.
Ishonchlilik	Reliability	Nadejnost	Bino yoki inshootning hamda ularning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarining o‘z vazifalarini ekspluatatsiya mobaynida bajara olishi imkoniyati.
Ma’naviy yemirilish	Obsolescence	Moralnyi iznos	Bino (inshoot)larning baholash paytidagi me’yorlarning, me’moriy-konstruktiv, sanitargigiyenik va texnologik talablariga javob bera olmasligi.
Mo‘rtlik	Fragility	Xrupkost	Qattiq jismning mexanik ta’sirlar ostida sezilarli plastik deformatsiya (plastiklikka qarama-qarshi xususiyat) larsiz buzilishi xususiyati.

Mo‘rtlashish	Softening	razmyagcheniye	Metallning eskirishi, haroratning tushib ketishi yoki yuklanish holatining tezlashishi hisobiga konstruksiyada mo‘rtlik darajasining ortishi.
Mustahkamlik chegarasi	Strength limit	Predel prochnosti	Bu materialning mexanik xususiyati bo‘lib, u buzilish holatini keltirib chiqaruvchi yuk darajasiga mos keluvchi shartli kuchlanishni ifodalaydi.
Materialning charchashi	Fatigue material	Ustalost materiala	Uzoq muddatli yuklar ta’sirida, vaqt bo‘yicha davriy o‘zgaruvchi kuchlanish va deformatsiyalar ostida materialning mexanik va fizik xossalaringin o‘zgarishi.
Metallning eskirishi	Seasoning	Stareniye metalla	Normal sharoitda (tabiiy eskirish) yoki yuqori harorat ta’sirida (sun’iy eskirish) uning mustahkamligining o‘zgarishi va bir vaqtning o‘zida plastik va zarbiy yopishqoqligining kamayishi bilan bog‘liq metall tarkibining o‘zgarish holati.
Qurilish konstruksiyasi	Building construction	Stroitelnaya konstruksiya	Bino yoki inshootning yuk ko‘tarish, chegaralovchi yoki aralash (yuk ko‘tarish va chegaralash) vazifalarini bajaruvchi qismi.
Chetlanish (og‘ish)	Deviations	Otkloneniya	Istalgan texnik ko‘rsatkichining haqiqiy holatini me’yoriy, loyiha hujjatlari yoki texnik jarayonni ta’minalash bo‘yicha quyilgan talablardan farq qilish holati.
Uzoq muddat ta’sir qiluvchi me’yorlardan chetlanish	The deviation from The long-acting regulations	Otkloneniye ot dlitelno deystvuyushchix normativov	Mavjud bino va inshootlarda uchraydigan, eski me’yoriy talablar asosida loyihalangan, ta’mirlash jarayonida to‘g‘rilab bo‘lmaydigan chetlanish. Yangi ishlab chiqilgan me’yoriy talablar bunday bino va inshootlarga tadbiq etilmaydi, agarda ularning keyingi ekspluatatsiyasi yangi ma'lumotlar talablariga mos ravishda favqulorra holatlarni

			keltirib chiqarmasa.
Shikastlanish	Damage	Povrejdeniye	Konstruksiyalarning ekspluatatsiya mobaynida yuzaga keladigan sifati, shakli va haqiqiy o'lchamlarining me'yoriy hujjatlar va loyihaviy talablardan chetlanishi.
Chegaraviy holat	Limit state	Predelnoye sostoyaniye	Bino (inshoot)ni yuk ko'taruvchi elementlarining bundan keyin ularni o'z funksiyalarini bajarishi ruxsat etilmaydigan yoki maqsadga muvofiq emasligini belgilovchi holat (uning soz yoki ishchi holatini qayta tiklash imkoniyati yo'q yoki maqsadga muvofiq emas).
Chegaralovchi konstruksiya	Walling	Ograjdayushcha konstruksiya	Bino yoki inshootning ichki hajmini mustahkamlik, issiqlikdan, namlikdan, pardan, havo va shovqin o'tkazish va h.k. me'yoriy talablaridan kelib chiqqan holda, tashqi muhitdan yoki o'zaro himoyalash uchun mo'ljallangan qurilish konstruksiyasi.
Xizmat muddati	Life time	Srok slujby	Bino (inshoot)ning har xil tashqi omillar ta'siri ostida ekspluatatsiya qilishga yaramay qolgan holati yoki uning soz yoki ishchi holatining qayta tiklash esa iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmay qolgan holatga kelguncha o'tadigan davriy vaqt.
Qattiqliq	Hardness	Tverdost	Mahalliy kuchlar ta'sirida material sirtqi qatlamining plastik deformatsiyaga yoki mo'rtlik buzilishiga qarshilik ko'rsata olish holati.
Ekspluatatsion-	Operational and	Ekspluatatsionno-	Bino va inshootlar

texnik hujjatlar (ETH)	Technical Documents	texnicheskiy dokumentы	ekspluatatsiyasi bo'yicha nazorat xizmati foydalanadigan (ayrim hollarda ishlab chiqadigan) boshqaruv va ishchi hujjatlar majmuasi.
Yuk ko'taruvchi konstruksiya	Basic structure	Nesimcha ya konstruksiya	Bino yoki inshootning yuk va ta'sirlarni qabul qiluvchi, mustahkamligini, bikirligini va ustivorligini ta'minlovchi qurilish konstruksiyasi.
Yuk	Load	Nagruzka	U kuch bilan o'lchanib, uning yo'nalishi va kattaligi ta'sirida bino yoki inshootning konstruksiyalarini va zamanni kuchlanish-deformatsiyalanish holatlarini o'zgartiruvchi mexanik ta'sir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Frank W. Construction Budgeting. Copyrighted and published by Canadian institute of Quantity Surveyors. Institut Canadiev des economists en construction. Released: Janyoty 01, 1998. ISBN-10: 1896606261
2. Xiaolin Chen. Finite Element Modeling and Simulation With Ansys Workbench. Publisher: Crc Pr I Llc. Released: March 26, 2014. ISBN-13: 978-1439873847.
3. Muravleva I. «Universalnyiy spravochnik smetchika» 2017 god
4. Sinyavskiy I. A. Proyektno-smetnoye delo : ucheb. dlya studentov sred. prof. obrazovaniya / I. A. Sinyanskiy, N. I. Maneshina. - 4-e izd., ster. - M. : Akademiya, 2014. - 448 s.
5. Ardzinov V.D. i dr. Smetnoye delo v stroitelstve. Samouchitel. 2009 god.
6. Ye.N.Popova. Proyektno-smetnoye delo: uchebnoye posobiye. – Rostov p/D: Feniks, 2005-287s.
7. Stepanov P. S. “Ekonomika stroitelstva” M., “Yurayt”, 2005.
8. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Xaitov E.B. Senoobrazovaniye v stroitelstve. TASI. DP «AQIIM», T.: 2012g.-188s.
9. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Haitov E.B. Qurilishda tanlov savdolari va uni tashkil etish. T.: TAQI, 2012.
10. Metyakubov A.D. Metodicheskiye ukazaniya k kursovoy rabote «Smetnoye delo v stroitelstve» dlya bakalavrov po napravleniyu 341100 – «Stoimostnyiy injiniring» T.: TASI 2020 g
11. “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2009.
12. “Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ xujjatlar tizimi” Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.01–04 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2004
13. Isakov M.Yu. Ekonomika kapitalnogo stroitelstvo. Uchebnoye posobiye. –T.: Izdatelstvo Literaturnogo fonda Soyusa pisateley Uzbekistana, 2004, - 128 s.

V. KYESLAR BANKI
Keys №1
Mavzu: Tanlash muomalasi

Tanlash zaruriyati muqobil qiymat omilini ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziq yordamida tasvirlash mumkin. Biz ko‘radigan misolda faqat ishlab chiqarilgan afsonaviy mamlakatni ko‘rib chiqamiz.

1. Mamlakatning butun aholisi faqat yog‘ tayyorlash bilan shug‘ullansa, yiliga 15000 tonna yog‘ ishlab chiqarilidi.
2. Barcha resurslar to‘l ishlab chiqarishga safarbar qilinsa, yiliga 15000 ta ko‘p taylorlanadi.
3. Tabiiyki ayni paytda to‘l ham, yog‘ ham ishlab chiqarilishi mumkin.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari jadvali

Variant	Yog‘ (tonna)	To‘l (dona)
1	15000	0
2	12000	3000

3	10000	5000
4	6000	9000
5	3000	12000
6	0	15000

Ijtimoiy-siyosiy muhitni e'tiborga olgan holda siz davlat hukmlariga qanday hajmda ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridan foydalanishni taklif etgan bo'lar edingiz.

Keys №2 **Mavzu:Qurilish tashkiloti faoliyati tahlili**

Ishlab chiqarishning zarur ishlataladiganlarini rejalashtirish boshqaruvning muhim qarori bo'ltb hisoblanadi.

U asosida qanday ishlab chiqarish rentabilligi va qanday xajmlarda foya ola boshlashi aniqlanadi.

Ma'lumki bu rejaga quydagи faktlar ta'sir ko'rsatadi:

- a) Korxonaning doimiy xarajatlari
- б) Maksimal daromad ulushi
- в) O'zgaruvchan xarajatlar qiymati
- г) Mahsulotni eksplutatsiyalash tekshirishdan tushgan tushun

Ba'zi ma'lumotlarga ishlab chiqarish xajmining kritish holatini rentabellik chegarasi deb atashadi.

Uni hisoblash korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Ishlab chiqarishning amaldagi xajmi bilan kirib xolat o‘rtasidagi farq qancha katta bo‘lsa tashkilotning “moliyaviymustaxkamligi” shunga yuqori bo‘ladi.

Shu holatga erishish uchun siz qanday xarakatlarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lar edingiz

Keys-3

Mavzu:Kapital qo‘yilmalarning samardorligi.

Ma’lumki har hil variantlar ham taqqoslanganda “ Bir vaqtga keltirilgan xarajatlar” (P) ko‘rsatkichlari inobatga olinadi.

Agar samaradorlik normativ koeffetsenti $Y_{en}=0,1$ ga teng bo‘lganda :

$$P_1=3,3 ; P_2=3,2 ; P_3=3,4 ; P_4=3,5$$

Agar samaradorlik normativ koeffitsiyenti $Y_{en}=0,2$ ga teng bo‘lganda:

$$P_1=3,8 ; P_2=4,4 ; P_3=5,6 ; P_4=6,1$$

Variantlar	“S”	“K”
1.	2,8	5
2 .	2,0	12
3 .	1,2	22
4 .	0,9	26

Sizning munosabatingiz!

Keys-4

Mavzu: Kelgusi qiymat birligi

Ma'lumki iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda sumning oltita funksiyasidan foydalanib fikr qiymatini aniqlash mumkin. So'mning kelgusi qiymatini aniqlash kerak. Bunda investor uchun bugungi sumning kelgusidagi qiymati muhim ahamiyatga ega. Bu qiymatni niqlashda mumkin bo'lgan daromad stavkasi muhim ro'l o'ynaydi.

1. Faraz qilaylik siz 400000 sumni o'n yil muddatda yiliga 12% stavka bilan deponentga qo'ydingiz.
2. Ayni shu mablag' shu stavka bilan har 6 oyda olinishi ko'zda tutilgan.

Har ikki holda investitsiya hajmi qanchaga o'zgaradi. Sizni qaysi bir holat ko'proq qoniqtiradi.

Keys-5

Mavzu: Bugungi qiymat birligi

Diskonkash funksiyasi agar kelgusidagi qiymat aniq bo'lsa uning bugungi qiymatini aniqlashga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida investor uchun qaror qabul qilishda ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Siz 4,0yoki o'qishiz uchun 28 mln sum to'lash kerak. Agar bank har yil teng ulushda invistitsiya kiritib tursa , protsent stavkasi 16% dan . O'qishni boshida bankga qancha mablag' qo'yishingiz kerak bo'ladi.

VI. GLOSSARY

Boshlang‘ich narx - buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo‘yicha jalg’ etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati.

Buyurtmachi - investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs.

Bozor - narxlari mexanizmi orqali haridorlar va sotuvchilarni uchrashtirishning iqtisodiy amali.

Bino (inshoot) pasporti - bino (inshoot) haqida texnik va texnik-iqtisodiy ma’lumotlarni, uning texnik holati va binoning butun xizmat qilish muddati davomidagi qurilish konstruksiyalarini saqlash va ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlarni hisobga olgan hujjat.

Bino (inshoot) ni pasportlashtirish - bino va inshoot haqidagi texnik va texnik-iqtisodiy ma’lumotlarni hisobga olish va ularning texnik holatini baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish.

Bozor narxi - kelishuvda to‘langan summa - bu tarixiy dalil. Bozor narxi - albatta yaxshi xabardor bo‘lmasada, bosimdan ozod bo‘lgan va mustaqil ish ko‘rgan haridor va sotuvchi o‘rtasidagi muzokaralar natijasida amalga oshirilgan kelishuv narxi.

Dastlabki narx - tanlov savdolari predmetining buyurtmachi yoki uning buyurtmasiga ko‘ra loyiha yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan belgilanuvchi narxi.

Daromad - moliyaviy va boshqa foydalar.

Deflyatsiya - narxlarning umumiy darajasining pasayishi.

Diskontlash - investitsiyalardan tushgan pul kirimlarini ularning joriy qiymatiga keltirish jarayoni.

Ish vaqtি fondi - O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma’lumotlari bo‘yicha ishchi vaqtining soatda berilgan o‘rtacha oylik fondi.

Iqtisodiy normativlar - qurilish bahosini aniqlash uchun resurs normativlarini ishlab chiqish va undan foydalanish qoidalarini o‘z ichiga oladigan «Iqtisodiy normativlar» ShNQ 4ning quyi tizimi bilan birgalikda normativlar resusrlarni smetali me’yorlash metodologiyasini xosil qiladi.

Investitsiyalar - daromadlar yoki foyda olish uchun pul mablag‘larini kiritish; daromadlar yoki foyda olish uchun harid qilingan mulk.

Investitsiyaning foydali ish koeffitsiyenti - investitsiyalar uchun daromadning ichki qo‘yilmasi.

Investitsiyani qaytarish yoki uning o‘rnini qoplash -sarmoyadorning boshlang‘ich investitsiyalar summasini olishini anglatadi. Bu summa aktivga egalik qilish davri ichida qiymatning yo‘qolishini aks ettiradi.

Inflyatsiya - odatda iste’mol narxlari ko‘rsatkichi bilan o‘lchanadigan valyutaning harid qilish qobiliyatining pasayishi.

Kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarini kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob'ektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash, shu jumladan loyiha-qidiruv ishlarini bajarish.

Kapitallashtirish - kelgusida kutilgan daromadlarni bir vaqtda mazkur pallada olinadigan qiymatga aylantirish.

Kapital o'rnini qoplash (qaytarish) ning to'g'ri chiziqli me'yorি - ko'chmas mulkda - aktivning hayot muddati davomida uning qiymati davriy tarzda bir tekisda, masalan, 50 yil davomida yiliga 2% ga pasayib borishi kutilgan holdagi kapitallashtirish koeffitsiyenti qismi. Bunda ularning ekspluatatsiyasiga yo'l qo'yib bo'lmaydi yoki maqsadga muvofiq emas (uning soz yoxud ishga yaroqlilik holatini tiklab bo'lmaydi yoki maqsadga muvofiq emas).

Kondominium (o'zaro egalik qilish) - mulkning huquqiy shakli bo'lib, unga ko'ra ob'ekt shaxsiy mulk va o'zaro mulkning tarkibiy qismlariga bo'linadi.

Kapitallashtirish koeffitsiyenti - daromadlar oqimini kapital qiymatning yagona yig'indisiga qaytadan hisoblashda foydalanimuvchi qo'yilma. Kapital qiymatning yagona summasi davriy daromadning kapitallashtirish koeffitsiyentiga nisbati kabi hisoblab chiqiladi. Ko'chmas mulk sohasida kapitallashtirish koeffitsiyenti foizni va ko'p hollarda - qaytarma investitsiyani o'z ichiga olishi kerak.

Kapital daromadi - pul mablag'lari kirimlari va qayta sotuvdan tushgan pul bilan aniqlanadigan boshlang'ich xususiy kapital daromadining ichki qo'yilmasi. Soliqlar to'langunga qadar va to'langanidan keyingi ikkita qo'yilma mavjuddir.

Loyiha-smeta hujjatlari - hajmiy-rejali, amaliy va texnikaviy yechimlarni, binolar, inshootlar va boshqa ob'ektlarning qurilishi, rekonstruksiyasi hamda kapital ta'mirlanishi, shuningdek obodonlashtirish ishlari qiymatini belgilaydi. Loyiha-smeta hujjatlari shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ishlab chiqiladi, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining tegishli tarkibiy bo'linmalari, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari, yong'inga qarshi nazorat xizmatlari, tabiatni muhofaza qilish organlari va boshqa xizmatlar bilan kelishib olinadi.

Narx - xususiy mulk ob'ekti uchun to'lanadigan summa. Odatda pulda ifodalanadigan istalgan summa.

Pul mablag'lari - respublikaning qonuniy to'lov mablag'larida ifodalangan pul summalarini yoki ularning talabga ko'ra to'lanishi kerak bo'lgan ekvivalenti. U absolyut likvid aktividir.

Pul ekvivalenti - joriy qiymatning pul summasiga keltirilgan, molivaviy shartlar qiymatini hamda mazkur ob'ektga taalluqli istalgan bepul xizmatlarni e'tiborga oluvchi mulk narxi.

Resurs usuli - usulini qo'llashda fizik ko'rsatkichlardi asbob-uskunalar nomlari va miqdori; normativ mehnat sarfi; mashina va mexanizmlardan foydalanish xarajatlari; qurilish materiallari, buyumlar va konstruksiyalar nomlari va miqdori; boshqa xarajatlar va sarflar aniqlanadi.

Resurs smeta normasi - deganda qurilish yoki montaj ishlari hamda konstruksiyalar uchun, odatda tabiiy (fizik) birliklarda yoki nisbiy shaklda (foiz, koeffitsiyent ko'rinishida) qabul qilingan ko'rsatkich uchun belgilangan resurslar majmuasi (ishchilar mehnat sarfi, qurilish mashinalarining ishslash vaqt, materiallar, mahsulotlar va konstruksiyalarga bo'lgan ehtiyoj) tushuniladi.

Raqobat tamoyili - baholash tamoyili bo'lib, unga ko'ra ishlab chiqarish omillarini to'lash uchun zarur bo'lgan daromaddan ko'ra foyda kattaroq bo'lgan hollarda tegishli bozordagi raqobat kuchayadi. Bu esa o'z navbatida o'rtacha sof daromadlarning pasayishiga olib keladi.

Reversiya omili - qayta sotishdan tushgan pulni baholash uchun foydalilanigan pul birligi joriy qiymatining omili.

Reinvestitsiyalar qo'yilmasi - foiz qo'yilmasi bo'lib, unga ko'ra daromad keltirayotgan mulkdan tushgan mablag'lar, aynan ularning mablag'ning qaytishini ta'minlaydigan qismi qayta investitsiyalanadi.

Tavakkal - beqarorlik yoki o'zgaruvchanlik; ko'chmas mulk sarmoyadori kutilgan daromadlarni olmasligi ehtimoli; shuningdek - zararlar ehtimoli.

To'g'ridan-to'g'ri umumi kapitallashtirish - daromadni kapitallashtirish usuli. Bu usulga ko'ra solishtiriluvchi ob'ektlar tahlili va bu ob'ektlardan kelgan daromadlarni ularning sotilish narxlari bilan qiyoslash natijasida olingan koeffitsiyent, sof muomala daromadiga bo'linadi.

Titul - ko'chmas mulk uchun qonuniy Huquqni tasdiqlovchi hujjat.

To'plangan yemirilish - baholashda - bu mulkning haqiqiy qiymati takror ishlab chiqarishning to'la qiymatidan kamroq bo'lib borishiga olib keluvchi istalgan foydalilikning yo'qolishi.

To'plangan foiz - kelib tushgan ammo to'lanmagan foiz (daromadlar).

Ulushli baholash - butun mulkdagi faqat bir tarkibiy qismni yoki huquqiy manfaatni baholash. Masalan, fazo bo'shlig'i, yer sathi va yer osti huquqlarini alohida baholash.

Umuman mulk uchun qoldiq texnikasi - daromadli yondoshuvning bir turi bo'lib, unga ko'ra bashorat qilingan daromadlarning joriy qiymatini va bashorat qilingan qayta sotishdan tushgan pulning joriy qiymatini bir-biriga qo'shish orqali mulkning joriy qiymati baholanadi.

Haridor bozori - haridorlar juda foydali shartlar va narxlarga erisha oladigan bozor. Odatda bunga umumiy iqtisodiy vaziyat yoki muvofiq mintaqada yerdan foydalanish takliflarining ko'pligi sabab bo'ladi.

Harajatli usul - asosida o'rindoshlik tamoyili yotadi. Unga ko'ra sarmoyador imorat uchun tegishli maydonni olish va vazifasi hamda sifatiga ko'ra turdosh ob'ektni ortiqcha uzluksiz qurilishiga ketadigan summadan ortiqroq mablag'ni ko'chmas mulk ob'ekti uchun to'lamaydi.

Xizmat (hayot) muddati usuli - to‘la qayta tiklash qiymatini ob’ektning haqiqiy yoshini uning foydali iqtisodiy hayotining uzoqligiga munosabatiga teng koeffitsiyentga ko‘paytirish orqali yig‘ilgan yemirilishni baholash usuli.

Xizmat muddati - taqvim vaqtি bo‘lib, bu vaqt davomida turli omillar ta’siri ostida bino (inshoot) dan kelgusida foydalanish mumkin bo‘lmay qoladi, qayta tiklash esa - iqtisodiy jihatdan foydasiz bo‘ladi.

Xususiy lashtirish - mulk shaklining o‘zgarishi, uning davlat mulkidan xususiy (shaxsiy, jamoa) mulkiga (ko‘chmas mulk, korxonalar, tashkilotlarga va x.k.) o‘tishi.

Har yilgi foiz qo‘yilmasi - kreditning har yilgi samarali qiymati.

Haqiqiy yalpi daromad - ijara to‘lovidan yetarli darajada foydalanmaganlikdan va ularning kiritilmaganligidan ko‘rilgan zararlar chiqarib tashlangandan keyingi daromad keltiruvchi mulkdan tushgan yalpi pul kirimlari.

O’suvchi va kamayuvchi daromadlar tamoyili - baholash tamoyili bo‘lib, unga muvofiq ishlab chiqarish omillarining qayd qilingan to‘plamiga zahiralar qo‘shilgani sayin sof daromadlar o‘suvchi sur’atlarda ma’lum nuqtaga yetib borguncha ko‘payadi. Bu nuqtadan o‘tilgandan so‘ng qiymatning o‘sishi qo‘shilayotgan zahiralarga ketgan harajatlardan kamroq bo‘limguncha umumiylar daromadlar pasayuvchi sur’atlarda o‘sishda davom etadi.

O'rindoshlik tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra eng past narx yoki teng foydali bo‘lgan boshqa mulkni sotib olishga ketgan harajatlar orqali mulkning maksimal qiymati aniqlanadi.

O’sib boruvchi annuitet - davriy to‘loving tartibli ko‘payishini va’da qiluvchi yoki talab etuvchi daromadlar oqimi.

O’rtacha ulushli qo‘yilma - turli sarmoyadorlarning sotib olingan mablag‘dagi ulushlarini va ularga muvofiq daromadning tavakkalli qo‘yilmalarini hisobga oladigan kapitallashtirishning umumiylarini koeffitsiyenti.

O’rtacha qo‘yilma - daromad qo‘yilmasini baholash uchun foydalaniladigan texnika. Mazkur qo‘yilma hisoblangan vaqtda investitsiyalar yig‘indisi investitsiyalardan tushgan kirimlar yig‘indisidan chiqarib tashlanadi. Natija esa egalik qilish yillari soniga va so‘ngra investitsiyalarning umumiylarini yig‘indisiga bo‘linadi.

O’rnini qoplash fondining omili - davrlarning ma’lum sonidan so‘ng foizning berilgan qo‘yilmasi sharoitida jami qoldiq 1 so‘mni tashkil etishi uchun davriy tarzda deponlashtirish zarur bo‘lgan pul summasini ko‘rsatuvchi hisob raqami.

O’rin qoplash fondi - hisob uchun davriy pul to‘lovlar, hisobiy mablag‘lar ustiga qo‘shib hisoblangan foizlar bilan birga aktivlarni almashtirish yoki qarzlarni uzish uchun foydalaniladi.

Qadrsizlanish - qarang: Yemirilish.

Qayta sotilish narxi - egalik qilish davrining oxirida aktiv sotilishidan tushgan yalpi summa.

Qarz majburiyati 1. Moliyada - uzoq muddatli qarz majburiyati; qarzdorlik guvohnomasi bo‘lib, unga ko‘ra foiz to‘lanadi.

2. Huquqan - olingan majburiyatni ta’minlash uchun kiritilgan summa.

Qiyoslash usuli - sotuvlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiyosiy tahliliga yondoshish.

Qiyosiy birlik usuli - umumiyl olingan asosiy inshootning 1 kv. metri yoki boshqa birlikning to‘la qiymatini aniqlash orqali binoni qurishga ketgan harajatlarni baholash usuli.

Qiyosiy birlik - baholanayotgan mulk va solishtiriluvchi ob’ektlar uchun umumiy o‘lchov birligi.

Qiymat - pulda ifodalangan tovar yoki xizmat qiymati.

Qiymatning so‘nggi bahosi - baholovchi ma’lumotlarni tahlil etib chiqib, uchta asosiy yondoshuv qo‘llanib olingan qiymatning ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtirib, qiymat xaqida so‘nggi mulohazani bildirganidan keyin chiqarilgan qiymatning bahosi.

Qiymatni baholash - vakolatli shaxs, ya’ni ko‘chmas mulkni tahlil etadigan va baholaydigan mutaxassis tomonidan o‘tkaziladigan ko‘chmas mulk ob’ektining, undan biror bir shaxsiy manfaatning hisobiy yoki ekspert qiymatlarini aniqlash.

Qoldiqli mahsuldorlik tamoyili - bu tamoyilga ko‘ra materiallar, mehnat va tadbirkorlik harakatlari harajatlari to‘langanidan so‘ng sof daromadni yerga tegishliligi.

Foiz qo‘yilmasi - 1. Bu qo‘yilmaga ko‘ra qarzga berilgan pullar qarz beruvchiga daromad keltiradi.

2. Asosiy summa uchun daromad qo‘yilmasi. Asosiy summalarini kelgusi qiymatga keltirish yoki kutilgan kelgusi summalarini joriy qiymatga diskontlash uchun foydalaniladigan qo‘yilma. Foiz qo‘yilmasi mablag‘ning qaytishini hisobga olmaydi. Uni samarali va nominal qo‘yilmaga ajratish lozim.

Foydalanish qiymati - mulkdan foydalanishning ma’lum variantidagi mulk qiymati. Masalan, aniq bir bino keltiradigan daromadga pul qo‘yish qiymati. Foydalanish qiymati bozor qiymatidan farq qilishi mumkin.

Shartnomaviy joriy narx - tanlov savdolari natijalari bo‘yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi

Shaharsozlik hujjatlari - hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to‘g‘risidagi hamda ularni qurish haqidagi, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjatlar

Shaharsozlik normalari va qoidalari - shaharsozlikning asosi bo‘lib, ular shaharsozlik faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik va jismoniy shaxslar ijro etishi uchun majburiydir. Shaharsozlik normalari va qoidalari shaharsozlik sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ellvud texnikasi - pul kirimlarining joriy qiymati va daromad soliqlari chiqarib tashlanishidan oldin qayta sotishdan tushgan pul asosida mulk qiymatini ipoteka-investitsion baholash texnikasi; L.U.Ellvud nomi bilan ataladi.

Eng yaxshi va samarali foydalanish tamoyili - kapitallashtirishdan so‘ng yerning eng yuqori joriy qiymatini beradigan daromad oqimini yaratuvchi yer maydonidan qonuniy, jismoniy ehtimoli bo‘lgan, moliyaviy asoslangan holda foydalanish.

Eskirish - texnologiyaning, odamlarning odatlari va didlari yoki atrof-muhitning o‘zgarishlari sabab bo‘lgan mulk ob’ekti foydaliligining kamayishi natijasida qiymatning yo‘qolishi.

Yaroqsizlik holati - ob’ektning shunday holatiki, bunda qo‘yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini ta’riflovchi bitta bo‘lsa ham parametrning miqdori me’yoriy-texnik va (yoki) konstruktorlik hujjatlarida belgilangan talablarga mos kelmasligi.

Yalpi renta (daromad) multiplikatori - mulkning sotilish narxini salohiyatlari yoki haqiqiy yalpi daromadga bo‘lish natijasi.

Yaroqlilik holati - ob’ektning shunday holatiki, bunda qo‘yilgan vazifalarni bajarish qobiliyatini ta’riflaydigan barcha parametrlar miqdori me’yoriy-texnik hujjatlarning talablariga mos kelishi.

Yaxshi (soz) holat - ob’ektning me’yoriy-texnik va/yoki konstruktiv hujjatlarining barcha talablariga mos keladigan holati.

VII. ADABIYOTLAR RO’YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Frank W. Construction Budgeting. Copyrighted and published by Canadian institute of Quantity Surveyors. Institut Canadien des economists en construction. Released: Janyoty 01, 1998. ISBN-10: 1896606261
2. Xiaolin Chen. Finite Element Modeling and Simulation With Ansys Workbench. Publisher: Crc Pr I Llc. Released: March 26, 2014. ISBN-13: 978-1439873847.
3. Муравлева И. «Универсальный справочник сметчика» 2017 год
4. Синявский И. А. Проектно-сметное дело : учеб. для студентов сред. проф. образования / И. А. Синянский, Н. И. Манешина. - 4-е изд., стер. - М. : Академия, 2014. - 448 с.
5. Ардзинов В.Д. и др. Сметное дело в строительстве. Самоучитель. 2009 год.
6. Е.Н.Попова. Проектно-сметное дело: учебное пособие. – Ростов п/Д: Феникс, 2005-287с.
7. Степанов П. С. “Экономика строительства” М., “Юрайт”, 2005.
8. Ёдгоров В.У., Бутунов Д.Я., Хайтов Э.Б. Ценообразование в строительстве. ТАСИ. ДП «AQIPM», Т.: 2012г.-188с.
9. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Haitov E.B. Qurilishda tanlov

savdolari va uni tashkil etish. T.: TAQI, 2012.

10. Мэтикубов А.Д. Методические указания к курсовой работе «Сметное дело в строительстве» для бакалавров по направлению 341100 – «Стоймостный инжиниринг» Т.: ТАСИ 2020 г

11. “Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2009.

12. “Qurilishda narx shakllantirish uchun smeta normativ xujjatlar tizimi” Shaharsozlik normalari va qoidalari. (ShNQ 4.01.01–04 Iqtisodiy normativlar). O’zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi. Toshkent 2004

13. Исаков М.Ю. Экономика капитального строительство. Учебное пособие. –Т.: Издательство Литературного фонда Союза писателей Узбекистана, 2004, - 128 с.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz–O’zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portalı
2. www.press-service.uz–O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.minstroy.uz/ (O’zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi rasmiy sayti)
4. www.stat.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)
5. www.soliq.uz (O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi)
6. www.stroyinfo.uz (Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlar va narxlarni shakllantirish Markazi sayti)
7. www.mfer.uz–O’zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
8. www.UzA.Uz–O’zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
9. www.review.uz – “Ekonomicheskoye obozreniye” jurnalining rasmiy sayti
- www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
10. www.uzreport.com – biznes axborotlari portalı
11. www.vip.lenta.ru – Internet nashriyoti